

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

A.H. AYUBJONOV, U.A. SALIXODJAYEVA

MOLIYA STATISTIKASI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun
o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – IQTISODIYOT – 2020

*UO‘K: 311(075.2)
KBK: 60.6я 73*

Ayubjonov A.H., Salixodjayeva U.A. Moliya statistikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: IQTISODIYOT, 2020. – 233 b.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida, mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash hozirgi zamon dolzarb masalasi bo‘lib, u barcha fanlar bo‘yicha mazmunli o‘quv adabiyotlari yaratishni taqozo qiladi.

O‘quv qo‘llanmada moliya statistikasining predmeti, vazifalari va tashkil qilinishi masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, unda moliya statistikasi fanining predmeti, vazifalari va o‘rganish usullari; Davlat byudjeti statistikasi; Banklar faoliyati statistikasi; O‘zbekiston davlat byudjetining statistik tahlili; O‘zbekiston banklarining xalqaro moliya institutlari bilan o‘zaro hamkorligi; Valyuta bozori statistikasi; Valyuta bozorini statistik o‘rganish; Fond bozori statistikasi; Banklarda qimmatli qog‘ozlar operatsiyalari statistikasi ko‘rsatkichlarini hisoblash va ularning iqtisodiy-statistik tahlili metodologiyasi haqida fikr yuritilgan. O‘quv qo‘llanma moliya statistikasi fanini o‘rganuvchi barcha statistika, moliya-iqtisod ixtisosligi talabalari, magistrarlari, doktorantlari hamda mutaxassis amaliyotchilarga mo‘ljallangan.

В условиях либерализации экономики в Узбекистане кардинальное улучшение качества подготовки специалистов является актуальным вопросом современности, что требует создания современных учебников и учебных пособий по всем предметам высшего образования.

В учебном пособии широко освещены задачи и организация финансовой статистики. В нем рассмотрены также следующие вопросы: Предмет, задачи и методы статистики финансов; Статистика государственного бюджета; Статистика деятельности банков; Статистический анализ государственного бюджета Узбекистана; Взаимодействие банков Узбекистана с международными финансовыми институтами; Статистика валютного рынка; Статистическое изучение валютного рынка; Статистика фондового рынка. Учебное пособие предназначено для студентов всех статистических, финансово-экономических специальностей, магистрантов, докторантов и специалистов-практиков.

In the conditions of liberalization of the economy in Uzbekistan, radical improvement of the quality of training of specialists is a topical issue of the present time, which necessitates the creation of meaningful textbooks in all disciplines.

The teaching manual covers a wide range of subjects, functions and organization of financial statistics. In addition, it includes subjects, functions and methods of study of the subject of Financial Statistics; Statistics of the state budget; statistics of the activity of banks; statistical analysis of the state budget of Uzbekistan; interaction of banks with international financial institutes; statistics of the foreign exchange market; statistical study of the foreign exchange market; statistics of the stock market; There is an opinion on the methodology of calculating the statistics of securities transactions in banks and their economic and statistical analysis. The book is intended for students of all financial and economic specialties, masters, doctoral students and specialist practitioners of financial institutions studying the subject of financial statistics.

ISBN 978-9943-6067-5-3

*UO‘K: 311(075.2)
KBK: 60.6я 73*

© «IQTISODIYOT», 2020.
© Ayubjonov A.H., Salixodjayeva U.A., 2020.

KIRISH

Respublikamizda so'nggi yillarda moliya bozorini yanada rivojlantirish, aholini sifatlil moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olish ko'lamini kengaytirish, moliyaviy tashkilotlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ushbu sohada iste'molchilarning huquqlari va g'ubuniy manfaatlarini himoya qilish uchun quliat shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari izchil amalga oshirilmogda.

Shu bilan birga, islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotning barqaror o'sishining ta'minlashiga, aholi hayotining sifati va darajasini oshirishga yo'naltirilgan moliyaviy xizmatlarni faol rivojlantirish respublikada moliya bozorining rolini kuchaytirishni va moliya vositalarini keng qo'llashni taqozo etmogda.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish albatta yuqori malakali mutaxassis kadrlar tomonidan bajariladi. Bu esa o'z navbatida oliy o'quv yurtlari o'quv rejalarida zamon talabiga javob beradigan mutaxassislik fanlarini o'qitishni taqozo etadi.

Shu maqsadda, mamlakatimizda oliy ta'lim sifati yanada oshirish borasida bir qator taqsingga loyiq ishlar amalga oshirilmogda.

Jumladan, Prezidentimiz tomonlaridan oliy ta'limni yanada rivojlantirish bo'yicha bir qator qarorlar va farmonlar qabul qilindi. "Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmogda.

Shuningdek, tajribali pedagog va mutaxassislarni jalb etgan holda, o'quv reja va dasturlarni tubdan qayta qurib chiqish zarur. Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli soxalarda kadrlarni tayyorlash boyicha murakkab vazifalarni turibti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabr kuni Oliy Majlisga navbatdagi murojatnomani taqdim etgan ma'ruzalarida ta'kidlaganlaridek: "Biz 2018-yilga "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb nom berib, Davlat dasturi dorasida 21 trillion so'm va 1 milliard dollarga teng 76 mingta loyixani amalga oshirganimiz

o'rgan yili yaxshi niyat bilan boshlagan ishlartimizning natijasini ko'rsatib turibti. Sanoat, qishloq xo'jaligi, kapital qurilish, transport kommunikatsiya, servis va xizmat ko'rsatish sohalarda salmoqli yutuqlar qo'lga kiritildi. Ayniqsa, har qachongidan xam og'ir bo'lgan bu yilgi mavsumda mirtishkor dehqon va fermerlartimiz fidokorona mehnat kirganlartimiz fidokorona alohida ta'kidlashni istardim. Aholi farovonligini oshirish maqsadida jori yilda ish haqi, pensiya stipendiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori o'rgan yillarga nisbatan sezilarli ravishda oshirildi. Xususan, pedagog xodimlarning ish haqi so'nggi 10 yilda birtinchi marta 50 foizga ko'paytirildi. Ko'rilgan chora tadbirlar tu'fayli aholining real umumiy daromadlari 2017-yilga nisbatan 12 foizga oshdi".

Yaqinda Mustaqillikning 28 yilligini nishonlash arafasida turgan O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich, oldindan puxta ishlangan model asosida qurayotganligi natijasida, mustahkam moliyaviy, iqtisodiy, byudjet, bank kredit tizimi, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydigan resurslar zahirasi yaratildi. Bugungi kunda respublikamiz tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida taraqqiy etgan yetakchi davlatlar bilan hamkorlikda ish olib borayotgani, yurtimizga investitsiyalar orqali yangi texnika va texnologiyalarning kiritib kelayotgani hech kimga sir emas. Shunga garamasdan, O'zbekiston ham inqirozni bartaraf etishning zaruriy chora tadbirlarini ishlab chiqishi zarur.

Yurtimizda 2017-2021 yillarda mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini beshita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakatlar strategiyasini Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq oliy ta'lim tizimida ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmogda.

Jumladan, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni yaxshilash va kengaytirish bilan bir vaqtda oliy ta'lim tizimini isloh qilishni talab qiladi. Buning uchun, birtinchi navbatda, oliy ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Davlat standartlarida

¹ Shavkat Mirziyoyev. 2019-yil Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili. // Xalq so'zi. 2018-yil 29-dekabr, № 271-272 (7229-7230)

ko'zlangan fanlarning mazmuni va o'quv dasturlarini xalqaro andozalarga moslashtirib takomilllashtirish zarur.

Ushbu o'quv go'llanma Oliy ta'lim "Statistika" ta'lim yo'nalishi bo'yicha taxsil oluvchi bakalavrlar uchun Davlat ta'lim standartlari talablarida ko'zlangan "Moliya statistikasi" fanining O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan Namunaviy Dasturga muvofiq tayyorlangan.

Mazkur o'quv go'llanma Moliya statistikasining umumustubiy masalalarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Unda ilgor pedagogik texnologiyalaridan va interaktiv ta'lim usullaridan foydalanilgan. Har bir mavzu masalalarini bayon etishda dasturlangan o'quv texnologiyasi tamoyillari go'llanilgan. Jumladan, asosiy ilmiy tushuncha va kategoriyalar hamda nazariy masalalar mazmunini oydinlashtirish uchun dastlab ular muhim mantiqiy tuzilmaviy elementlar va xarakterli jihatlarga ajratilib, sxema – tarhlar, chizma va boshqa ko'rgazmali shakllar orqali tasvirlangan. So'ngra ular har taraflama izohlanib, hayotiy misollar yordamida tushuntirib berilgan.

O'quv go'llamada ayrim mavzular, masalan, Moliya statistikasi fanining predmeti, vazifalari va o'rganish usullari; Davlat byudjeti statistikasi; Banklar faoliyati statistikasi; O'zbekiston davlat byudjetining statistik tahlili; O'zbekiston banklarining xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro xamkorligi; Valyuta bozori statistikasi; Valyuta bozori statistikasi o'rganish; Fond bozori statistikasi; Banklarda qimmatli qog'ozlar operatsiyalari statistikasi bilan bog'liq bo'lganligi uchun axborotlar texnologiyalaridan foydalanish zaruriyati va yo'llariga e'tibor jalb qilingan.

Har bir bob go'shimcha adabiyotlar ro'yxati, qisqacha xulosalar, mustaqil ishlash uchun savollar va topshiriqlar bilan yakunlangan. Shu sababli ushbu o'quv go'llanma talabalar statistik bilimlarni mustaqil o'rganishi uchun ko'maklashadi degan umiddamiz.

Barcha bozor iqtisodiyoti rivojlangan va taraqqiy eta boshlagan mamlakatlarda, ularning universitetlari va oliy maktablarda yagona statistika kursi o'qitilib kelindi va hozirgi kunda o'qitilmoqda. Ko'p yillar davomida simovlardan o'tgan mazkur boy tajribani hisobga olib, universitet va institutlarimizda ham

ularning yo'nalishlaridan gatiy nazar, yagona statistika kursini o'quv jarayonlarida qo'llash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shu bilan birga oliy ta'limning iqtisodiy yo'nalishlari bo'yicha talabalarda statistik tafakkur bunyod etish sohasida yurtimizda to'plangan tajribalardan voz kechish ham noto'g'ri bo'ladi. Bunda Moliya statistikasi bilan bir qatorda i'timoiy-iqtisodiy statistika va tarmoq statistikalari o'qitib kelinganligi nazarda tutilmoqda. Shu sababli maskur O'quv go'llanma faqat Moliya kelinganligi nazarda tutilmoqda. Shu sababli maskur O'quv go'llanma faqat Moliya statistikasiga oid masalalarini yoritish bilan cheklanamaydi. Unda iqtisodiy statistikaning muhim masalalari ham bayon etilgan.

O'quv go'llamada Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ko'p yillar davomida fanni o'qitish jarayonida to'plangan tajribalar umulashtirilgan. Ushbu o'quv go'llanma kamchiliklardan xoli emasligini mualliflar oldindan e'tirof etib, uning mazmuni bo'yicha qilingan xohishona taklif va maslahatlarini bajonidil qabul qilishini bildiradi va sezgir kitobxonlar o'z fikrlarini quyidagi manzilgohga yozib yuboradilar deb umid qiladi: Toshkent - 700063, Chilonzor tumani, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, TDIU, Statistika kafedrası .

Mualliflar

VA O'RGANISH USULLARI

1.1. Moliya statistikasi fanining predmeti va vazifalari

Ilk bor statistikaning vujudga kelishi amaliy ehtiyojlar bilan uzviy bog'liq

bo'lgan. Qadim zamonlardayoq qur'olli kuchlarga layoqatli kishilar sonini bilish, soliqqa tortish obyektlarini belgilash zarurati tug'ilgan. Bu esa davlatni aholi soni va tarkibida bo'layotgan o'zgarishlar ustidan kuzatishlar olib borishga undagan. Qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq, hunarmandchilik, sanoat va boshqa sohalar hamda iqtisodiy aloqalarning tarqiqiy etishi ho'jalikka oid hodisa va amallar ustidan munozam ravishda kuzatish olib borishni taqozo etgan. Natijada baholar va savdo-sotiq statistikasi, mahsulotlarni ishlab chiqarish va taqsimoti statistikasi va boshqa iqtisodiy statistika tarmoqlari vujudga kelgan va rivoj topgan.

Ammo, ilk bor statistika davlatni boshqarish muhim qur'oli sifatida shakllangan va rivojlanib borgan bo'lsa ham, shu bilan bir vaqtda ko'pdan ko'p voqealarni, faktarni miqdoriy jihatdan hisobga olish va ma'lum darajada tartibga solish natijasida ilmiy jihatdan juda qiziqarli materiallar ham jang'arildi. Bu ishning dastlabki onlari dayoq sezgir kuzatuvchi tarqoq butunlay tasodifiy tuyulgan o'g'itil yoki g'iz bola tug'ilish soni, nikoxlanish, yoki u yo bu yoshda o'tish soni va shularga o'xshash hodisalarda ma'lum tartib- qoidalar borligini payqab hayranda goldi.

Amaliy faoliyada to'plangan tajribalarni umumlashtirish yo'li bilan dastlab davlatni boshqarish uchun zarur ma'lumotlar to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish va taqlin etish qoidalarini, tartiblarini, yo'llarini, usullarini yaratildi. Statistika ana shunday fan sifatida qaralib yangi izlanishlar asosida boyib bordi. Uning mohiyati va usullarini takomillashtirishda matematika usullari, qur'ollari va yangi nazariyalardan foydalanish juda go'l keldi, chunki statistika ham matematika o'xshab sonlar, miqdorlar bilan shug'ullanadi, ammo shunday to'falarni bilan-ki, ular sifatga ega bo'lib, ommaviy hodisalarni o'lcash natijasida hosil bo'ladi. Pirovard oqibatda statistik tafakkur uslubiy, ya'ni statistika nazariyasi va uslubiyati (metodologiyasi) shakllandi. Endi bu uslub nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy voqealarni o'rganishda, balki boshqa sohalarni ham birin-ketin egallay boshladi. Hozirgi vaqtda u deyarlik barcha

fan va texnika sohalarida, tajriba-eksperimentlarda, fizika, kimyo, biologiya, arxeologiya, agronomiya, tibbiyot, psixologiya, sosiologiya, pedagogika, tushunoslik, harbiy ishlar va hatto tasviriy san'ada hamda musiqqa bastalashda qo'llanilmoqda.

Shunday qilib, Moliya statistikasi yuzaki qarashda oddiy so'z bo'lsa ham, lekin ko'p qir'ali mazmunga ega.

Statistikaga oid ma'lumotlar uchun umumiy o'ziga xos xususiyat shundan iborati, ular ayrim yakka hodisalariga tegishli bo'lmasdan, balki doimo ularning to'plamini qamrab oluvchi umumlashtiruvchi miqdorlardir. Yakka hodisa, to'plamdan farqli o'laroq, mustaqil va bir - boriga o'xshash tarkibiy elementlarga bo'linmaydi. To'plam bita yoki bir nechta hodisaga kamayishi bilan butunlay yo'q bo'lmasdan, oldingi mavqeyini saqlab qoladi.

Statistika deganda ma'lumotlar to'plash jarayoni ham ularni qayta ishlash, xohisona va aniq taqlin etish qoidalarini ham tushuniladi. Ana shu mazmunida statistika ham fan, ham faoliyat sohasi, ham kasb turidir. U yushitirilgan bilim tarrog'i ham, maqsadlarni amalga oshirish uchun kuchli qur'ol ham, kasbkorlik faoliyati sohasi ham hisoblanadi. Ko'zga ko'ringan iqtisodchi olim E.Kejn shohidlik qilishicha, ma'muriy muassasalarda ishlarni tasniflashga oid amerika ma'lumotnomasida statistika quyidagicha ta'riflanadi: "Statistika faktlarni xulosalar yasash uchun asos sifatida to'plash, tasniflash va miqdoriy baholash haqidagi fandi"² Shu jihatdan u tasviriy statistika nomi bilan ham yuritiladi.

Shunday qilib, statistika atamasi ko'p qir'ali tushuncha bo'lib, hozirgi kunda u quyidagi mazmunlarda ishlatiladi:

-statistika deganda turmushimizning turli tomonlari - iqtisodiy, madaniy, siyosiy, ma'naviy, sotsial-psixologik, ijtimoiy-demografik, moliyaviy va hokazo hodisalar hamda atrof-muhit holati haqidagi ma'lumotlar majmuasi tushuniladi. Bunday mazmunida bu so'z ko'proq davriy matbuot sahifalarida va axborot vositalarida ishlatiladi;

-ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash jarayoni ham statistika deb yuritiladi;

² Э.Кейн. Экономическая статистика и хронометрика. Пер. с англ. – М.: Статистика, 1997. 11 бет.

ularni qandaydir yagona bir usul yordamida o'rganib bo'lmaydi. Buning uchun maxsus usullar, yo'llar majmuasi, bilim vositalari zarur.

Umuman olganda, uslubiyat so'zi quyidagi lug'aviy ma'nolarga ega: 1)

bilimning ilmiy metodlari haqidagi ta'limot; 2) biror narsani nazariy tekshirish va amaliy bajarish usuli, vositasi; 3) aytim fan tarmoqlarida qo'llanadigan usullar, metodlar, yo'llar, vositalar majmuasi; 4) ishlash va boshqarishdagi o'ziga xos uslub, ya'ni maxsus yo'llar, usullar majmuasi.

Statistika uslubiyati deganda ommaviy hodisa va jarayonni ilmiy tekshirishda va boshqarishda, unda namoyon bo'ladigan g'oyalarni o'rganish va ular dan amaliy foydalanish jarayonida qo'llanadigan o'ziga xos uslub, ya'ni usullar, metodlar, yo'llar, vositalar majmuasi tushuniladi. Ommaviy hodisa va jarayonlarning miqdoriy nisbatlarini aniqlash, ular da namoyon bo'ladigan g'oyalarni oydinlashtirish maqsadida amalga oshiriladigan statistik tadqiqotlar bir necha bosqichlarga, ular esa fazalarga bo'linadi. Bosqich va fazalar o'zining maqsadi, vazifalari va xususiyatlari bilan bir birtan ajralib turadi. Shuning uchun har bir faz va bosqichda o'ziga xos tekshirish usullari, yo'llari, vositalari qo'llanadi. Shu bilan birga o'rganilayotgan soha va masalaning xarakteriga qarab, unga mos keladigan u yoki bu usul (yoki usullar to'dasi) aniq tekshirishda, uning muayyan fazasi va bosqichida asosiy, yetakchi qurol sifatida ishlatiladi.

Keng va to'la ma'noda statistik tadqiqot ikkita bosqichdan tashkil topadi:

1) Tasviriy statistika bosqichi

2) Analitik statistika bosqichi.

Birinchi bosqichda quyidagi asosiy maqsad va vazifalar ko'zlanadi:

o'rganilayotgan obyektlarni spetsifikatsiyalash, ular haqida ma'lumotlar to'plash va qayta ishlash, ommaviy hodisa va jarayonlarning miqdoriy me'yorlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni hisoblash, ularni ko'rkam va ixcham shaklda va zarur hollarda so'z bilan tavsiflash. Ikkinchi bosqichda esa ko'rsatkichlarni statistik tahlil qilish, ular orasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarni aniqlash va baholash, o'rganilayotgan obyektlar taqsimotlaridagi g'oyalarni oydinlashtirish, ilmiy gipotезalarni

-statistik ko'rsatkichlarni hisoblaydigan va saqlaydigan, axborot xizmatlarini ko'rsatadigan maxsus tashkilotlar nazarda tutilgan ham statistika so'zi foydalaniladi. Masalan, gazeta sahifalarida "statistika bergan ma'lumotlarga ko'ra" degan ibora tez-tez uchray turadi;

-yirik korxonalar va idoralarda ho'jalik faoliyat haqidagi ko'rsatkichlarni hisoblash va hisobotlar tuzish bilan shug'ullanadigan bo'lim nomi ham statistika deb yuritiladi;

-statistika deb maxsus ilmiy-fan yo'nalishi ham ataladi;

-statistika deganda turli ilmiy-texnika sohalarda gipotезalar yasash, baholash va yechimlar qabul qilish jarayonida statistik uslubiyatni tatbiq qilish ham tushuniladi;

-matematika turli mezonlar va umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar statistika deb yuritiladi.

Moliya statistikasi moliya, bank, sug'urta, investitsiya, soliq sohalarni o'rganadi. Ular biror narsalar to'plamida va o'zaro bog'langan to'plamlar orasida kechadi. Bu yerda hodisa so'zi jamiyat hayotida, turmushda, tabiatda, bir so'z bilan aytganda, moddiy dunyoda haqiqatda bo'lgan real voqeani bildiradi. Masalan, bankdagi pul miqdori, to'lanadigan soliq miqdori, korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy holati, iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalar miqdori, sug'urta to'lovlari va hokazolar. Jarayon so'zi voqealar oqimini, ularning ma'lum makon va zamon sharoitida g'anday tezlikda kyechishini, yuzaga chiqish yoki chiqmashini, o'zgarishini, hodisalar rivojlanishini anglatadi.

1.2. Statistika uslubiyati

Ommaviy hodisa va jarayonlar har xil sohalarda kuzatiladi va turli tumanlar, ularning kyechish sharoitlari ham, tuzilishi ham turlichadir. Demak, bunday hodisa va jarayonlar ko'pdan-ko'p shakllarga va turlarga ega. Ayniqsa, ijtimoiy hayotdagi hodisa va jarayonlar o'zining murakkabligi va juda ko'p o'zaro bog'lanishlarga ega. Shu sababli statistik g'oyalarni ham ular da har xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi va turli jihatlarni ta'riflaydi. O'z-o'zidan ravshanlik,

turti tarmoqlarida moliyachil mutaxassislariga qo'yilgan malaka talablar doirasidagi kasbiy bilimlarni berishdan iboratdir. Bundan tashqari moliya fani unga qiziquvchi va unga ehtiyoj sezuvchi amaliyotchi mutaxassislarining kasbiy malakalarini oshirish uchun muhim bo'lgan ma'lumotlar va bazaviy bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Moliya statistikasi fanining predmeti va maqsadlaridan kelib chiqib uning o'ziga xos vazifalarining mazmuni aniqlanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Moliya statistikasi predmeti nima?
2. Moliya statistikasi qanday statistik usullardan foydalalanadi?
3. Uslubiyat deganda nimani tushunasiz?
4. Moliya statistikasiga oid muammolar mavjudmi? Bo'lsa qaysilar?
5. Moliya statistika vazifalari nimalardan iborat?

ishonchlilik jihatidan baholash va statistik xulosalarni chiqarish va hokazolar asosiy maqsad va vazifalar hisoblanadi.

Har bir bosqichni, o'z navbatida, fazalarga bo'lish mumkin. Masalan, tasviriy statistika bosqichida quyidagi fazalar ajralib turadi: o'rganilayotgan obyektlar to'plamini, ommaviy hodisa va jarayonni spetsifikatsiyalash; ular ustida statistik kuzatish o'tkazish; to'plangan boshlang'ich ma'lumotlarni ma'lum tartibga solish, umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni hisoblash, ularni ko'rkam va ixcham shakllarda tasvirlash. Analitik statistika bosqichida esa quyidagi fazalar odatda ko'zga tashlanadi: o'rganilayotgan obyektlarning turli belgilari asosida taqsimotlarini tuzib, ularni gipotezalarini o'rganish, hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarni miqdoriy ifodalash, ularni zamonada rivojlanish tendensiyalarini o'rganish, ilmiy gipotezalarini baholash va statistik xulosalar yasash, murakkab jarayon tomonlari orasidagi o'zaro bog'lanishlarni integral tizim shaklida bir butunlikda tahlil qilish.

U yoki bu bosqichning har bir fazasida ommaviy hodisa va jarayonlarni tekshirishning turli usullari, vositalari, yo'llari qo'llanadi. Masalan, obyektlarni spetsifikatsiyalash fazasida ularni oddiy yoki murakkab tasniflash, elementar yoki ierarxik birlashtirish turli tuzib guruhlashlar, ikkilamchi (qayta) guruhlashning turli yo'llari, klaster tahlil yo'llari va hokazolar ishlatiladi. Statistik kuzatish jarayonida ishlab chiqarish yoki laboratoriya sharoitida tajriba-sinovlar o'tkazish, hisobot yoki maxsus tekshirishlar va ro'yxatlar amalga oshirish, anketalar yoki tahlil usullarida kuzatish va boshqalar qo'llaniladi. Hodisalar orasidagi o'zaro bog'lanishlarni o'rganishda analitik guruhlash, parallel qatorlarni tuzish, ularning egri chiziqlarini diagrammalarda tasvirlash, balans usuli, korrelyatsion va regression tahlil usullari, dispersion tahlil usullari, ko'p o'lchovli tahlil usullari (omili tahlil, bosh komponent usuli va h.k.) va boshqa usullardan foydalaniladi. Bundan buyon so'z asosiy usullar

ustida boradi.

Moliya statistikasi fanini o'qitishdan maqsad esa iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashda ularning fan doirasidagi bilimlar bilan qurollantirish, moliyaning statistikasini tashkil etish va uni amalga oshirish jarayonlarini ham nazariy ham amaliy jihatlar bilan tanishtirish, talabalarida davlat moliyasi tizimi va iqtisodiyotning

uchun subsidiya va dotatsiyalar ajratishi, bazi tovarlarni ishlab chiqarishga esa

ma'lum imtiyozlar joriy qilishi mumkin. Yana shunday tovarlar borki, ularni ishlab chiqarish va iste'mol qilish atrof-muhit va kishilar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatlarda davlat ushbu tovar va xizmatlarga belgilangan soliq

stavkalarini oshirish orqali ularni ishlab chiqarishni qisqartiradi va hokazo.

Ijtimoiy rivojlanish vazifasi esa bevosita aholini ijtimoiy himoya qilish, ularning turmush farovonligini oshirish, to'laqonli hayot kechirishlari uchun ijtimoiy obyektlarni qurish, sog'lqni saqlash, maorif va madaniy sohalarini rivojlanirishni, shuningdek, aholi daromadlari orasidagi kuchli tabaqalashuvni tartib solishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish ham muhim masala hisoblanadi.

Xavfsizlikni ta'minlash esa mamlakat va undagi aholining tinch va farovon hayot kechirishlari, ishlab chiqaruvchilarning erkin faoliyat yuritishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Mustaqillikka erishgach, O'zbekistonda davlat byudjeti tizimini takomillashtirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu ishlarining asosida mamlakatda qulay ishlab chiqarish muhitini yaratish, horijiy investitsiyalar uchun keng yo'l ochish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar yotadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasiga muvofiq Davlat byudjeti o'z ichiga respublika byudjeti, Qorqalpoqiston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarni oladi.

■ respublika byudjeti – Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ularning tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarti yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi;

■ Qorqalpoqiston Respublikasi byudjeti – Davlat byudjetining Qorqalpoqiston Respublikasi pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda Qorqalpoqiston Respublikasi bo'yicha byudjet ijrosi aks ettiriladi;

2-bob. DAVLAT BYUDJETI STATISTIKASI

2.1. Davlat byudjetining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va

ahamiyati

Davlat byudjetimamlakatda ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu tizimning samarali amal qilishi

mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarga erishish, shu bilan bir qatorda, inliyasiya, ishsizlik va boshqa bir qator iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi oqibatlarni bartaraf qilish imkonini beradi. Davlat byudjetining milliy iqtisodiyotidagi eng asosiy vazifasi – bu fiskal siyosat orqali ishlab chiqarish va iste'mol orasidagi mutanosiblikni ta'minlash, shuningdek, aholi daromadlaridagi yuqori tabaqalashuvni oldini olishdan iborat. Yuqoridagi masallarning oqilona hal qilinishi mamlakat iqtisodiy qudrati bilan bir qatorda aholi farovonligini ham oshirish imkonini beradi.

Fiskal siyosat qadim-qadimdan mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosi hisoblangan. Qadimda Davlat byudjetining asosiy vazifasi mamlakat mudofaa tizimini mustahkamlash, yangi erlarni bosib olish, yangi inshootlarni barpo etish bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib bu tizim vazifalari miqdorani ko'paydi va mazmunan kengaydi hamda butunlay boshqa masalalarni hal qilishga yo'naltirilmoqda. Endilikda, davlat byudjeti tizimi nafarat mamlakatning xavfsizligini ta'minlaydi, balki bir qator ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Davlat byudjetining mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi asosiy vazifalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- iqtisodiy rivojlanish vazifasi;

- ijtimoiy rivojlanish vazifasi;

- xavfsizlikni ta'minlash vazifasi.

Iqtisodiy rivojlanish vazifasi deganda byudjet tomonidan ishlab chiqarishni rivojlanirish va kengaytirish uchun amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatni tushunish mumkin. Bunda davlat o'z byudjetidan ma'lum tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish

■ mahalliy byudjet – Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shaxar doirasidagi tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda shahar va viloyatlar doirasida byudjet daromadlari va xarajatlarning ijrosi va manbalari o'z aksini topadi.

Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- Daromadlar:
- gonnunhujjatlarda belgilangan solliqlar, yig'img'lar, bojlar va boshka majburiy to'lovlar;
 - davlatning moliyaviy va boshka aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;
 - gonnun hujjatlarga muvofik meros olish, xadya etish xuquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
 - yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

- gonnun hujjatlarda ta'qilannagan boshka daromadlar.

Xarajatlar:

- byudjet mablag'lari oluvchilarning joriy xarajatlari shaklida;
- joriy byudjet transferlari shaklida;
- kapital xarajatlar shaklida;
- kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan byudjetlar transferlari shaklida;
- davlat maqsadli jamg'armalarga beriladigan byudjet dotatsiyalari va byudjet ssudalari shaklida;
- davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar shaklida;
- gonnunhujjatlarda ta'qilannagan boshqa xarajatlar shaklida.

Daromad va xarajatlar alohida respublika byudjeti bo'yicha va alohida Qorag'ipog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar bo'yichaham ma'lum tarkibda tasdiqlanadi.

O'zbekiston Moliya vazirligining 2018- yilgi Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha dashtabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018- yilda O'zbekiston byudjetining xarajatlari 62,2 trillion so'mga teng bo'lib, ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari 34,6 trn. so'm, uy-joylar qurish dasturlarini birgalikda moliyalashtirishga kredit limitasi 370 mlrd.so'm, NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari 15 mlrd.so'm, ijtsodiyot xarajatlari 6,9 trn.so'm, markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari 3,0 trn.so'm, davlat hokimiyati, boshqaruv, adliya va prokuratura organlarini saqlash xarajatlari 3,0 trn.so'm, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qorag'ipog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetlarining zahira jamg'armalari mablag'lari 520,2 mlrd.so'm va boshqa xarajatlar 13,5 trn. so'mni tashkil qilgan.

Bilvosita solliqlar bo'yicha tushumlar 33,1 trn.so'mni yoki Davlat byudjeti daromadlarining 53,2 foizini tashkil etdi. Jumladan, byudjetga qo'shilgan qiymat solig'idan 21,8 trn.so'm (umumiy daromadlardagi ulushi 35,1 foiz), aksiz solig'idan 8,3 trn.so'm (13,3 foiz), abonent raqamlaridan foydalanganligi uchun to'lovlardan 0,3 trn.so'm (0,5 foiz), bojxona bojlaridan 1,4 trn.so'm (2,2 foiz), transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz uchun iste'mol solig'idan 1,3 trn.so'm (2,1 foiz) kelib tushdi.

Uqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkin, davlat Davlat byudjetiningasosiy vazifasi mamlakada har tomonlama ijtimoiy-ijtsodiy rivojlanishni ta'minlash va shu orqali milliy ijtsodiyotning chet manbalarga qaramligini kamaytirish, ijtsodiy mustaqillikka erishish va oxir oqibada aholi farovonligining oshishini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarni optimallashtirish, aholining kam ta'minlangan qalamini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarishni rivojlantirishning soliq mexanizmini rivojlangan mamlakatlar tajribasini asosida shakllantirish lozim bo'ladi. Ayni paytda, Davlat byudjetisiyosati ishlab chiqarishni o'stirishga va uning samaradorligini oshirishga, soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini

ko'paytirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Soliq bazasining kengayishi o'z navbatida byudjetga kelib tushadigan soliq summasining oshishiga sabab bo'ladi.

2.1-jadval

2018- yilda bazi mamlakatlarda soliq yuqining iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri

Mamlakatlar	Soliq yuki (YAIMga nisbatan %da)	O'racha ish haqi, AQSH doll.
SHveysiya	51,0	25,710
Finlyandiya	47,3	23,240
Belgiya	46,6	26,440
Fransiya	44,1	26,270
Avstriya	42,8	28,110
Germaniya	39,3	28,870
Meksika	39,3	3,600
Ispaniya	35,8	14,350
AQSH	31,8	28,020
Turkiya	22,2	2,830
Kanada	16,0	19,020

Manba: Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlari

1.1.1-jadval ma'lumotlardan ko'rinadiki, soliq siyosatining optimallashtiruvchi davlat byudjetiga soliq tushumlarining oshishiga, shu bilan bir qatorda aholi turmush darajasining yaxshilanishiga sabab bo'ladi.

Ushbu sohada O'zbekistonda ham qator chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev 28- dekabr 2018- yil Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek: "2019- yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g'oyasi soliq yukini kamaytirish, soddava va barqaror soliq tizimini qo'llashni ko'zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbarbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin.

Davlat byudjeti statistikasi – moliya statistikasining bir bo'limi sifatida, mamlakatning fiskal siyosatining asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish bilan shug'ullanadi hamda byudjet sohasining miqdoriy ko'rsatkichlari bilan uning sifat ko'rsatkichlarini o'zaro uzviylikda o'rganadi.Ushbu jarayonda statistik metodlar yordamida ushbu soha ko'rsatkichlari o'rganilib, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan standartlar bilan solishtiriladi. Hisoblangan ko'rsatkichlar

standartlariga mos kelmagan hollarda ularni moslashtirish bo'yicha kerakli chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi.


Davlat byudjetisiyosati milliy iqtisodiyotda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Soliq stavkalarini ko'tarish yoki pasaytirish orqali ishlab chiqarishni kamaytirish yoki oshirish. Bunda muayyan turdagi tovar va xizmatlarni, ayniqsa, aholi ko'p iste'mol qiladigan tovarlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish uchun soliq stavkalarini pasaytiradi va aksincha, aholi salomatligi va atrof-muhitga zarar keltiruvchitovar va xizmatlar uchun soliq stavkalarini oshiradi va shu orqali ularni ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga erishiladi.

2. Aholini ijtimoiy himoya qilish uchun tabaqalashgan soliq stavkalarining joriy qilishorqali aholining kam daromad oluvchi qatlamining turmush darajisini yaxshilaydi va shu orqali aholi daromadlaridagi kuchli tabaqalashuvga yo'l qo'yilmaydi.

Spunday qilib, Davlat byudjeti tizimini statistik o'rganishning asosiy maqsadi mazkur tizimning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyatini miqdoran o'lchash va sifat jihatdan takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat. Davlat byudjeti tizimi milliy iqtisodiyotda sodir bo'ladigan barcha iqtisodiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sirni baholashda esa statistikaning o'rni beqiyosdir. Chunki, ushbu omillarining ta'siri statistikadagi indeks yoki korrelyasion-regression tahlil asosida aniqlanadi va tahlil qilinadi.


Ushbu sohani statistik jihatdan o'rganishning yana bir muhim tomoni shundaki, unda ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda soliq stavkalar va davlat byudjetidan ajratiladigan subsiidiya va dotatsiyalarining o'rmini ham baholash mumkin. Bu jarayonda soliq stavkasi va boshqa omillarining ishlab chiqarish natijalariga ta'siri omilli tahlil asosida baholanadi va xulosa qilinadi. Bundan tashqari byudjet daromadlarini oshirish yo'llari va xarajalar tarkibini optimallashtirish masalalari ham statistik tahlillar asosida amalga oshiriladi.



Manba: Spahn,P.B. Intergovernmental Fiscal relation in light European Experiences. Macroeconomic management. WorldBank, 2018.

2.2-diagramma. 2018- yilda Germaniya byudjet tizimi darajalari o'rtasida soliqlarning vertikal taqsimlanishi

AQSH byudjet tizimi. AQSH byudjeti – Federal zaxiralari tizimi deb atalib, uning asosiy hususiyati barcha byudjet darajalarining erkinihgidir. Bunday erkinklik mahalliy byudjet organlariga o'z daromadlarini shakllantirish sohasida va ularni sartiash sohasida berilgan. Amerika federal byudjet tizimining o'ziga xosligi shundaki, soliq bazalarini belgilash uchunyo'l barcha byudjet darajalari uchun ochiq. Unga ko'ra shtatlar soliq bazasini va soliq stavkalarini erkin belgilash huquqiga ega. Federal zaxiralari tizimining asosiy daromad manbai yuridik va jismoniy shaxslarga solinadigan daromad solig'i hisoblanadi, u jami byudjet daromadlarining uchdan ikki qismini tashkil etadi (2.3-diagramma).



Manba: Spahn,P.B. Intergovernmental Fiscal relation in light European Experiences. Macroeconomic management. World Bank, 2018.

2.3-diagramma. 2018- yilda AQSH shtatlar va okruglar hukumatlari daromadlarining tarkibiy tuzilishi

Vaponiya byudjet tizimi. Vaponiya davlat byudjetitizimida byudjet darajalari orasida tenglik mavjud emas. Bunga sabab, markaziy hukumat tomonidan soliq yukining teng taqsimlanishi va mahalliy ma'muriy funksiyalarni lozim darajada bajarishini qo'llab-quvvatlash maqsadida mahalliyorganlarning byudjet bilan ta'minlanganligini tenglashtirishni amalga oshirishidir. Bunda, hukumat barcha tarkibiy bo'g'inlarga ularning geografik hududi, aholi soni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda byudjet mablag'larini taqsimlashni amalga oshiradi.

Xitoy Xalq Respublikasi byudjet tizimi. XXRda XX asrning 90-yillarida shakllantirilgan Davlat byudjeti tizimi xalqaro ekspertlar tomonidan eng samarali byudjet tizimi deb tan olingan. Buning asosida, hukumat tomonidan markazlashgan byudjet tizimidan voz kechish siyosati-“Ochiq eshiklar” siyosati yotadi. Markazlashgan tizimning asosiy kamchiligi shundan iborat ediki, Xitoyda ushbu byudjetga keladigan daromadning asosiy manbai davlat korzonalari tomonidan

⁴ Spahn,P.B. Intergovernmental Fiscal relation in light European Experiences. Macroeconomic management. World Bank, 2011.

1.2.2-jadvaldan ko'rinadiki, dunyo mamlakatlarning ko'pchiligida

2018-yilda byudjet taqchilligi bilan bog'liq iqtisodiy muammolar mavjud. Eng yuqori byudjet defitsiti AQSHda, keyingi o'rinda esa Hindistonda mavjud. AQSH federal zaxiralar tizimining byudjet taqchilligi 901mlrd.AQSH dollarini yoki jami daromadlarning 31,0 foizini tashkil etmoqda.

Byudjet taqchilligi mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning oqibatida, aholini ijtimoiy himoya qilish, iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash masalalarini hal qilish qiyinlashib boradi. SHu sababdan, byudjet daromadlari va xarajatlari orasidagi mutanosiblikni ta'minlash va byudjet taqchilligining oldini olish muhim vazifalardan hisoblanadi.

2.3. Davlat byudjeti to'g'risidagi axborotlar bazasi va uni takomillashtirish masalalari

Davlat byudjeti tizimida statistik tadqiqotlarning birinchi bosqichi – statistik kuzatish, ya'ni ushbu tizim to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan tadqiqotning natijasi olingan ma'lumotlarning qay darajada ishonchli va aniqlikka bog'liq bo'ladi. Ushbu ma'lumotlarni Davlat byudjeti tizimi to'g'risidagi axborotlar bazasidan olish mumkin. SHundan keib chiqqan holda, tizim to'g'risidagi axborotlar bazasi tadqiqotsamaradorligining bosh omili hisoblanadi.

Davlat byudjetitizimining axborotlar bazasi – bu davlat byudjeti tizimining rivojlanish tendensiyalari, dinamikasi, byudjet daromadlari va xarajatlari hamjami, ularning strukturasi to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiruvchi ma'lumotlar majmuidir. Axborotlar bazasidagi ma'lumotlarning aniqligi avashonchilligi statistik tadqiqot natijalarning real sharoitga yaqinligini ta'minlaydi va Davlat byudjeti tizimini rivojlantirishdagi muammolar va ularni hal qilish bo'yicha zaruriy tavsifalar berish va xulosalar chiqarishimkonini beradi.

Davlat byudjeti tizimini ifodalovchi axborotlar bazasidagi ma'lumotlar va tashqi manbalardan tashkil topadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti tizimi to'g'risidagi ma'lumotlarning ichki manbasi – mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan turli vazirliklar, idoralar va qo'mitalar tomondan e'lon qilinadigan statistik

2.3-jadval Dunyo mamlakatlarda byudjet ko'rsatkichlarining 2018-yildarivivojlanish dinamikasi

O'rti	Mamlakatlar	Daromadlar, mln.AQSH doll.	Xarajalar, mln.AQSH doll.	Defitsit/ profits, mln.AQSH doll.	Defitsit/ profits, %
1	AQSH	2902000	3803000	-901000	-31,00 %
2	Yaponiya	1971000	2495000	-524000	-21,00 %
3	Xitoy	1646000	1729000	-83000	-4,80 %
4	Germaniya	1551000	1588000	-37000	-2,33 %
5	Fransiya	1386000	1535000	-149000	-9,71 %
6	Italiya	1025100	1112000	-86900	-7,81 %
7	BuyukBritaniya	986500	1188000	-201500	-16,96 %
8	Braziliya	978300	901000	+77300	+8,60 %
9	Kanada	660200	747800	-87600	-11,71 %
10	Ispaniya	545200	672100	-126900	-18,88 %
11	Australiya	498100	541000	-42900	-8,61 %
12	Rossiya	428600	440100	-11500	-2,68 %
13	Gollandiya	381300	420400	-39100	-9,80 %
14	Hindiston	210000	302000	-92000	-30,50 %
15	Norvegiya	280500	209500	+71000	+25,30 %

Manba: Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlaridan foydalanildi (2018 yil).

to'lanadigan soliqlar hisoblanadi. Ishlab chiqarishning o'sishi, ichki raqobat muhitining kuchayishi natijasida davlat korxonalarining jami ishlab chiqarishda ulushi pasayib ketdi va o'z-o'zidan ayonki, markazlashgan byudjet daromadlari ham sezilarli pasaydi. XX asrning 70-yillarida boshlangan byudjet islohotlari esa, markazlashgan byudjet tizimining yo'qotilishiga sabab bo'ldi. Buning natijasida byudjet daromadlari sezilarli darajada ortdi.

Endi dunyo mamlakatlari bo'yicha byudjet daromadlari va xarajatlari, byudjet defitsiti (profitsiti) bo'yicha statistik ma'lumotlarni tahlil qilamiz (2.3-jadval).

- milliy hisoblar tizimi va yakuniy iktisodiy ko'rsatkichlarni, ularga bo'lgan talabga e'tiboran, ishlab chikish hamda respublikada statistika tizimini boskichma-boskich isloh kilish.

Axborotning tashqi manbalari esa Xalqaro Valyuta Fondi (XVF), Jahon Banki (JB), Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), MDH mamlakatlari bo'yicha turli statistik ma'lumotlar, shuningdek, turli xususiy ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining ma'lumotlari hisoblanadi. Ular byudjet parametrlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarni o'zlarining oylik, yillik statistik to'plamlarida chop etadilar. XVF tomonidan har yili "Government Finance Statistics Yearbook" (Davlat moliyasi statistikasi yilnomasi) davlat byudjeti tizimi to'g'risidagi ma'lumotlarning xalqaro darajadagi asosiy manbasini hisoblanadi. Unda quyidagi ko'rsatkichlar aks ettiriladi:

1. Davlat byudjetining daromadlari va strukturasini;

2. Davlat byudjeti xarajatlari va strukturasini;

3. Davlat byudjeti saldosini va uning VAIMdagi ulushi (byudjet defitsiti yoki profitsiti).

Bundan tashqari, Xalkaro statistika instituti mavjud bo'lib, u statistika sohasida xalkaro ilmiy markazdir, u 1887-yilda tashkil etilgan bo'lib, asosiy vazifasi statistik usullar va ishlamalarni unifikatsiyalash, davlat statistikasi uslubini takomillashtirish, statistika nazariyasi rivojlantirishga ko'maklashish. MDX mamlakatlari statistika xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish bilan 1992-yil tuzilgan MDH Statistika qo'mitasi shug'ullanadi. U MDH mamlakatlari bo'yicha statistik to'plamlarni nashr etadi.

Mamlakatimiz Davlat byudjeti tizimi to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining quyidagi hisobot shakllari orqali to'planadi:

1. Balans hisoboti;

2. Balans hisobotiga ilova;

3. Xarajatlar smetasining bajarilishi to'g'risida hisobot;

4. Nomoilyaviy aktivlarning harakati to'g'risida hisobot;

ma'lumotlar hisoblanadi. Bunga misol sifatida, O'zbekistonda chikadigan gazeta va jurnallarda ayrim korporatsiya va korxonalarining, tijorat banklarining moliyaviy hisoblarini, O'zbekiston iktisodiy va ijtimoiy hayotiga va ayrim sohalarga oid statistik ma'lumotlar chop etiladigan "Iktisodiy axborotoma", "Ekonomicheskoe obozrenie" (iktisodiy shaharlar), "Dengi i kredit" (pul va kredit) va "O'zbekiston iktisodiy yo'nalishlari" jurnallarini keltirish mumkin. Ammo statistik axborotlarning asosiy manbai bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va uning yillik statistik to'plamlari xizmat kiladi.

Respublika Davlat statistika ko'mitasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida"gi Qonun va boshqa rasmiy hujjatlariga muvofik amalga oshiradi. Qorakalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshkarmalari, tuman (shaharlar) statistika bo'limlari bilan birgalikda Davlat statistika ko'mitasining yagona tizimini tashkil etadi va uning zimmasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklatilgan:

-xalkaro statistika andozalari va ko'rdalariaga mos ilmiy asoslangan statistika uslubiyat va ko'rsatkichlar tizimini ishlab chikish;

-mamlakat ijtimoiy-iktisodiy ahvolini ifodalovchi statistik axborotlarni yig'ish, tayyorlash, saklash va tahlil kilish;

-davlat hokimiyati va idoralariaga statistik axborotlarni takdim etish (qonunlariga muvofik);

-respublikadagi ijtimoiy-iktisodiy jarayonlarni eks ettiruvchi statistik ko'rsatkichlarning xalkoniyligi, xolisligi, tezkorligi, barakarorligi va o'zaro bog'likligini ta'minlash;

-xorijiy davlatlar statistika xizmatlari va xalkaro statistika tashkilotlari bilan statistika axborotlarini elektron ayriboshlashni amalga oshirish hamda axborotlar to'plab borish;

-respublikada yagona statistik axborotlar makonini shakllantirish va ko'llab quvvatlash;

ehtiyot bo'lish zarur. Narxlarini tartibga solish esatlab va taklif muvozanatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak.⁸

O'zbekiston Respublikasida Davlat byudjeti tizimi to'g'risidagi axborotlar bazasini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ishlarini amalga oshirish lozim:

- axborotlarni to'plash va qayta ishlashda fan-texnikaning eng so'nggi yutuqlaridan foydalanish;
- axborotlarni to'plash va qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi ishchi-hodimlarning malakasini oshirish;
- axborotlarni to'plashning elektron tizimini takomillashtirish;
- axborotlarni qayta ishlashning dasturiy bazasini takomillashtirish;
- axborotlar bazasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish;

Uquqdagi vazifalarning hal qilinishi, davlat byudjeti tizimi sohasidagi statistik tadqiqotlarning samaradorligini oshiradi va aniq ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Davlat byudjeti tushunchasi nima?
2. Davlat byudjeti aktiv va passiv qismiga nimalar kiradi?
3. Byudjet xarajatlari tarkibini sanab bering?
4. Byudjet daromadlari tarkibini sanab bering?
5. Davlat byudjetlari jahon modelлари qaysilar?
6. Kanada byudjet tizimi xususiyati nimada?
7. Byudjet defitsiti yoki profitsiti nima?

5. Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumot;
6. Byudjet tashkilot pul mablag'larining Taragqiyot Fondi bo'yicha harakati to'g'risidagi hisobot;
7. O'quv muassasalaridagi to'lov shartnoma asosidagi ta'limdan tushgan mablag'lar harakati to'g'risida hisobot;
8. Boshqa byudjetdan tashqari mablag'larining harakati to'g'risida hisobot;
9. Jori yildagi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot.

O'zbekiston Respublikasining byudjet siyosati o'zining rivojlanishida ikki –

fiskal (1991-1995) va nonfiskal (1996-2007) bosqichlarini bosib o'tdi. Har bir bosqichda byudjet tizimi to'g'risidagi axborotlar bazasini takomillashtirish vazifasiga alohida e'tibor qaratildi.

Birinchi bosqichda milliy valyutamiz "so'm"ning muomalaga kiritilishi bilan pulni o'zlashtirish va pulni qaytarib olishga turki kredit siyosatini kuchaytirish byudjetni balanslash tizimiga e'chishga turki bo'lib xizmat qildi.

Byudjet siyosatining bu bosqichida quyidagi vazifalarni bajarish maqsad qilib qo'yildi:⁷

1. Balanslash tizimiga byudjetni shakllantirish;
2. Soliq tizimini kelgusida takomillashtirish;
3. Byudjet xarajatlari optimallashtirish;
4. Amaliyotda qayta tashkilatlanish tizimiga o'tish;
5. Byudjetga oid g'ujalarni takomillashtirish;
6. O'rta muddatli byudjetlarni tuzish va ijro etish.

Davlat iqtisodiy uslublarini o'zlashtirish, uning salbiy oqibatlarini doimo kuzatib olishdan uning oldini olishga harakat qilish kerak. Masalan, soliq siyosatini olib boranda, u tadbirkorlik tashabbusi darajasini pasaytirishga olib kelmasligidan

⁷Рахобов А.В., Косимова Г.А. Давлат молиясини бошқариш. Ўқув қўлланма. –Т.: Иқтисод-молия, 2008. 104-б.

⁸Жумаев Н., Бурынов У. Молиянинг долзарб муаммолари. –Т.: Янги аср авлоди, 2003. 142-б.

3-bob. O'ZBEKISTON DAVLAT BYUDJETNING STATISTIK TAHLILI

3.1. Davlat byudjeti ni ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi

Mamlakatning iqtisodiy siyosati va xo'jaligining rivojlanishida davlat byudjeti

tizimi muhim rol o'ynaydi. Davlat byudjeti siyosati iqtisodiy resurslardan yalpi foydalanishga va yalpi talab darajasiga ta'sir etadi, to'lov balansining holatini, qarzdorlik va iqtisodiy o'tish darajasini belgilaydi. Yuqorida sanab o'tilgan jihatlarga statistik jihatdan baho berish va miqdoran o'lchash uchun esa statistik ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkichlar tizimining maqsadi natqat, davlat byudjeti siyosati ni miqdoran o'lchash, balki uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarga ham baho berishdan iboratdir. Ularni hisoblashdan yana bir maqsad siyosati omillarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimining rivojlanishiga xohis baho berish, undagi tarkibiy o'zgarishlarni aniqlash, davlat byudjeti tizimining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini topishdir. Davlat byudjeti tizimi o'zining umumiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, xususiy ko'rsatkichlar tizimiga ham ega. Ularni hisoblash metodologiyasi umumiy statistika qoidalari va xalqaro me'yorlarga asoslanadi. Bu ko'rsatkichlar mamlakat davlat byudjeti tizimini har tomonlama tahlil qilish va uni rivojlantirish bo'yicha yakuniy xulosalar qilish imkonini beradi.

Davlat byudjeti tizimini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi quyidagilarni qamrab oladi:

1. Davlat byudjeti tizimining mutlaq ko'rsatkichlari
2. Davlat byudjeti tizimining nisbiy ko'rsatkichlari
3. O'rta ko'rsatkichlar
4. Samaradorlik va indeks ko'rsatkichlari.

Yuqoridagi keltirilgan ko'rsatkichlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, davlat byudjeti tizimining ma'lum jihatlarni tavsiflaydi.

Davlat byudjeti tizimining mutlaq ko'rsatkichlari –davlatbyudjeti tizimining daromadlari va xarajatlari hamda byudjet kamomadi (yoki profiti)(ning mutlaq qiymatini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich bir necha statistik ko'rsatkichlarni qo'shish, ayirish orqali topiladi. Masalan, 2018- yilda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti tizimining daromadlari esa 62170,0 mlrd. so'm va

byudjet profiti 59,4 mlrd. so'mni tashkil etgan⁹. Yuqoridagi ko'rsatkichlar mutlaq

kattaliklar hisoblanib, Davlat byudjeti tizimini faqat miqdoriy o'zgarishlarini ko'rsatadi. Lekin bu ko'rsatkich muayyan kamchiliklarga ega, ya'ni u Davlat byudjeti tizimi ko'rsatkichlarini davr yoki hududlar bo'yicha qanday tezlikda yoki intensivlikda rivojlanayotganini ko'rsata olmaydi. SHu sababdan ikkinchi tur ko'rsatkichlar, ya'ni nisbiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Nisbiy ko'rsatkichlar Davlat byudjeti tizimining yillar yoki hududlar bo'yicha qanday o'zgarishini ko'rsatadi va ikkita mutlaq miqdorni bittir-biriga bo'lish orqali topiladi. Nisbiy miqdorlarning kamchiligi shundaki, ular faqat muayyan hudud yoki davrda davlat byudjeti tizimining rivojlanish darajasini ko'rsatadi, lekin butun mamlakat miqyosida umumlashtirib ko'rsata olmaydi. Bunday holda Davlat byudjeti tizimining o'rta ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Yuqoridagi uchta ko'rsatkichning har biri mavjud raqamlarni qo'shish yoki ayirish, bo'lish yoki o'rta ko'rsatkichni topish orqali aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkichlar Davlat byudjeti tizimi omillari ta'sirida uning o'zgarish darajalarini ifodalay olmaydi. Bunday holda tahlil qilishning indeks metodlaridan foydalaniladi. Har qanday iqtisodiy jarayonga bir vaqtning o'zida bir necha omillarning ta'sir ko'rsatishini hisobga olsak, bu metod davlat byudjeti tizimi natijalarini yanada to'laroq o'rta ko'rsatkichlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Davlat byudjet statistikasining asosiy vazifasi yuqoridagi ko'rsatkichlar orqali ushbu tizimning rivojlanishiga umumiy baho berish va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish hamda pronoz modellarini ishlab chiqishdan iborat. Mamlakat bo'yigining taqsimlanishi, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar xarajati, solliqqa tortish va davlat xarajatlari, qarz olish jarayonidagi siyosat, makroiqtisodiyotdagi disbalanslar byudjet daromadlari, xarajatlari va kamomadiga uzviy bog'liq. SHu jihatdan ham uning rivojlanishiga statistik ko'rsatkichlar orqali miqdoriy baho berish milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

⁹ Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг 2016 йилдаги давлат бюжети ижроси тўғрисидаги маълумотлари. Манаба: www.mfl.uz

tadbirdir. Masalan, kichik firmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadidavlat tomonidan ajratiladigan subsidiyalari;

- davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar;

- markaziy bankning foydasi. Markaziy bank tomonidan xukumatga o'tkazilgan foyda daromad hisoblanadi.

Shunday qilib davlat boshqaruv organlarining operatsiyalari daromadlar va

xarajatlarga bo'linadi. Ularning tasnifi iqtisodiy mazmunni asosida olib boriladi.

Byudjet daromadlari quyidagi ko'rsatkichlar orqali shakllanadi:

- daromadlar va transferlar;

- soliq tushumlari;

- qo'shimcha qiymatdan olingan soliq;

- aksiz soliqlari;

- korporatsiyalardan olinadigan daromad solig'i;

- shaxsiy daromadlardan olinadigan soliq;

- ijtimoiy sug'urta va pensiyalardan olinadigan soliq;

- Davlat byudjeti tizimi soliqlari;

- boshqa soliq tushumlari;

- soliqdan tashqari tushumlar;

- litsenziya, yig'im va hokazo;

- markaziy bank foydasidan ajratmalar;

- transferlar;

Byudjet xarajatlari esa quyidagilar tashkil etadi:

- joriy xarajalar;

- ish haqi;

- tovar va xizmatlar haridi;

- foiz to'lovlar;

- tashqi foiz to'lovlar;

- ichki foiz to'lovlar;

- pensiyalar;

- transferlar;

Davlat moliya statistikasi tizimi davlat boshqaruv organlarining barcha operatsiyalarini milliy va jahon iqtisodiyoti barcha sektorlari bilan bo'lgan sohalarni qamrab oladi.

Bu tizimning asosiy prinsiplari o'z ichiga quyidagi tushunchalarni oladi¹⁰:

- daromadlar, kiritmalar, to'lovlar va xarajalar. Birinchidan, barcha daromadlar –

kiritmalar, lekin hamma kiritmalar daromad bo'la olmaydi. Majburiyatni qoplash bilan

bog'liq bo'lmagan kiritmalar barchasi daromaddir. Davlatga kredit shaklida

to'langan kiritmalar daromad emas, chunki ular qaytarilishi kerak.

- hamma to'lovlar ham xarajat bo'lmaydi (masalan, kreditni qaytarib berish bu

xarajat emas, lekin foiz to'lovi xarajadir);

- yalpi va sof summa. Daromadlar va xarajalar odatda uning yalpi miqdori

(summasi) bilan ko'rsatiladi;

- ikki tomonlama va bir tomonlama operatsiyalar natijasida pul tovar yoki

xizmat evaziga to'lanadi. Bir tomonlama operatsiyalarda esa to'lov qandaydir tovar

yoki xizmatga ega bo'lish bilan belgilanmaydi (masalan, transfer yoki grant).

- soliq yoki nosoliq bo'lmagan tushumlar; daromadlar (grantlardan tashqari)

barcha qaytmaydigan tushumlarni o'z ichiga oladi.

Daromadlarni ikki turga bo'lish mumkin:

- joriy mablag'lar hisobiga tushgan daromadlar va kapital evaziga tushgan

daromadlar. Soliq esa davlat organlari tomonidan olingan (bir tomonlama tushumlar)

va ijtimoiy ehtiyojlar uchun sarflangan bir tomonlama tushumlardir.

Soliq tushumlarga fiskal monopoliyalardan davlat byudjetiga to'langan

daromadlar va ijtimoiy sug'urta bo'yicha majburiy operatsiyalar kiradi.

Nosoliq tushumlari - mulk egaligidan tushgan daromad, to'lovlar, jartimalar va

davlat korxonalari tomonidan foydadan ajratmalaridir.

- be'araz tushumlar – bu boshqa mamlakat xukumatlaridan va xalqaro

tashkilotlardan mamlakatlarga berilgan bir tomonlama tushumlardir;

- davlat tashkilotlarini sof kreditlash – davlat siyosatiga oid masalani hal etish

¹⁰Огулшаев А. Молия фанидан маълумотлар матни. Наманган мухандислик педагогика институти. -Н.: 2006. 15-27 б.

Davlat byudjeti tizimining samaradorligini aniqlashda elastik koeffitsient va soliqlar dinamikasi ko'rsatkichidan foydalaniladi.

Elastik koeffitsienti quyidagicha hisoblanadi:

$$E_{solliq} = \frac{\text{Solliqtushhunnlarining o'zgarishi}}{\text{Solliqbazasining o'zgarishi}} \quad (3.1.2)^{12}$$

Elastiklik koeffitsientining iqtisodiy ma'nosi shundan iboratki, ya'ni soliq bazasining 1%ga o'zgarasa, solliq tushumi qanday o'zgarishini ifodalaydi. Masalan, solliqqa tortish bazasi joriy davrda oldinga davrga nisbatan qo'shimcha 5%, solliq tushumlari esa 7,5% ortdi deb faraz qilsak, u holda solliq uchun elastiklik koeffitsienti $E_{solliq} = \frac{1,075}{1,05} = 1,024$ yoki solliq bazasining 1 birlik ortishi, solliq tushumining 1,024 birlikka o'rtishiga olib keladi. Agarda solliqqa tortish bazasi ko'rsatkichi o'rtinga yalpi milliy mahsulot ko'rsatkichidan foydalansak, u holda YAMM bo'yicha solliq elastiklik koeffitsienti kelib chiqadi va u quyidagicha bo'ladi:

$$E_{solliq} = \frac{\Delta YAMM}{\Delta AT} \quad (3.1.3)^{13}$$

bu erda: ΔAT - o'zgarmas solliq tizimidagi solliq tushumlarining foizdagi o'zgarishi; $\Delta YAMM$ - yalpi milliy mahsulot hajmining qo'shimcha o'sishi.

Elastiklik koeffitsienti 1 dan yuqori bo'lsa, u holda solliq tizimi ham elastik (moslanuvchan) hisoblanadi, ya'ni yangi soliqlar va solliqqa tortish me'yorlari o'zgarimgan holda soliqlar hajmi YAIM nisbatan o'sadi. Agar elastiklik 1 dan kichik bo'lsa, u holda solliq tushumlarining o'sishi YAMM o'sish sur'atlaridan ortda qolib ketadi, buning oqibatida esa byudjet kamomadi paydo bo'ladi. Bunday holida davlat byudjetisiyosatiga zgartirishlar kiritish orqali ushbu nomutanosiblikning oldi olinadi.

Keyingi muhim ko'rsatkichlardan biri bu iqtisodiyotdagi solliq yukidir. Ushbu ko'rsatkich ishlab chiqarish subyektlarining iqtisodiy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Solliq yukining iqtisodiy ma'nosi - bu mamlakatda yaratilgan yalpi ichki

¹²Yu. A. Mankva, ¹³Аюбжонов А.Х., Маматкулов Б.Х., Сайфуллаев С.Н. Статистика, Дарсоник. -Т.: ТДИУ, 2010.

Umumiy kamomadlar=(daromad + olingan grantlar)-

-(xarajalar + goplangan qismlar chegrib tashlangan kreditlar).

Demak davlat byudjeti defitsiti- bu daromad va grantlar hisobiga to'lgantushumdan xarajalar va sof kreditlash miqdorining ortib ketishidir. Bu kamomad davlat boshqaruv organlari tomonidan yoki qarz olish yohud o'zining mavjud mablag'lari hisobiga goplanadi.

Byudjet balansini aniqlash va byudjet balansni kamomadi tahlili o'ta muhim va bu tahlil davlatning mohiyaviy ahvoli, pul, kredit sohasi, ichki talab va to'lov balansini to'liq ifoda etadi.

Balans har xil usullarda hisoblanishi mumkin. Ularning eng soddasi va keng qo'llaniladigani joriy byudjet balansni hisoblanadi.

Joriy byudjet balansni (joriy operatsiyalar bo'yicha balans). Bu balans joriy

daromadlar va joriy xarajalar asosida aniqlanadi va quyidagicha teng:

$$\text{Byudjet saldosini} = \text{Joriy daromadlar} - \text{Joriy xarajalar} \quad (3.1.1)^{11}$$

Makroiqtisodiy nuqtai nazardan davlat byudjeti daromadlari va xarajalari hamda byudjet kamomadi dinamikasini o'rganishda byudjet ko'rsatkichlarini YAIM miqdori bilan taqqoslashi lozim. Buning natijasida byudjet parametrlari mamlakat YAIMning nechta tashkil etishini quyidagi tenglamalar asosida aniqlash:

$$\text{Daromad Xarajalar} / \text{YAIM}, \text{ yoki } \frac{\text{Byudjetdefitsiti (profitsiti)}}{\text{YAIM}}$$

¹¹Аюбжонов А.Х., Маматкулов Б.Х., Сайфуллаев С.Н. Статистика, Дарсоник. -Т.: ТДИУ, 2010.

mahsulotning nechta foizi davlat byudjetiga soliq to'lovlari sifatida tushishini anglatadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Solliq tushumlar} = \frac{\text{YAIM}}{100\%} * (3.14)^{14}$$

Byudjet daromadlarining samaradorligini baholash uchun Tanzi diagnostika testidan foydalaniladi va u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Konsentratsiya indeksi. Bu indeks olinayotgan byudjet daromadlarida soliq turlari va stavkalarining konsentratsiyasi (ulushi) ni ifodalaydi. Agar daromadlar kam soliq turlari va yuqori foiz stavkalari asosida olinayotgan bo'lsa, konsentratsiya yuqori bo'ladi. Bu iqtisodiy subyektlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Dispersiya indeksi. Bu ko'rsatkich soliq turlari va ulardan byudjetga kelib tushadigan tushumlar orasidagi tarfovuni ifodalaydi.

3. Eroziya indeksi. Hakikiy soliq bazalari va potensial soliq bazalari orasidagi tarfovuni ifodalaydi. Agar ushbu tarfovut yuqori bo'lgan sharoitda davlat byudjetisiyosatiga zaruriy o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim bo'ladi.

4. Kechikib qolish indeksi. Ushbu indeks solliqlar qay darajada o'z vaqtida to'lanishini ifodalaydi.

5. Ob'ektivlik indeksi. Olinadigan solliqlar ganchalik obektiv aniqlangan solliqqa tortish bazasidan olinadi?

6. Solliqlar olish darajasining ta'minlash indeksi. Solliqlar to'liq yig'ib olinadimi?

7. Solliqlar olingandagi xarajalar indeksi. Solliqlarni yig'ib olish bo'yicha byudjet xarajalari ganchalik eng kam me'yoriga (minimumga) keltirilgan?

Byudjet daromadlar tuzilishini quyidagi jadval asosida aniqlash mumkin.

¹⁴Вахובהв.В., КосиновТ.А. Давлат молликсинини бошқариш. Укув кўлилма-Т.: Иқтисод-моллик, 2008. 104б

3.1.-jadval

Ўзбекистон Республикаси davlat byudjeti daromadlarining hajmi va tarkibi

Yil-	Jami, mlrd. so'm	shu jumladan							
		Bevosita solliqlar	Billvosita solliqlar	Resurs to'lovlari va mulk solig'i	Boshqa daromadlar				
2006	3310,9	865,8	26,1	1627,9	49,2	629,8	19,0	187,3	5,7
2011	13596,7	3546,8	26,1	6858,5	50,4	2095,5	15,4	1095,9	8,1
2013	21295,7	5414,2	25,4	10434,5	49,0	3312,5	15,5	2134,4	10,0
2015	31729,6	7433,1	23,4	16851,8	53,1	4311,6	13,6	3133,1	9,9
2016	36492,7	8798,5	24,1	19193,8	52,6	4816,1	13,2	3684,4	10,1
2017	49681,0	11539,4	23,2	26133,2	52,6	6867,4	13,8	5141,0	10,3
2018	62229,5	13025,0	20,9	33104,3	53,1	9910,7	15,9	6189,5	9,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari

2.1.1-jadval ma'lumotlaridan bilish mumkinki, bevosita va billvosita solliqlar davlat byudjeti daromadlari tarkibida asosiy o'rinni egallaydi. 2006- yilda davlat byudjetiga 1627,9 mlrd.so'm billvosita soliq (qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz va import solig'i) kelib tushgan bo'lsa, 2018- yilda bu ko'rsatkich 33104,3mlrd.so'mni tashkil qilgan, demak 2018- yilda 2006- yilga nisbatan billvosita solliqlar 2,9 foiz bandga ortgan. Davlat byudjetining daromadalarining shakllanishida ikkinchi o'rinni bevosita solliqlar egallaydi. 2006- yilda bevosita solliqlar miqdori 865,8 mlrd.so'm bo'lsa, 2018- yilda 13025,0 mlrd.so'mni tashkil etgan. Bu 2018- yilda bevosita solliqlardan kelib tushadigan daromadlar 2006 yilga nisbatan 5,2 foiz bandga kamayganligini anglatadi.

Byudjet profitlari yoki defitsiti – bu byudjet daromadlari va xarajalari orasidagi farq bo'lib, daromadlar xarajalardan ortiq bo'lganda profitli, aksincha bo'lsa defitsit holati deb hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich YAIMga nisbatan foizlarda hisoblanadi va byudjet barqarorligini baholashga xizmat qiladi. Byudjet defitsitining yuqori bo'lishi mamlakatdagi barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Uni quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$$D(P) = \frac{\text{Daromadlar} - \text{xarajatlari}}{YAIM} * 100\% \quad (3.1.5)^{15}$$

bu erda, $D(P)$ – byudjet defitsiti yoki profitsiti.

Bundan tashqari davlat byudjeti statistikasida boshqa bir gator statistik ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bular: nisbiy miqdor ko'rsatkichlari (rejaning bajarilishi, tarkibiy siljish, taqqoslash va intensivlik), indeks ko'rsatkichlari, dinamika gatorlarini tahlil qilishko'rsatkichlarini kiritish mumkin.

Byudjet statistikasida rejası bajarilishi nisbiy miqdori quyidagi formula asosida hisoblanadi va tahlil qilinadi:

$$\text{Reja bajarilishi} = \frac{\text{Haqiqatdabajarilganmiqdor}}{\text{Rejabo'yichabeligilangannmiqdor}} * 100\% \quad (3.1.6)^{16}$$

Agar uning qiymati 100%dan katta bo'lsa, u holda reja ortig'i bilan bajarilgan, agar 100%dan kichik bo'lsa, reja bajarilmagan deb hisoblanadi. Masalan, mamlakatda byudjet daromadlari 5%ga ortishi rejalashtirilgan edi deb faraz qilaylik, haqiqatda esa 3,8%ga ortdi. U holda reja bajarilishi nisbiy miqdori $RB = \frac{1,05}{1,038} * 100\% = 98,85\%$ ga teng bo'ladi, ya'ni reja 1,15%ga kam bajarilgan.

Intensivlik nisbiy miqdori esa byudjet parametrlarining tarqalish va uchrash tezligini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkichga yaqqol misol aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi byudjet xarajatlari yoki daromadlaridir. Byudjet xarajatlari bo'yicha intensivlik nisbiy miqdorini aniqlash uchun jami byudjet xarajatlari summasini aholining o'rtaacha yillik soniga bo'lish lozim:

$$\text{Aholi j. b. x.} = \frac{\text{Jami byudjet xarajatlari summasi}}{\text{Aholining yillik soni}} * 100\% \quad (3.1.7)^{17}$$

Bu ko'rsatkich mamlakatdagi ijtimoiy holatga baho berish hamda mamlatlarni o'zaro taqqoslash imkonini beradi.

¹⁵ ПодиєвХ. Молия статистикаси. –Т.: Иқтисод-Молия, 2010. 98-126 б.

¹⁶ Уша манба

¹⁷ Уша манба

Byudjet statistikasida byudjet siyosatining holatini baholashda dinamika

gatorlari ko'rsatkichlaridan ham foydalaniladi. Bunda byudjet jarayonlarini ifodalovchi ko'rsatkichlarning vaqt bo'yicha o'zgarishi statistik tahlil qilinadi. Bunda mulq o'zgarish, o'zgarish sur'ati, qo'shimcha o'zgarish sur'ati va uning asosiy ko'rsatkichlari bazis va 1%ga qo'shimcha o'sishning mulq mohiyati kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ular bazis va zanjirsimon usullarda hisoblaniladi.

Davlat byudjeti siyosatini indeks metodi orqali ham statistik tahlil qilish mumkin. Indekslar individual va umumiy indekslar bo'linadi. Byudjet tizimining individual indekslari alohida byudjet jarayonining joriy davra bazis davrga nisbatan o'zgarishini ifodalasa, umumiy indekslar byudjet tizimiga umumlashtirib xulosa beradi. Byudjet daromadlari (D) va xarajatlari (N)ning individual indekslarini quyidagicha hisoblash mumkin:

$$I = \frac{D_1}{D_0} \text{ va } I = \frac{H_1}{H_0} \quad (3.1.8)^{18}$$

Byudjet ko'rsatkichlarining umumiy indeksi davlat byudjet siyosatini omilli tahlil qilish imkonini beradi.

Quyida byudjet tizimini indeks metodi yordamida tahlil qilish masalasini yoritamiz. Agar bizga har bir soliq to'lovchiga mos keluvchi soliq miqdori (q) va soliq to'lovchilar soni (p) berilgan bo'lsa, u holda byudjetga tushadigan soliqlar hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi ikki omil (har bir soliq to'lovchiga mos keluvchi soliq miqdori va to'lovchilar soni)ning ta'sirini baholash uchun o'zgaruvchan, o'zgarmas va tarkibiy siljishlar indekslaridan foydalaniladi. O'zgaruvchan indeks har ikki omil ta'sirida byudjetga tushadigan soliq summasining o'zgarishini ifodalaydi va quyidagicha hisoblanadi:

$$I_{\text{O'zgaruvchan}} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0} * 100\% \quad (3.1.9)^{19}$$

¹⁸ ПодиєвХ. Молия статистикаси. –Т.: Иқтисод-Молия, 2010. 98-126 б.

¹⁹ ПодиєвХ. Молия статистикаси. –Т.: Иқтисод-Молия, 2010. 98-126 б.

O'zgarmanas tarkiblii indeks esa davlat byudjetiga kelib tushadigan soliq miqdorning har bir kishiga to'g'ri keluvchi soliq miqdorning o'zgarishi hisobiga panday o'zgarishini ifodalaydi va quyidagicha hisoblanadi:

$$I_{ozgarmanas} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_1} : \frac{\sum p_1}{\sum p_0} \quad (3.1.10)^{20}$$

Tarkibliy siyishlar indeksi esa soliq miqdorning soliq to'lovchilar sonining o'zgarishi hisobiga o'zgarishini ifodalaydi:

$$I_{tarkibliysiyish} = \frac{\sum q_0 p_1}{\sum q_0 p_0} : \frac{\sum p_1}{\sum p_0} \quad (3.1.11)^{21}$$

Ylgoridagi uchta indeks ko'rsatkichlari orasida quyidagicha bog'liqlik mavjud:

$$I_{ozgarmanas} = I_{ozgarmanas} * I_{tarkibliysiyish} \quad (3.1.12)^{22}$$

Bundan tashqari davlat byudjetiko'rsatkichlarining uch omilli tahlilini ham amalga oshirish mumkin. Bunda davlat byudjetiga kelib tushadigan soliq daromadlarining o'zgarishiga (ΔSD), soliq bazasiga (B), soliq stavkasi (S), soliqdaromadlarining o'zgarishiga (d) ning ta'siri o'rganiladi. Agar bazis davr ko'rsatkichlari B_0 , S_0 va d_0 ; joriy davr ko'rsatkichlari B_1 , S_1 va d_1 deb belgilasak, unda quyidagi formulalarga ega bo'lamiz:

$$\text{Bazis davrda soliq tushumi: } SD_0 = B_0 * S_0 * d_0 \quad (3.1.13)^{23}$$

$$\text{Joriy davrda soliq tushumi: } SD_1 = B_1 * S_1 * d_1 \quad (3.1.14)^{24}$$

$$\text{Soliq daromadlarining o'zgarishi: } \Delta SD = SD_1 - SD_0 \quad (3.1.15)^{25}$$

Soliq daromadlarining o'zgarishi quyidagicha bo'ladi:

$$1. \text{ Soliq bazasining kengayishi (torayishi) hisobiga o'zgarish: } \Delta SD_B = (B_1 - B_0) * S_0 * d_0 \quad (3.1.16)^{26}$$

Davlat byudjeti iqtisodiy munosabatlar tizimi bo'lib, rivojlangan tovar va pul munosabatlari shartida muhim iqtisodiy omil sifatida davlat oldiga qo'ygan vazifalarni bajarishda keng qo'llaniladi. Odatda, byudjet miqdori va tarkibiga qarab davlatning iqtisodiy salohiyati, uning moliyaviy resurslarining holati va soliq yukining darajasiga baho berish mumkin bo'ladi. Byudjet tarkibiga obyektiv va subyektiv omillar ta'sir qiladi. Obyektiv omillararga birinchi o'rinda ishlab chiqarish munosabatlarning xususiyati va byudjetning tuzilishiga katta ta'sir ko'rsatadigan

3.2. O'zbekiston davlat byudjetini statistik tahlili

byudjetining samaradorligini ham baholash mumkin. SHu bilan bir gatorada statistik ko'rsatkichlar tizimi yordamida, Davlat asoslangan dasturlar ishlab chiqarish lozimligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Davlat byudjetining ko'rsatkichlar tizimi ushbu soha

$$\Delta SD = \Delta SD_B + \Delta SD_d \quad (3.1.19)^{29}$$

o'zgarishni beradi, ya'ni:

Ylgoridagi uchta omilning o'zgarishi natijalarining yig'indisi umumiy

$$\Delta SD_d = (d_1 - d_0) * B_1 * C_1 \quad (3.1.18)^{28}$$

3. Soliq yig'irish darajasining o'zgarishi hisobiga o'zgarish:

$$\Delta SD_S = (S_1 - S_0) * B_1 * d_0 \quad (3.1.17)^{27}$$

2. Soliq stavkasi hisobiga o'zgarish:

ishlab chiqarish kuchlari rivojlanish darajasini ko'rsatish mumkin. Jamiyatning rivojlanishi, yalpi ichki mahsulot taqsimoti, ishlab chiqarish va mulk munosabatlari rivojlana borar ekan, unga mos ravishda byudjet tizimining tarkibi va belgilangan maqsadlarida o'zgarishlar yuz beradi. Tarixiy bosqichda har bir mamlakatning urf-odatlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini obyektiv faktorlar qatoriga kiritish mumkin. SHuningdek, har ganday mamlakat byudjeti o'ziga xos milliy xususiyatlariga ham ega. Davlatning tegishli davrda olib borayotgan siyosati, tashqi iqtisodiy aloqalari, ichki iqtisodiy vaziyat va boshqalar subyektiv omillar hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, rivojlanish darajasi bir-biriga yaqin bo'lgan mamlakatlarning byudjetlarida daromad va xarajatlarning tarkibi o'xshash va yoki umuman farqli bo'lishi mumkin. Lekin har qanday holatda ham davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning asosiy maqsadi – davlat o'z funksiyalarini bajarishi uchun zarur mablag'larni etarli darajada xazinaiga yig'ishdan iborat.

Davlat byudjeti siyosatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Davlat byudjeti tizimida hisoblanadigan ko'rsatkichlarning aniqligi va ishonchilligini ta'minlash. Ushbu vazifani hal qilish eng avvalo, ushbu tizim to'g'risida ma'lumotlar bazasining ochiqligi va aniqligiga bog'liq bo'ladi. Statistik tadqiqotlar uchun etarlicha ishonchli ma'lumotlar mavjud emas ekan, ushbu tadqiqot natijalari ham real sharoitni to'g'ri ifodalay olmaydi. Bu esa o'z navbatida ushbu tadqiqot natijasidan klib chiqib ishlab chiqiladigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish

siyosatining kutilgan natijalarni berrastligiga olib keladi.

2. Davlat byudjeti tizimidagi iqtisodiy faoliyatni baholashda tabaqalashgan statistik ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish. Bu kabi statistik ko'rsatkichlarning

artzalligi shundaki, mavjud muammoga qarab ko'rsatkichlar aniqlaniladi va ularni hal qilish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqiladi. Masalan, byudjet defitsiti yoki profitsitini oylilik. Agar ushbu ko'rsatkichlar alohida viloyat(tuman, shahar) bo'yicha hisoblanasa, aynan shu hudud bo'yicha iqtisodiy siyosat yo'naltirilishi

ishlab chiqish imkoniyati paydo bo'ladi. Byudjet defitsiti, agar, shu hududning o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib bartaraf etilisa, butun mamlakat doirasida bu muammo

paramestrning shartli qiymatlarini olib, ushbu tenglamani quyidagicha qayta yozamiz:

$$Y = 0,56 + 0,256 \cdot I + 1,25 \cdot S + 0,452 \cdot T + 0,345 \cdot X$$

Farez qilaylik, davlat byudjeti xarajatlarning o'zgarishiga quyidagi to'rt omil ta'sir etsin (YAIMga nisbatan foizda): davlat investitsiyalari uchun xarajalar (I), ijtimoiy ehtiyojlar (ta'lim, sog'liqni saqlash va hokazo) uchun xarajalar(S), ijtimoiy himoya uchun xarajalar (T), davlat boshqaruvi organlari uchun xarajalar (X). Aytaylik, regressiya tenglamasidagi ko'rinishda bo'lsin:

$$Y = a_0 + a_1 I + a_2 S + a_3 T + a_4 X$$

amaliyotga joriy qilinsa, Davlat byudjetining samaradorligini yanada oshirish imkoni paydo bo'ladi.

Respublikamizda Davlat byudjeti tizimi ko'rsatkichlarini tahlil qilishda esa o'zgarishlarni aniqlash mumkin.

3. Davlat byudjeti tizimini statistik tahlil qilishda indeks va regression tahlil qilinishi lozim bo'ladi.

asoslaridan samarali foydalanish. Yuqoridagi statistik metodlar ushbu tizimda omilli tahlilni amalga oshirish imkonini beradi. Indeks metodi yordamida ayni vaqtdagi davlat byudjet tizimiga ta'sir etuvchi omillar va ular natijasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlash mumkin.

ushbu metod kam qo'llaniladi. Indeks metodining asosiy kamchilligi u omillar ta'siri ostida istiqbolni prognozlash imkonini bermaydi. SHuning uchun regression tahlildan foydalaniladi. Ushbu metod natijada davlat byudjet tizimiga ta'sir etuvchi omillar

ta'sir kuchini aniqlashda, balki uning istiqbolidagi holatini prognozlashda ham keng qo'llaniladi. Agar yuqoridagi metodlar asosida statistik tahlilni amalga oshirish

Faraz qilaylik, davlat byudjeti xarajatlarning o'zgarishiga quyidagi to'rt omil

ta'sir etsin (YAIMga nisbatan foizda): davlat investitsiyalari uchun xarajalar (I), ijtimoiy ehtiyojlar (ta'lim, sog'liqni saqlash va hokazo) uchun xarajalar(S), ijtimoiy himoya uchun xarajalar (T), davlat boshqaruvi organlari uchun xarajalar (X). Aytaylik, regressiya tenglamasidagi ko'rinishda bo'lsin:

Endi, ushbu tenglama orqali byudjet xarajatlarga ta'sir etuvchi omillarini baholash mumkin. Unga ko'ra, davlat investitsiya xarajatlarning 1%ga qo'shimcha o'zgarishi, boshqa omillar o'zgarimay qolganida byudjet xarajatlarning 0,256%ga o'zgarishiga sabab bo'ladi. Boshqa xarajat turlari bo'yicha ham huddi shunga o'xshash xulosalar qilish mumkin. Omilli tahlildan kelib chiqib shuni aytish

YALIM dinamikasiga sezgirtopdir. VAT – sanoatda QOS stavkasining 1 foizli darajaga o'zgartirishbyudjet daromadlari dinamikasini 0,98 foizli darajaga o'zgartiradi.

Davlat byudjeti siyosati parametrlarini asoslashning hal qiluvchi asosiy masalasi rivojlanshningurtli bosqichlarda xarajatlarning optimal darajasini asoslashdir.³⁰ Dunyoda bu nuammo bo'yichako'plab tadqiqotlar mavjud.

O'zbekistonning byudjet parametrlari bu o'rta bahoalardan, eng avvalo, byudjet tanqisligining past darajasi (oxirgi 3-4 yilda 1%dan kam) va davlat daromadlari va xarajatlarning yuqori darajasibilan farq qiladi.³¹

3.3. Davlat byudjeti asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi va ularni statistik tahlil qilish

Davlat byudjeti tizimi ko'rsatkichlarining dinamikasini tahlil qilish ushbu sohada statistik tadqiqotlarning muhim bo'lagidir. Ushbu tizimdagi iqtisodiy faoliyat natijalarining vaqt bo'yicha o'zgarishini (dinamikasini) o'rganishda quyidagi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi:

-Davlat byudjeti daromadlari va tarkibi dinamikasi;

-Davlat byudjeti xarajatlari va tarkibi dinamikasi;

-Davlat byudjeti profiti yoki defitsiti dinamikasi.

Davlat byudjeti daromadlari va tarkibi dinamikasini o'rganishda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlari, uning shakllanishi va hududiy taqsimotiga alohida urg'u beriladi.

Quyidagi jadvalda biz davlat byudjeti daromadlarining 2006-2016 yillaridagi dinamikasini statistik metodlar yordamida tahlil qilamiz:

3.2.-jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining hajmi va tarkibi, mlrd.so'm

Yillar	Jami	Bevosita soliqlar	Bilvosita soliqlar	Resurs to'lovlari va mulk solig'i	Boshqa daromadlar
shu jumladan					

³⁰ Pan P. Оптимальный размер государственного бюджета // The Budget, Taxation and Economic Growth. – US Congress, Growth and Prosperity Series, 1999.
³¹ Авакин Л. Логика экономического роста. – М.: Институт экономики РАН, 2002 // Таблица 1998 года // The Budget, Taxation and Economic Growth. – US Congress, Growth and Prosperity Series, 1999.

мумкинki, davlat byudjeti xarajatlarga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omil – ijtimoiy xarajatlardir. Ushbu xarajatlarning qo'shimcha 1%ga o'rtishi, jami byudjet xarajatlarning 1,25%ga o'rtishiga sabab bo'ladi. Regression tahlil asoslariga ko'ra ushbu tenglamadagi ozod had (0,56) hisobga olinmagan hadlarning byudjet xarajatlarga ta'sirini ifodalaydi. 0,256; 1,25; 0,452 va 0,345 parametrlar byudjet xarajatlarning har bir omil bo'yicha elastikligi deb ataladi. Elastiklik koeffitsienti – omil belgining qo'shimcha o'zgarishini ushbu omil ta'sirida natijaviy belgining qo'shimcha o'zgarishiga nisbatni ifodalaydi. Masalan, byudjet xarajatlarning investitsiya xarajatlari bo'yicha elastikligi quyidagicha hisoblaniladi:

$$E_I = \frac{\Delta I}{\Delta DH}$$

bu erda: ΔI – investitsiya xarajatlarning o'zgarishi; ΔDH – investitsiya xarajatlari natijasida davlat xarajatlarning o'zgarishi.

Umuman olganda mazkur holat byudjet siyosatining ijtimoiy natijaliganligi haqida xulosani tasdiqlaydi, bu esa iqtisodiyot o'zining muhim omillaridan biri bo'lgan inson kapitalining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Davlat byudjeti daromadlarining o'zgarishini ham huddi shunday usulda statistik tahlil qilish mumkin. Bunda byudjet daromadlarining o'sish sur'atlari butun iqtisodiyotning o'sishiga bog'liq. Buni byudjetga tushmalar (GR) va yalpi ichki mahsulotni (GDP), o'rtacha ish haqi (W) hamda bilvosita egri soliqlar (VAT) orasidagi bog'lanishni ifodalovchi quyidagi tenglama parametrlari tasdiqlaydi. Tenglama ko'rinishi quyidagicha:

$$GR = 0,35 + 0,45 \cdot GDP + 0,43 \cdot W + 0,98 \cdot VAT$$

bo'lsin. Bu holda YALIM o'sishi sur'atining qo'shimcha 1 foizli darajaga o'sishi byudjet daromadlari dinamikasini 0,45 foizli darajaga oshiradi. Deyarli shunday elastiklik "daromad solig'i ~ o'rtacha ish haqi" o'zaro aloqasi uchun ham xarakterlidir. Ish haqining o'sishi bu ko'rsatkich bo'yicha byudjetga tushmalar o'sishi sur'atlarining 0,43 foizli darajaga o'sishiga olib keladi. Bilvosita (egri) soliqlar

Yil	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	Jami	O'rtach
2008	614,0	876,8	10840,2	13596,7	17061,3	21295,7	26223,2	31729,6	36492,7	49681,0	62229,5	284055,7	25823,2
2009	1574,4	2315,8	4123,3	5438,3	8225,0	10434,5	13398,6	16851,8	19193,8	26133,2	33404,3	146976,8	13361,5
2010	993,4	1325,9	1761,6	2095,5	2626,2	3312,5	3888,2	4311,6	4816,1	6867,4	9714,5	41712,9	3792,1
2011	2915,5	4233,3	5438,3	6858,5	8225,0	10434,5	13398,6	16851,8	19193,8	26133,2	33404,3	146976,8	13361,5
2012	1574,4	2315,8	4123,3	5438,3	8225,0	10434,5	13398,6	16851,8	19193,8	26133,2	33404,3	146976,8	13361,5
2013	21295,7	26223,2	31729,6	36492,7	49681,0	62229,5	8225,0	10434,5	13398,6	16851,8	19193,8	26133,2	33404,3
2014	21295,7	26223,2	31729,6	36492,7	49681,0	62229,5	8225,0	10434,5	13398,6	16851,8	19193,8	26133,2	33404,3
2015	21295,7	26223,2	31729,6	36492,7	49681,0	62229,5	8225,0	10434,5	13398,6	16851,8	19193,8	26133,2	33404,3
2016	21295,7	26223,2	31729,6	36492,7	49681,0	62229,5	8225,0	10434,5	13398,6	16851,8	19193,8	26133,2	33404,3
2017	21295,7	26223,2	31729,6	36492,7	49681,0	62229,5	8225,0	10434,5	13398,6	16851,8	19193,8	26133,2	33404,3
2018	21295,7	26223,2	31729,6	36492,7	49681,0	62229,5	8225,0	10434,5	13398,6	16851,8	19193,8	26133,2	33404,3
Jami	284055,7	41712,9	67118,7	146976,8	28247,2	2567,9							

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlarasosida hisoblangan

3.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, davlat byudjeti daromadlari tarkibida asosiy o'rinni bevosita va bilvosita soliqlar egallaydi. 2008-2018 yillar davomida davlat byudjeteiga tushgan daromadlar tarkibini tahlil qilish orqali ham huddi shunday xulosaga kelish mumkin. 11 yil davomida davlat byudjeteiga jam'at 284,1 trn.so'm tushum bo'lgan bo'lsa, shuning 67,1 trn.so'm yoki 23,6 foizi bevosita soliqlar, 146,9 trn.so'm yoki 51,7 foizi bilvosita soliqlar, 41,7 trn.so'm yoki 14,6 foizi resurs to'lovlari va mulk solig'i hamda 28,2 trn.so'm yoki 9,9 foizi boshqa daromadlar tashkil etadi.

Endi davlat byudjeti daromadlari va uning har bir tarkibiy qismi bo'yicha o'zgarish sur'atlarini hisoblaymiz. Buning natijasida davlat byudjeti daromadlari va uning tashkil etuvchilari 2008 yilga nisbatan keyingi yillarda qanday o'zgarishlarni boshqarish mumkin.

Yil-lar	Jami	shu jumladan
---------	------	--------------

3.3-jadval
O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining dinamikasi (2008 yilga nisbatan, foizda)

	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018
Boshqa daromadlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Resurs to'lovlari	100,0	142,6	176,4	221,3	277,6	346,6	426,7	516,3	593,9	808,5	1012,7
Bevosita soliqlar	-	147,1	180,4	225,3	285,6	343,9	403,6	472,1	558,8	732,9	813,4
Bilvosita soliqlar	-	141,4	186,5	235,2	282,1	357,9	459,6	578,0	658,3	896,4	1145,7
va mulk solig'i	-	133,5	177,3	210,9	264,4	333,5	434,0	484,8	556,8	691,3	977,9
Boshqa daromadlar	-	150,5	120,9	165,6	258,9	322,6	390,3	473,5	556,8	776,9	952,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida hisoblangan

Byudjet daromadlarining bazis yilga (2008- yil) nisbatan o'zgarish dinamikasi statistik tahlil qilish orqali byudjet daromadlari va uning tarkibiy elementlaridagi umumiy rivojlanish tendensiyasini aniqlash mumkin. Masalan, jami byudjet daromadlari 2018- yilda 2008- yilga nisbatan 1012,7%ga, bevosita soliqlar 813,4%ga, bilvosita soliqlar 1145,7%ga o'sganligini ko'rish mumkin. Buning ma'nosi, byudjet daromadlari 2018- yilda 2008- yilga nisbatan 10,1 marta, bevosita soliqlar 8,1 marta va bilvosita soliqlar 11,4 marta ortgan.

Davlat byudjeti xarajatlari va tarkibi dinamikasini statistik tahlil qilishda byudjet xarajatlarining asosiy yo'nalishlari o'riganladi. Milliy iqtisodiyotning rivojlanib borishi bilan byudjet xarajatlarining tarkibida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Mustaqillikning dastlabki yillarda byudjet xarajatlari asosan aholini ijtimoiy himoya qilish va ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lsa, keyingi yillarda iqtisodiyotni texnik va texnologik yangilash, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, milliy xavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Umuman olganda, byudjet xarajatlari—davlat va mahalliy hokimiyat

organlari tomondan aholi ijtimoiy himoya qilish, milliy xavfsizlikni ta'minlash hamda ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltiriladigan pul mablag'laridir.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining xarajalar tarkibi quyidagi yo'natishlardan iborat:

1. Ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajalari, jumladan:

- maorif;

- sog'liqni saqlash va jismoniy tarbiya;

- madaniyat, fan va ommaviy axborot vositalari;

- ijtimoiy ta'minot.

2. Aholini ijtimoiy himoya qilish xarajalari, jumladan:

- aholi uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlarni baholari

o'rtasidagi farqni byudjetdan qoplash;

- bolalik oilalarga nafaqalar;

- kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar.

3. Iqtisodiyot xarajalari;

4. Markazlashgan davlat kapital qo'yilmalarini moliyalashtirish xarajalari;

5. Davlat hokimiyati, davlat boshqaruv organlarivasud

organlarini saqlash xarajalari.

6. Boshqa xarajalar.

Davlat xarajalarining yalpi milliy daromadga ulushi rivojlangan davlatlarda

quyidagi ko'rinishga ega³²: AQSHda 36%, Yaponiyada 33%, Germaniyada 46%,

Angliyada 43%, Fransiya va Italiyada 50%, Kanadada 44%, SHveysiyada 60%. Bu

ko'rsatkich O'zbekistonda 27-29 foizni tashkil etmoqda. Masalan, AQSH federal

byudjetining tarkibi quyidagi ko'rinishga ega:

- harbiy xarajalar – 28%;

- ijtimoiy xarajalar – 47,3%;

- xo'jalik xarajalari – 6,7 %;

- davlat qarzini to'lash uchun protsentlar – 13,7%;

Davlat byudjeti xarajalarining 2008-2018 yillardagi tarkibiy tuzilishini ko'zdan

kechiradigan bo'lsak, bu davlat byudjeti xarajalari tuzilmasida muhim o'zgarishlar

yuz berganligini ko'rishimiz mumkin. Asosiy o'zgarishlar ijtimoiy xarajalar

bo'yicha sodir bo'lgan. Mustaqillikning dastlabki yillarda aholining kam

ta'minlangan qalamini ijtimoiy himoya qilishga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa,

keyingi davrda ijtimoiy obyektlarni qurish va ta'minlashga byudjet xarajalarining

asosiy qismi yo'naltirilmoqda. Davlat byudjeti xarajalari tarkibini quyidagi jadvalda

ko'rib chiqamiz (3.4-jadval).

3.4-jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajalarining ijrosi, mlrd. so'm

Yillar	Jami	Ijtimoiy soha xarajalari	Iqtisodiyot va investitsiyalarni markazlashtirilgan moliyalashtirish	Davlat hokimiyati organlari xarajalari	Boshqa xarajalar	shu jumladan	
2008	5 823,8	2 906,0	1 132,1	1 75,8	1 609,9		
2009	8 197,1	4 248,7	1 558,2	266,4	2 123,8		
2010	10 763,9	5 895,9	2 101,1	353,2	2 413,7		
2011	13 386,9	7 835,9	2 373,5	490,1	2 687,3		
2012	16 726,0	9 704,9	3 027,7	629,6	3 363,7		
2013	20 882,0	12 299,9	3 448,7	852,8	4 280,6		
2014	25 833,7	15 167,8	4 196,2	1 150,7	5 312,1		
2015	31 425,0	18 490,8	4 981,4	1 414,2	6 530,5		
2016	36 289,8	21 304,6	5 690,6	1 594,3	7 690,3		
2017	49 343,7	27 009,3	8 526,7	1 931,1	11 661,9		
2018	62 170,0	35 034,0	10 020,4	2 189,8	14 924,4		
Jami	280 841,9	159 897,8	47 056,6	11 048,0	62 598,2		
O'rtacha	25 531,0	14 536,1	4 277,8	1 004,3	5 690,7		

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida hisoblangan

3.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, davlat byudjeti xarajalarining asosiy

qismini ijtimoiy soha xarajalari tashkil qiladi. Ushbu sohaga yo'naltirilgan xarajalar

2018- yilda 35034,0 mlrd. so'mni tashkil etgan va 2008- yilga nisbatan 12,0 marta

ortib bormoqda. Buning asosida, bozor iqtisodiyotiga o'tishning „O'zbek model“

yo'tadi va uning eng asosiy prinsiplaridan biri ham kuchli ijtimoiy siyosat yurgizishdir.

Endi byudjet xarajatlari tarkibini chuqurroq tahlil qilish uchun uning tarkibini

o'rganamiz va uni quyidagi natijaviy jadvalda aks ettiramiz.

3.5-jadval O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarning tarkibi (jami nisbatan foizda)

Yillar	Jami	Ijtimoiy soha xarajatlari	Iqtisodiyot va markazlashitirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish	Davlat hokimiyati organlari xarajatlari	Boshqa xarajatlar	shu jumladan	
						100.0	100.0
2008	100.0	49,9	19,4	3,0	27,6		
2009	100.0	51,8	19,0	3,2	25,9		
2010	100.0	54,8	19,5	3,3	22,4		
2011	100.0	58,5	17,7	3,7	20,1		
2012	100.0	58,0	18,1	3,8	20,1		
2013	100.0	58,9	16,5	4,1	20,5		
2014	100.0	58,7	16,2	4,5	20,6		
2015	100.0	58,8	15,9	4,5	20,8		
2016	100.0	58,7	15,7	4,4	21,2		
2017	100.0	54,7	17,3	3,9	23,6		
2018	100.0	56,4	16,1	3,5	24,0		
O'racha	100.0	56,9	16,8	3,9	22,3		

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida hisoblangan

Demak, davlat byudjeti xarajatlarning deyarli yarmi ijtimoiy sohaga sarflanadi. Ushbu soha xarajatlari tarkibida esa maorif xarajatlari yuqori ulushga ega. Iqtisodiyot xarajatlari va markazlashgan investitsiyalar uchun xarajatlarning oldingi yillarga nisbatan kamayganini sezish mumkin. Bunga asosiy sabab, horijiy investitsiyalar uchun davlat katolatining kamayganligidir.

3.6-jadval

O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti defitsiti (profitsiti) dinamikasi

Yillar	YAIM, mrd.so'm	Byudjet xarajatlari, mrd.so'm	Byudjet daromadlari, mrd.so'm	Byudjet defitsiti (profitsiti), mrd.so'm	Byudjet defitsiti (profitsiti) ning YAIMdagi ulushi, %
2006	15923,4	3 464,1	3 310,9	-153,2	-0,96
2007	21124,9	4 313,5	4 042,5	-271,0	-1,28
2008	28190,0	5 823,8	6 145,0	321,2	1,14
2009	38969,8	8 197,1	8 760,8	563,7	1,45
2010	49375,6	10 763,9	10 840,2	76,3	0,15
2011	62388,3	13 386,9	13 596,7	209,8	0,34
2012	77750,6	16 726,0	17 061,3	335,3	0,43
2013	96589,8	20 882,0	21 295,7	413,7	0,43
2014	119789,6	25 833,7	26 223,2	389,5	0,33
2015	144867,9	31 425,0	31 729,6	304,6	0,21
2016	171369,0	36 289,8	36 492,7	202,9	0,12
2017	387739,2	49343,7	49681,0	337,3	0,08
2018	407514,5	62170,0	62229,5	59,5	0,01

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan

3.6-jadval ma'lumotlari asosida xulosa qilish mumkiniki, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti 2008- yildan beri profitsit bilan bajarilmoqda. Davlat byudjeti tizimi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy sharti hisoblangani uchun byudjet defitsitini ma'lum darajada (odarda 2-3%) saqlab turish maqsadga muvofiqdir.

Davlat byujeti daromadlari dinamikasini statistik tahlil qilishda uning yillar davomida o'zgarishi, tarkibiy tuzilishi hamda uning mamlakatda yaratilgan YAIMdagi ulushi o'rganiladi. Xarajatlarni tahlil qilishda esa uning mutlaq va nisbiy o'zgarishlari, uning asosiy yo'nalishlari tadqiq qilinadi.

Mamlakat makroiqtisodiy barqarorligining muhim ko'rsatkichlaridan biri – byudjet kamomadining YAIMdagi ulushidir. Ushbu ko'rsatkich darajasi boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning shakllanishi uchun asos vazifasini bajaradi. Byudjet defitsitining ortib ketishi mamlakatda ishsizlik darajasining ortishi, aholi

farovonligining pasayishiga olib keladi. Undan tashqari soliq yuki ham iqtisodiy tahlillarida muhim ahamiyatga ega. Soliq yukining pasayishi ishlab chiqaruvchilarning investitsion faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarishning kengayishi, iqtisodiyotda innovatsion faoliyatning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

3.4. Davlat byudjetining asosiy ko'rsatkichlarini statistik prognozlash

Davlat byudjeti siyosatini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlarining kelgusi davrdagi holatini oldindan prognoz qilish mahsus statistik metodlar asosida amalga oshiriladi. Bunday prognozlashda asosan korrelyatsion-regression tahlil elementlaridan keng foydalaniladi. Bu usul yordamida byudjet daromadlari va xarajatlari hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar orasidagi bog'lanish o'rnatiladi, ushbu jarayonni ifodalovchi matematik model tuziladi va uning yordamida davlat byudjetisohasining kelajakdagi holati prognoz qilinadi. Matematik modelni tashlashda omil va natijaviy belgi orasidagi nazariy bog'lanish hisobga olinadi. Agar omil belgining arifmetik progressiya bo'yicha o'zgarishi, natijaviy belgining ham arifmetik progressiya bo'yicha o'zgarishiga sabab bo'lsa, bunday bog'lanish chiziqli bog'lanish hisoblanadi, aks holda esa chiziqli bo'lmagan bog'lanish modellaridan foydalaniladi.

Davlat byudjetiko'rsatkichlarining o'zgarishiga bir vaqtning o'zida bir necha omillar ta'sir qilgani uchun uni tahlil qilishda juft regressiya tenglamasidan foydalanish jarayoni to'liq yoritish imkonini bermaydi. SHuning uchun byudjet tizimini prognozlashda ko'p omilli regressiya tenglamasidan foydalanish tavsiya qilinadi. Ushbu tenglama natijaviy belgining bir necha omillarta'sirida ganday o'zgarishini ko'rsatadi. Odatda, matematik statistikada natijaviy belgi "Y", omil belgi esa $X_i (i=1, 2, 3, \dots, n)$, bilan belgilanadi. Y va X orasidagi bog'lanish esa $Y=f(x_i)$ funksiya orqali ifodalanaadi.

Omil belgining natijaviy belgiga va har bir omilning boshqa omilga ta'sirini korrelyatsiya ko'rsatkichlari orqali hisoblaymiz. Unda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$r_{xy} = \frac{\sqrt{\sum (x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y})}}{\sqrt{\sum x_i^2 - \sum x_i \bar{x}} \sqrt{\sum y_i^2 - \sum y_i \bar{y}}} = \frac{\sqrt{[n \sum x_i^2 - (\sum x_i)^2] [n \sum y_i^2 - (\sum y_i)^2]}}{\sum x_i^2 - \sum x_i \bar{x} \sum y_i^2 - \sum y_i \bar{y}}$$

(3.2.1)³³

Ushbu formuladagi x_i va y_i omil va natijaviy belgining mos qiymatlari.

$$\bar{x} = \frac{\sum x_i}{n}$$

va $\bar{y} = \frac{\sum y_i}{n}$ ga teng. Omillar orasidagi bog'lanish kuchi va yo'nalishini aniqlashda yo'rtmiga mos x lar qiymati qo'yiladi. Korrelyatsiya ko'rsatkichlari $-1 \leq r_{xy} \leq 1$ oralqida o'zgaradi. Agar $-1 \leq r_{xy} < 1$ bo'lsa, omil va natijaviy belgilar orasida teskari, $0 < r_{xy} \leq 1$ bo'lsa, to'g'ri bog'lanish mavjud bo'ladi. Agar $r_{xy} = 0$ bo'lsa, bog'lanish mavjud emas.

Davlat byudjetitizimini prognozlashda quyidagi omil belgilaridan foydalanamiz:

1. YAIMning oldingi davrga nisbatan o'zgarish sur'atlari (x_1);
2. Bivosit soliqqlarining o'zgarish sur'atlari (x_2).

Keltirilgan omillar bo'yicha ma'lumotlarni quyidagi jadvalda keltiramiz (3.2.1-jadval). Ushbu jadvalda natijaviy belgi (jami byudjet daromadlarining oldingi davrga nisbatan o'zgarish sur'ati) hamda ikki omil belgi (bivosita soliqqlarining o'zgarish sur'atlari va YAIMning o'zgarish sur'atlari) orasidagi miqdoriy bog'liqlik aks etiriladi. Omil va natijaviy belgi, shuningdek, ikki omil belgining o'zaro ta'sir kuchini korrelyatsiya ko'rsatkichlari orqali hisoblaymiz.

3.7-jadval

Natijaviy va omil belgi orasidagi miqdoriy bog'lanish

Yillar	Byudjet daromadlarining o'zgarish sur'ati, %	Bivosita soliqqlarining o'zgarish sur'ati, %	YAIM o'sish sur'ati, %
2009	1,221	1,208	1,075
2010	1,520	1,505	1,095
2011	1,426	1,471	1,09
2012	1,237	1,227	1,081
2013	1,254	1,249	1,085
2014	1,255	1,268	1,083
2015	1,248	1,204	1,082
2016	1,231	1,174	1,080
2017	1,361	1,312	1,053

³³Есеева И. И. Экономика: учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2001. с. 5-65.

2018	1,253	1,110	1,051
O'rtacha	1,295	1,283	1,084
O'rtkv.favolt	0,011	0,014	0,0003

3.7-jadval ma'lumotlari asosida korrelyatsiya koeffitsientlarini hisoblaymiz va natijalarni jadval ko'rinishida ifodalaymiz.

3.8-jadval

Omil va natijaviy belgi orasidagi korrelyatsion bog'lanish kuchi

x_2	y	x_1	x_2
1,00	1,00	0,92	0,97
x_1	0,92	1,00	0,91
x_2	0,97	0,91	1,00

Korrelyatsiya koeffitsienti ikki belgi orasidagi bog'lanish kuchini ko'rsatadi.

Omil va natijaviy belgi orasidagi korrelyatsion bog'lanish kuchi

muamlik: $0,1 \leq r_{xy} \leq 0,3$ – bog'lanish bo'sh; $0,3 \leq r_{xy} \leq 0,5$ – bog'lanish o'rta; $0,5 \leq r_{xy} \leq 0,7$ – sezilarli; $0,7 \leq r_{xy} \leq 0,9$ – yaxshi va $r_{xy} \geq 0,9$ – juda yaxshi. 3.8-jadval

ma'lumotlarini ushbu ko'rsatkichlar bilan taqqoslab, biz tanlagan har ikki omilning

natijaviy belgiga va o'zaro ta'sir yuqori ekanligini ko'rish mumkin.

Endi yuqoridagi ma'lumotlar asosida jami byudjet daromadlar uchun regressiya

tenglamasini tuzamiz.

Uning umumiy ko'rinishi $y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2$ shaklida bo'ladi.

Tenglamaning noma'lum hadlarini topish uchun standartlashgan regressiya

tenglamasidan foydalanamiz. Uning umumiy ko'rinishi:

$t_{y_i} = \beta_1 t_{x_1} + \beta_2 t_{x_2} + \beta_3 t_{x_3} + \beta_4 t_{x_4} + \beta_5 t_{x_5} + \beta_6 t_{x_6}$ erda, β -regressiyaning

standartlashgan koeffitsienti. Tenglamadagi noma'lum hadlarni topish uchun quyidagi

tenglamalar sistemasi dan foydalaniladi:

$$\begin{cases} \beta_1 + 0,91\beta_2 = 0,92 \\ 0,91\beta_1 + \beta_2 = 0,97 \end{cases}$$

- xususiy korrelyatsiya koeffitsientlari (3.2.4)³⁶

³⁴ Eschenavai I. I. Ekonomika. Uchebnoye posobie. - M.: Finansy i statistika, 2001. s.5-65.

Yuqoridagi tenglamalar sistemasi echsak quyidagi ma'lumotlar olinadi: $\beta_1 = 0,2170, \beta_2 = 0,7725$. U holda regressiya tenglamasining standart ko'rinishi quyidagicha: $t_y = 0,2170\beta_1 + 0,7725\beta_2$ bo'ladi.

3.2-formuladagi a koeffitsientlar va standartlashgan regressiya koeffitsienti β

orasida quyidagi bog'liqlik mavjud:

$$a_i = \beta_i \frac{\sigma_x}{\sigma_y} \quad (3.2.5)^{37}$$

tafovutlar. 3.2.1-jadval ma'lumotlariga asosan, $a_1 = 0,2170 \cdot \frac{0,011}{0,0003} = 7,96$. Xuddi

shunga o'xshash, $a_2 = 0,61$ ga teng bo'ladi. $y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2$ ga ko'ra, $a_0 = y -$

$a_1x_1 - a_2x_2$. Bundan, $a_0 = 1,295 - 7,96 * 1,084 - 0,61 * 1,283 = -8,11$. Demak,

regressiya tenglamasining umumiy ko'rinishi $y = -8,11 + 7,96x_1 +$

$0,61x_2$ (3.2.6) dan iborat bo'ladi. Endi ushbu tenglamaning ishonchlilik darajasini

baholaymiz. Buning uchun Fisher va Student metodlaridan foydalanamiz. Fisher

metodi bo'yicha tekshirishda, avval ushbu ko'p omilli regressiya tenglamasi uchun

umumiy korrelyatsiya koeffitsientini hisoblaymiz:

$$R_{xy} = \sqrt{\sum r_{xy_i}^2 \cdot \beta_i^2} \quad (3.2.7)^{38}$$

Demak, $R_{yx} = \sqrt{0,91 \cdot 0,2170 + 0,97 \cdot 0,7725} = 0,973$ ga teng. Endi Fisher

$$F_{x_{max}} = \frac{R_{yx}^2}{m} : \frac{1 - R_{yx}^2}{n - m - 1}$$

indeksining haqiqiy qiymatini (3.2.8)³⁹ formula bo'yicha

hisoblaymiz. Bu erda, m -omillar soni, n -kuzatishda qatnashayotgan elementlar soni.

Bizning misolimizda $m=2$ va $n=8$.

$F_{haqiqiy} = \frac{1 - 0,973^2}{2} \cdot \frac{8 - 2 - 1}{0,973^2} = 7,1$. Endi ushbu qiymatni jadval ko'rsatkichlari

bilan solishtiramiz. Fisher taqsimot jadvaliga ko'ra, 8 (5=8-2-1) erkinlikdarajasida

0,05 ehtimollik bilan $F_{x_{max}} = 3,84$ ga teng va $F_{x_{max}} > F_{x_{max}} = 3,84$.

aytish mumkin, yuqoridagi regressiya tenglamasi qiyosiy jihatdan ma'noga ega.

³⁷ Usha manba
³⁸ Eschenavai I. I. Ekonomika. Uchebnoye posobie. - M.: Finansy i statistika, 2001. s.5-65.
³⁹ Usha manba

4.1. Banklar faoliyatini statistik o'rganishning maqsadi va vazifalari

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq aktiv operatsiyalarini davlating qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar hajmini oshirish yo'li bilan rivojlantirish, fikrimizcha, maqsadga muvofiq emas. Chunki O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2005-yildan boshlab, davlat byudjetida profititga erishib kelinmog'da. Davlating qimmatli qog'ozlari esa, davlat byudjet defitsitini qoplashning noimliyasion manbai hisoblanadi va ularning emissiya hajmi davlat byudjet defitsitining miqdori va darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham, respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida ixtirokimi kengaytirishning boshqa usullaridan foydalanishni rag'batlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bundan tashqari, tijorat banklarida daromadligi sezilarli darajada yuqori bo'lgan qimmatli qog'ozlar shaklidagi aktivlarning bank aktivlari tarkibidagi salmog'i nihoyatda pastdir.

Tijorat banklari passivlarini boshqarish deganda, bankning likvidligi va daromadligining oqilona darajasiga erishishni ta'minlagan holda resurslarni jalb qilish tushuniladi.

Bank passivlarini boshqarishning muhim jihati - depozitlarga nisbatan qo'llaniladigan foiz stavkalarining turlaridan oqilona foydalanish hisoblanadi. Ma'lumki, bank mijozlarining depozitlariga suzib yuruvchi va qat'iy belgilangan

Bank passivlarini boshqartishning muhim jihatlardan biri, qiymatli qog'ozlarni sotish yo'li bilan bankning resurslar bazasini mustahkamlash hisoblanadi.

Tijorat banklarda qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj sezilganda qiymatli qog'ozlar muomalaga chiqariladi. Bunda asosiy muammo qiymatli qog'ozlarni mo'tadil bozor bahosida sotish hisoblanadi.

Respublikamiz tijorat banklari tomondan muomalaga chiqarilgan qiymatli qog'ozlarning bank jami passivlari umumiy hajmida kichik salmoqqa ega ekanligi, ularni sotish asosida olingan mablag'lar tijorat banklarining passivlarini boshqartishda amaliy ahamiyat kasb etmayotganligini bildiradi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qiymatli qog'ozlarni emissiya qilish bilan bog'liq operatsiyalarining rivojlanmagani qaydagi omlar bilan izohlanadi, ya'ni tijorat banklarining qiymatli qog'ozlari investorlar uchun investitsion jozibadorligining yo'qligi, respublikamiz qator tijorat banklarida qiymatli qog'ozlarni muomalaga chiqartish amaliyotining shakllanmagani bilan izohlanadi.

Quyida biz, tijorat banklari aktivlari va passivlariga ta'sir qiluvchi omlar va ular orasidagi bog'lanishni regressiya va korrelyatsiya tahlillari orqali qarab chiqamiz.

4.2-jadval

Tijorat banklari kredit qo'yilmalari va unga ta'sir etuvchi omlar to'g'risida ma'lumot

Yillar	Kredit qo'yilmalari hajmi, mln. so'm	So'mda berilgan qisqa muddatli kreditlarning o'rtacha tortilgan yillik foiz stavkasi, % XI	So'mda berilgan uzog muddatli kreditlarning o'rtacha tortilgan yillik foiz stavkasi, %	Majburiy zaxira stavkasi, X3 (%)	Qayta moliyalaş stavrakasining o'rtacha yillik darajası, (%)
2010	918,3	25,7	22,8	25	32,3
2011	1866,6	28,0	20,3	25	26,8
2012	2630,3	32,9	26,0	20	34,5
2013	3161,2	28,1	24,5	20	27,1
2014	3595,5	21,2	17,6	18	18,8
2015	3876,0	18,8	14,9	15	16,0
2016	4095,4	19,4	16,4	15	14,0
2017	4757,4	18,5	15,5	13	14,0
2018	6371,9	16,4	16,8	15	14,0
2019	8556,8	15,9	15,9	15	14,0

stavkalarda foiz to'laydi. Foiz stavkalarining bozor darajasini o'zgartishi bankning foizli daromadlari hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tijorat banki suzib yuruvchi foiz stavkalarida jalb qilingan resurslarni imkoniyat qadar suzib yuruvchi foiz stavkalaridagi aktivlarga joylashtirishi kerak. Faqat ana shu yo'l bilan bankning spread va marjasi darajasini foiz stavkalari tebranshining salbiy ta'sirdan saqlab qolishi mumkin. Aks holda, bank foiz stavkalarining keskin tebranshilaridan zarar ko'rishni ehtimoli bor.

Keyingi yillarda muddatli depozitlarning jami depozitlar hajmidagi salmog'i pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Ushbu tendensiyaning yuzaga kelishi mazkur davr mobaynida talab qilib olinguncha depozitlarning jami depozitlar hajmidagi salmog'ining o'sish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi. SHu bilan birga tahlil qilina yotgan davrda respublikamiz tijorat banklari depozitlarning umumiy hajmida jamg'arma depozitlarning salmog'i kichikligicha qolmoqda. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari resurslarning asosiy qismini muddatli va jamg'arma depozitlari tashkil etadi. Rivojlangan davlatlarning bank amaliyotida aholining jamg'arma depozitlari barqaror resurs manbai sifatida muhim o'rin tutadi. CHunki, ularga to'lanadigan foiz stavkalari yuridik shaxslarning muddatli depozitlariga to'lanadigan foiz stavkalariga nisbatan past foizni tashkil etadi.

Tahlil qilina yotgan davrda respublikamiz tijorat banklari depozitlarning tarkibi beqaror bo'lgan, ya'ni depozitlar umumiy hajmida talab qilib olinguncha depozitlarning ulushi yuqorigigicha qolmoqda. SHuningdek, talab qilib olinguncha depozitlarning depozit bazasi umumiy hajmidagi salmog'i o'zgaruvchan xarakterga ega. 2009- yildan boshlab, talab qilib olinguncha depozitlar salmog'ining o'sishi kuzatilgan. Ushbu ko'rsatkich xalqaro bank amaliyotidagi me'yoriy andozalarga (me'yoriy ko'rsatkich 30%) nisbatan qiyosiy taqqoslanganda me'yordan ancha yuqori hisoblanadi va bank depozit bazasining zaitligi hamda tashqi ta'sirga uzviy bog'liqligidan, 2018- yilda ushbu ko'rsatkich 61,0 foizni tashkil etishi, respublikamiz tijorat banklari depozitlarning etarli emashligidan, natijada, respublikamiz tijorat banklari depozit bazasining holati yomonlashayotganligidan dalolat beradi.

$$\text{Jadvaldan } Y = 7390,62 - 324,2x_1 + 527,9x_2 - 142,8x_3 - 170,13x_4 \text{ regressiya}$$

tenglamasini hosil qilamiz. Bu ta'sir etuvchi omillar orasida eng katta musbat ta'sir etuvchi x_2 - uzoq muddatli kreditlarning o'racha tortilgan foizi bo'lib, u 0,53% ga teng, qolganlari barchasi manfiy ta'sir etayapti. Manfiy ta'sir etuvchilardan x_1 - qisqa muddatli kreditlarning o'racha tortilgan foizi 0,32% ga teng, x_3 - majburiy zaxira stavkasi 0,14%, x_4 - qayta moliyalash stavkasining o'racha yillik darajasi 0,17% ga teng.

Ko'p omilli regressiya tahlilidan ham ko'rinish turibdiki, manfiy ta'sir etuvchilar orasida eng kattasi majburiy zaxira stavkasi ekan. Korrelyatsiya koefitsient $R = 0,86$ ga teng. Bu degan so'z kapital quyilmalari hajmi va yuqorida ko'rsatilgan 4 ta omil orasidagi bog'lanish darajasi yuqoriligini bildiradi. Determinatsiya koefitsienti $D = R^2 = 0,74$. Bundan kelib chiqadiki, kapital quyilmalari hajmi o'zgarishining 74 foizga teng bo'lishi 4 ta omilga bog'liq. Qolgan foizlar esa, bu erda ko'zda tutilmagan omillariga bog'liq.

Hosil qilingan korrelyatsiya modelining haqoniyligi tekshirib ko'riladi. Buning

$$t_r = \frac{m_r}{x}$$

uchun t - statistikasi amalga oshiriladi. Bu erda formuladan natijalarga asosan,

$$m_r = \sqrt{\frac{1 - 0,7406}{10 - 2}} = \sqrt{\frac{0,1374}{8}} = 0,1311$$

hosil qilinadi. 10 - kuzatishlar soni.

$$t_r = \frac{0,8606}{0,1311} = 6,56$$

Bundan kelib chiqadi. Erkinlik darajasi ($V=10-2=8$) bo'lganligini ushbu natija Student jadvalidagi natijalar bilan

solishtiriganda (1,86; 2,3; 3,36) har uchchala holatda ham, $t_r = 6,56$

ko'rsatkich ulardan katta. Demak, korrelyatsiya munosabati uchchala ehtimollik uchun ham haqoniy hisoblanadi.

Tanlangan mavzu doirasida bitiruv malakaviy ishida ushbu paragraf bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy xulosalar olingdi:

1. Tijorat banklarining aktivlarini boshqarish bankning ikkvilidligiga ziyon

ekkazmagan holda, aktivlar daromadlihgining mo'tadil va barqaror darajasiga erishish tamoyiliga asoslanadi. Ushbu tamoyilga rioya etnashik natijasida respublikamizning gator yirik tijorat banklarida kassali aktivlarning yuqori darajada to'planib qoishi yuz berdi. Bu esa, o'z navbatida, bank aktivlarining daromadlihgiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2. Rivojlangan xorijiy davlatlarda tijorat banklari aktiv operatsiyalarining umumiy hajmida salmog'iga ko'ra, birinchi o'rinni kreditlar, ikkinchi o'rinni qimmatli qog'ozlarga qilingan bank investitsiyalar, uchinchi o'rinni asosiy vositalar va so'nggi, to'rtinchi o'rinni kassali aktivlar egallaydi. Mazkur mamalakatlarda bank aktivlarining yuqori daromadlihgiga sharoitida banklarning ikkvilidligi yuqori ikkvilidlihgini qog'ozlarga qilingan investitsiyalar hisobidan ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasida esa, tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida yuqori ikkvilidlihgini qog'ozlarga jalb qilingan investitsiyalarining salmog'i 1,0-2,0 foizni tashkil etadi, bu esa, ularning hisobidan banklarning ikkvilidligini ta'minlash imkonini bermaydi.

3. Tijorat banklarining aktivlari va passivlarini boshqarishda kutiladigan daromad, tijorat ssudalari nazariyasidan hamda passivlarning barqarorligi nazariyasidan xalqaro bank amaliyotida keng ko'lamda foydalaniladi. Bu esa, tijorat banklari faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida esa, ushbu nazariyalarning talablaridan nazariy va uslubiy asos sifatida foydalanilmayapti. Bu esa, banklarning aktiv va passiv operatsiyalarining samaradorligiga salbiy ta'sir qilmogda.

4. Mamlakatimiz tijorat banklari aktiv operatsiyalarining amaldagi holatini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, birinchiidan, kassali aktivlarning bank jamii aktivlarining tarkibidagi salmog'i yuqoriligicha qolmogda; ikkinchiidan, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarining jamii aktivlar hajmidagi salmog'i juda ozligicha qolmogda, bu esa, tijorat banklari aktiv operatsiyalarining samaradorlik darajasi pastligini belgilovchi omil hisoblanadi.

5. Tijorat banklari kredit operatsiyalarining daromadlilik darajasi talab darajasida emas. Xalqaro bank amaliyotida kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning tijorat banklarining jami foizli daromadlari hajmidagi salmog'i kamida 60 foizni tashkil etishi lozim. Respublikamizda esa, ushbu ko'rsatkich hozirda aksariyat banklarda 50 foizga yaqin bo'lgan miqdorni tashkil etadi.

6. Tahil natijalari shuni ko'rsatdiki, respublikamiz tijorat banklarida talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlarning bank depozit bazasining umumiy hajmidagi salmog'i yuqoriligicha qolmoqda. Bu esa, mamlakatimiz tijorat banklarining depozit bazasi zatliligidan dalolat beradi. Ushbu ko'rsatkichning normativ darajasi rivojlangan xorijiy davlatlarda 30 foizdan, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarda 40 foizdan oshmasligi lozim.

7. Respublikamiz tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalarining samaradorligini ta'minlash borasidagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

- respublikamiz tijorat banklari aktivlarining darajasiga salbiy ta'sir qilib majburiy zakira talabnomalarining yuqori ekanligi;
- respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalari rivojlanmaganligi;
- respublikamiz bank amaliyotida gator aktiv - diskont, forreyting operatsiyalari mavjud emasligi;
- talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlarning jami depozitlar hajmidagi salmog'ining nisbatan yuqori darajada ekanligi.

4.6. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining rivojlanish istiqbollari

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishi bevosita bank tizimi bilan bog'liq. Zero, bank tizimi bugungi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyalashtirishning ishonchli moliyaviy institutlardan biridir. VA'ni, banklar mamlakat iqtisodiyotida jamg'armalarni shakllantirishi, vositachilik operatsiyalarini amalga oshirishi, kreditlar berishi hamda garz oluvchilar tomonidan moliya intizomiga rioya etilishini nazorat qilish borasida muhim ahamiyat kasb etuvchi subyektdir.

Tijorat banklari bozor infratuzilmasidagi o'z mavqeni mustahkamlash uchun funksiyalarini to'laqonli tarzda bajarishlari talab etiladi. Bu esa, o'z navbatida, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashni taqozo qiladi. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning birlamchi zaruriy sharti - kapital etariligi ta'minlash, bank aktivlarining barqaror daromadlilik darajasiga erishish, bank foydasini ko'paytirish hisoblanadi.

Risk darajasi yuqori bo'lgan sharoitda tijorat banklari barqarorlikni ta'minlashlari uchun daromadlilikka, likvidlilikka, to'lov qobiliyatiga doimo e'tibor qaratishlari, o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun banklararo o'zaro munosabatlarni rag'obatda samarali faoliyat yuritishlari talab etiladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bank-moliya tizimi faoliyati barqarorligini oshirish va sifat jihatidan yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Hukumatimiz tomonidan banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, investitsion faoliyatda ishtirokini kuchaytirish, likvidligini ta'minlash, moliyaviy jihatdan barqarorlashtirish, sog'lom bank tizimini rivojlantirish bo'yicha gator muhim qarorlar qabul qilindi.

Yuqoridagilarni imobtaga olgan holda, tijorat banki moliyaviy natijasiga quyidagicha ta'rif berildi: moliyaviy natija - bu, faoliyatga kompleks baho beruvchi va sodir bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni haqoniy aks ettiruvchi daromad, xarajat, foyda va zarar ko'rinishidagi iqtisodiy ko'rsatkichlardir. Bank foydasi esa, uning faoliyati natijasi va rivojlanishining asosi, kapitaldan tashqari bank faoliyatida ishlatilishi mumkin bo'lgan mablag'idir.

Tijorat banklari moliyaviy natijasini shakllanish amaliyotini 2-jadval asosida ko'rib chiqamiz:

4.3-jadval

AT «Agrobank» da «Foyda va zararlar to'g'risida»gi hisobot shaklida moliyaviy natijalarni shakllantirish tahlili⁴¹

mln, so'm

№	Ko'rsatkichlar	2013-yilda 2018-y.													
		2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	mln. foizda	so'm	mln. foizda	so'm				
1	Foiz daromadi	25817	31520	43590	61802	91449	122858	+97042	+375,9						
2	Foizli xarajalar	-13515	-16337	-28410	-32066	-50693	-63222	-49706	+367,8						
3	So'f foiz daromadi	12301	15184	15180	29736	40756	59637	+47335	+384,8						
4	Kreditlar bo'yicha ehtimoliy zararlarini baholash) qayta tiklash	-1518	-3519	-3125	-6373	-11309	-11554	-10036	+661,3						
5	Zaxirani baholash chegitib tashlan-gandan keyingi so'f daromadi	10784	11665	12055	23363	29448	48083	+37299	+345,9						
6	Foizsiz daromadi	27791	34522	38924	51584	63096	72723	+44932	+161,7						
7	Operation xarajalar	-29725	-39805	-43820	-63108	-86393	-107868	-78144	+262,9						
8	Daromad (foyda) solig'idan oldingi so'f foyda (zarar)	8850	6381	7159	11839	6151	12938	+4088	+46,2						
9	Daromad (foyda) solig'ini baholash	-3095	-4711	-981	-883	221	-1344	+1751	-56,6						
10	So'f foyda (zarar)	5755	1670	6178	10956	-6372	11594	+5839	+101,5						

*Izoh. AT «Paxtabank» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ««Agrobank» aksiyadorlik tijorat bankining tashkil etish to'g'risida» 2018-yil 30-mart, PQ-1084-son Qaroriga muvofiq AT «Agrobank»ka o'zgartirilgan.

4.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turlidiki, tahlil qilingan yillarda bank ijroiy natijaga erishgan va foyda bilan yakunlagan. Mamlakatimizda tijorat banklari moliyaviy natijalarni shakllantirishda daromad, xarajat, foyda va zarar ko'rinishida ko'rsatkichlardan keng miqdorda foydalaniladi. Bank daromadlari foizli va foizsizga, xarajalar, daromadlar, foizsiz va operatsionga ajratiladi.

⁴¹ «Bank xabardoronomasi» gazetasi 2013-2018 yillarda ma'lumotlari asosida tuzilgan hisobotlar

4.4-jadval

O'zbekiston bank tizimida tijorat banklarining daromadlari tahlili, (foiz hisobida)⁴²

№	Ko'rsatkichlar					Jamii daromad	Foizsiz daromad	Foizli daromad	ulushi	ulushi	ulushi	ulushi	ulushi
	2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.								
1	64,0	62,6	60,0	58,9	55,9	54,4							
2	36,0	37,4	40,0	41,1	44,1	45,6							
3	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0							

Hozirgi kunda bank daromadlari va xarajalarini buxgalteriya hisobida tan olish masalasi o'z ahamiyatini yo'qotgan va bank daromadlari va xarajalarini hisobga olishda tan olish mezonlarining bajarilishi va buxgalteriya hisobining izchillik, ishonchlilik, aniqlik, to'liqlik va o'z vaqtidlilik tamoyillari bilan birga «exiyotkorlik», «hisobot davrida daromadlar bilan xarajalarining muvofiqligi», «xamiyatilik» tamoyillaridan foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Banklar faoliyatini statistik o'rganishning vazifalariga nimalar kiradi?
2. Investitsiya loyihalarni amalga oshirishda tijorat banklari ishtiroki mohiyati?
3. Tijorat banklari depozitlariga aholi va xo'jalik subyektlari bo'sh pul mablag'larini jalb etish yo'llarini sanab bering?
4. Banklarda omonatlarining ko'payishi uchun nimalar qilish kerak?
5. Respublika bank tizimi rivojlanish dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar

⁴² «Bank xabardoronomasi» gazetasi 2013-2018 yillarda tuzilgan ma'lumotlari asosida tuzilgan hisobotlar

5.1. Banklarning xalqaro moliya institutlari bilan xamkorligini ta'minlashning

nazariy jihatlari va shart-sharoitlari

Mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor intruzivlasini yaratish, barqaror va o'zaro mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo'lgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishdan iboratdir. Uning muvaffaqiyatli amalga oshirishini, birinchi navbatda, xususiy sektorning mavqeini yanada oshirishni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni taqozo etadi. Shuningdek, mustaqilligimiz ramzlaridan biri bo'lgan milliy pul birligimiz – so'mimizning barqarorligini va xarid quvvatini har tomonlama mustahkamlamadan, jozibador investitsiya muhitini va investoirlar uchun kafolatlarni yaratmasdan, tashqi va ichki sarmoyalarni butun iqtisodiyotimizni yangilashga, oltin-valyuta zaxiralatimizning barqaror o'sishiga xizmat qiladigan yetakchi tarmoqlarga, birinchi navbatda, yo'naltirmasdan, xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorligimizni yanada kuchaytirmasdan, dunyo moliyaviy tizimiga integratsiyalashmasdan, Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratmasdan turtib bu ustuvor yo'nalishning hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etilishini tasavvur etish amalda mumkin emas. Eng avvalo, bugungi kunda iqtisodiy sohadaagi vazifalarning aynan shunday belgilanganligini har birligimiz to'la-to'kis to'g'ri idrok etmog'imiz lozim.

Ma'lumki, mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti ustuvor yo'nalishlarining biri sifatida xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorligimizni yanada kuchaytirish vazifasi qayd etilgan.

Ta'kidlash joziki, mustaqilligimiz yillarida xalqaro moliyaviy tashkilotlar – Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon Banki (JB), Evropa Taraqqiyot va tiklanish banki (ETTb), Osiyo Rivojlanish banki (ORB) va boshqalar bilan, bevosita, to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatildi. Fikrimizcha, mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida bozor munosabatlarni shakllantirish va ularni tizimli rivojlantirishda bunday xalqaro moliyaviy tashkilotlarning o'rni anchagina salmoqli.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni har tomonlama, shu jumladan, moliyaviy qo'llab-quvvatlanilayotganligi, byudjet taqchilligini kamaytirish choralarining ko'rilayotganligi, faqatgina milliy emas, balki xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yirik loyihalarni moliyalashtirishda hamkor sifatida ishtirok etilayotganligi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan bir necha yuzlab million AQSh dollari hajmidagi xalqaro grantlarning ajratilayotganligi, iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida mavjud bo'lgan disproporsiyalar (nomutanosibliklar)ning oldini olishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilayotganligi va hokazolalar ana shular jumlasidandir.

Albatta, bunday natijalarga erishish o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Bu o'rinda agar xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan O'zbekistondagi tadbirlar ma'lum darajada qo'llab-quvvatlanilayotgan yoki moliyalashtirilayotgan ekan, ularning parchasiga, eng avvalo, respublikamiz rahbariyatining puxta o'ylangan va uzoqqa mo'ljallangan nozik iqtisodiy siyosatning natijasi sifatida qarashimiz kerak. Fikrimizcha, bu sohada iqtisodiy siyosat o'zgarishiga bo'lgan taqdirda bunday natijalarga erishib bo'lmaydi.

Biz bugungi kunda go'liga kirigan yutuqlarimiz bilan cheklanib qolmasligimiz va aksincha, xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorligimizni yanada kuchaytirib, uni yangi pag'onaga ko'tarishimiz zarur. Vazifaning bu tarzda qo'yilishi xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorligimizning hozirgi ahvoli, ma'lum darajada, qoniqarli emasligidan dalolat beradi.

Chunki amaliyotga nazar soladigan bo'lsak, xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorligimizni yanada kuchaytirish va buning natijasida yanada yuqoriroq ko'rsatkichlarga erishishimiz uchun kattagina imkoniyatlarimiz mavjud ekanligining, ularidan etarli darajada hamma o'z vaqtida foydalana olmayotganligimizning guvohi bo'lamiz. Buning uchun quyidagilarga e'tibor beraylik: amaldagi tartib-qoidaalarga ko'ra, xalqaro moliyaviy tashkilotlar O'zbekistonga tegishli moliyaviy xarakterdagi qarorlar qabul qilishi uchun, dastlab, tegishli ma'lumotlarni talab qilishadi. Aytim hollarda, kerakli ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim qilmasdan qolmoqda. Bazi hollarda xalqaro tashkilotlarning ekspertlari tomonidan hisoblangan iqtisodiy

5.1-jadval

BERI indeks⁴⁴

investorlar uchun yaratilgan shart-sharoit, infratuzilmani mukammallashtirish kabi muhim masalarga qaratilgan. Chunki xozirgi davrda investorlar bitron-bitr davlatga investitsiya kiritishdan avval ushbu davlatning investitsiya iqlimini izchil o'rganishga xarakat qilmoqdalar. Albatta ular bu izlanishlarni marketing tadqiqotlari yoki shunday faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar yordamida amalga oshirmoqdalar.

№	Mezonlar	Salmog'i , %
1.	Stiyosiy barqarorlik	12
	Kutilmagan hukumat to'larishlari imkoniyatlari va ularning tadbirkorlik faolligiga ta'sirini baholaydi	
	Xoziriy investitsiyalar va foydaga imnosabat	6
	Xususiy tadbirkorlarga tegishli ijtimoiy ehtiyojlarga bo'lgan xarajalar hajmi	6
	Beg'araz ekspropiatsiya imkoniyatlaridan mahalliy hokimiyatlarga imtiyozlar berishga	6
	Devalvatsiya ta'siri, hamda korxonalar faoliyatiga devalvatsiyaning ta'sirini yumshatuvchi choralarining hayotiyligi	6
	Hisoblar balans va umumiy balansga, hamda xoziriy investorlarning daromadlariga ta'sir etuvchi omillar	6
	Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi, bojxona rasmiyatchiliklarni amalga oshirishi, valyuta o'tkazishlari va boshqa shunday operatsiyalar	4
	Yillik yalpi mahsulot ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi: 3-6%, 6-10% va 10%dan yuqori chegaralarda	10
	Milliy valyutaning xoziriy valyutaga almashitirish imkoniyati, hamda milliy valyutaning (korxonalar zarur bo'lgan darajada) valyutalar bozoridagi o'rni	10
	Shartnomaga amal qilish imkoniyati, hamda til va urf-odatlardagi farq natijasida qiyinchiliklarning yuzaga kelishi	6
	Ish haqi va imkoniyati	10.

⁴⁴ Imomov H.H. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. –T.: 2010, 116-b.

ko'rsatkichlarni bizing milliy iqtisodiyotimiz rivojlantirish ko'rsatkichlari bilan taqqoslanganda, ular o'rtasida farqlar borligini ko'rish mumkin. Fikritimizcha, bunga asosiy sabab, ularning iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash metodologiyasi bilan bizing metodologiya o'rtasida farqlarning mavjudligidir.

Ta'kidlash jozi, biz uchun mablag'lar ajratilishidan xalqaro moliyaviy tashkilotlarning o'zlarini ham bizzan ko'p bo'lsa bordir, lekin kam manfaatdor emas. Buning boisi shundaki, bozorning hayot sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan qonunlariga muvofiq, ular ixtiyorida to'planmagan mablag'lar, bir daqiqada bo'lsa-da, harakatiz turishi mumkin emas. Buning aynan shunday ekanligini xalqaro moliyaviy tashkilotlarning barchasi allaqachon his etishgan. Shuning uchun ham har bir xalqaro moliyaviy tashkilotning o'z ixtiyorida mablag'larni u yoki bu mamalakalar iqtisodiyotining tarmoqlariga samarali joylashtirishga harakat qiladi.

Barhamizga ma'lumki, har bir davlatning iqtisodiy-ijtimoiy hamda siyosiy barqarorligini ta'minlashda investitsiyalarning ahamiyati juda kattadir. Shunday ekan hozirgi kunda har bir davlatning asosiy e'tibori investitsiya jalb qilish yoki yo'naltirishga qaratilgan bo'lib, ushbu faoliyatning samaradorligi bo'lishi avvalo investitsiya yo'naltirilgan davlatda qulay investitsion iqlimni yaratilganligiga bevosita bog'liq.

Investitsiya muhiti har tomonlama chuqur tahlil qilinishi asosida investitsiya riski aniqlanadi. Investitsiya muhiti va risk darajalari bir-birlariga teskari nisbatdadir. Investitsiya muhiti ganchalik qulay bo'lsa, investorning tadbirkorlik riski shunchalik past darajada bo'ladi va bu investorlarning kirib kelishini ko'paytiradi. Aksincha, investitsiya muhiti noqulay bo'lsa, risk darajasi yuqori bo'ladi. Bu esa investitsiya qabul qiluvchining sarti-xarajalarining o'sishiga olib keladi. Shunday qilib, investitsiya muhiting holati faqat investor uchun emas, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhimdir.⁴³

Hozirda ayniqsa rivojlangan yoki sanoatlashgan davlatlar tajribasini tahlil qiladigan bo'lsak, ularning eng asosiy nuqtai nazari mamalakada investitsion jozibadorlikni kuchaytirish ya'ni qonunchilik borasidagi imyoqlar hamda davlatda

⁴³ Karbiyeva R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. –T.: 2011, 96-b.

Bular iqtisodiy, siyosiy hamda ijtimoiy omillardir. Albatta davlatda qulay investitsion iqlimni yaratishda davlatning o'zini juda kattadir. Ko'p hollarda investitsion iqlimga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida davlat olib borayotgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosat ko'riladi. Bunga sabab sifatida davlat mamlakat barcha jabhalarni barqarorlashtirib turuvchi rihzag ekanligidadir. Shu bois qulay investitsion muhiti yaratishda davlat bilan uzviy bog'liq bo'lib qolmoqda. Birgina O'zbekiston misolida ko'radigan bo'lsak davlatimiz tomonidan iqtisodiyot va siyosatning barcha jabhalarda olib borilayotgan oqilona siyosat mamlakatimizda qulay investitsion muhit yaratilishiga zamin yaratmoqda.

Biror mamlakatning investitsion muhiti tahlil qilimganda, mablag'ni daromad keltiruvchi loyihaga joylashtirmoqchi bo'lgan xorijiy investitorlarning fikrlari ahamiyatlidir. Ularning fikricha investitsiya muhiti bir qator zaruriy omillarga bog'liq bo'lib, ularning mavjudligi investitsiya muhiti eng qulay bo'lishini ta'minlaydi.

Birinchisi, siyosiy barqarorlik bo'lib, uning mavjud bo'lishi investitsioning kelgusi ishlarni rejalashtirish va ishonch bilan oldinga intilishiga imkon beradi. U kuchli qonuniy tizimning mavjudligi, tashqi va ichki harbiy nizolar, hamda inqilobiy o'zgarishlarning bo'lmashligida namoyon bo'ladi.

Ikkinchisi, iqtisodiy samaradorlik. Har bir investor iqtisodiy o'sish juda yuqori bo'lgan, hukumat iqtisodiyotni rivojlantirish borasida barqaror siyosat olib borayotgan mamlakat iqtisodiyotiga mablag' sarflashni xohlaydi.

Hukumatning siyosati yana bir muhim omil hisoblanib, investitorlarning faoliyatiga turlicha ta'sir o'tkazishi mumkin. Albatta, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat bevosita yoki bilvosita biznes, savdo va investitsiyalash jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazadi.⁴⁶

Xorijliklarning mehmati. Xorijiy investitorlar o'z biznesi va daromadlarini hamyurtlari nazorati ostida bo'lgani ma'qul, deb fikrallashadi. Ammo ishga juda ko'p xorijliklarni jalb etish xarajatlarni oshirib yuboradi. Valyuta muomalasini tartibga solish. Xorijiy investitorlarni mamlakatga mablag' olib kiritish, uni sarflash imkoniyatlaridan tashqari biznesdan topilgan daromadni konvertirlangan valyutaga

⁴⁶ Нешитої А.С. Інвестиції. – М.: Дашков, 2006, 137-с. 94

	unumdoriyiga xarajalar				
11	Ekspertlar va marketing bo'yicha maslahatlar berish, texnologiya va xizmatlardan foydalanish imkoniyati	Korxonalar va kompaniyalar ta'rif, baxgaleriya, marketing bo'yicha maslahatlar amalga oshirish sohasida qurilish ishlarni amalga oshirish sohasida maslahatlar kiritish imkoniyati	2		
12.	Aloqa va transportni tashkil etish	Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va ularning filiallari orasidagi transport yo'llari va aloqa tizimini (mamlakat ichidagi ham) tashkil etish va foydalanish imkoniyati.	4		
13.	Mahalliy boshqaruv va hamkorlik	Boshqaruvning turlari masalalarini echishda o'z kapitali bilan qatnashish va hamkorlikda faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan mahalliy hamkorlarning soni va imkoniyatlari	4		
14.	Qisqa muddatli kredit	Xorijiy hamkorlarga qisqa muddatli kreditlar berish va ulardan foydalanish imkoniyati	8		
15.	Uzoq muddatli kredit va shaxsiy kapital	Hamkorlar tomonidan nizom kapitaliga o'z ulushlarini qo'shish shartlari va milliy valyutada uzoq muddatli kredit berish shartlari	8		

Hozirgi davrda jahon tajribasida, investitsion iqlim darajasini aniqlovchi mahsus

“BER” indeksi mezonlari baholardan keng foydalanilmoqda. Ushbu indeks mamlakatdagi investitsiya muhiti turlariga salmoqqa ega bo'lgan 15 ta baholash mezonlari asosida hisoblab chiqadi. Har bir mezonga 0 dan (to'g'ri kelmaydi) 4 gacha (o'ta qulay) baho beriladi. Toplangan yuqori ball “barqaror mamlakat”ni anglatadi. Mamlakat topilgan ball ganchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalashdan olinishi mo'ljallangan foyda ham shuncha yuqori bo'lishi zarur, aks holda investitsiyalash asossiz hisoblanadi. Ushbu tadqiqot “BER” deb nom olgan axborot xizmati yordamida amalga oshirildi.⁴⁵ Bu firma buyurtma asosida har qanday mamlakatdagi investitsiya iqlimini tahlil qilishi va u haqida axborot ishlab chiqishni, talvsiya berishi mumkin. Bu indeksni 45 mamlakat bo'yicha 100 ta mutaxassis har yili uch marta hisoblab chiqadilar.

Investitsion iqlim turlari omillariga bevosita bog'liqdir. Xozirgi davrda investitsion iqlimga ta'sir etuvchi uchta eng asosiy omillar alohida ko'rsatib o'taladi.

⁴⁵ Imomov H.H. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. – T.: 2010, 116-b. 93

aytiriboshlash, chega olib chiqish, valyuta hisob raqamiga ega bo'lish imkoniyatlari nihoyatda qiziqtiradi.

Keyingi omil *infvuzilma holati* bo'lib, u mamlakatdagi yuqoridagi sanab o'tilgan omillarning mavjud bo'lishidan keyingi muhim omillardandir. Unda ishlab chiqarish uchun er maydonlaridan foydalanish, ermi ijara olish shartlari va muddati, avtomobil va temir yo'llarning sanoat hududlarini asosiy transport bo'g'inlari (portlar, aeroportlar) va bozorlar bilan bog'langanligi, elektr energiyasining mavjudligi, suv ta'minoti darajasi (ba'zi hollarda ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi), telekommunikatsiyaning rivojlanish darajasi, telefon, faks, aloqalarining mavjudligi, kompyuter orqali aloqa o'rnatish masalalari muhimdir.

Ischi kuchi. Ko'pincha xorijiy investitsiyalarni kiritishning asosiy sababi qilib qabul qiluvchi mamlakatda ish kuchining arzonligi ko'rsatiladi. Lekin, investitsiyalarni jalb qilishga savodxonlik, ishchi kuchining malaka darajasi, mehnat qilish etikasi, mehnat unumdorligi darajasi, turli yitimoiy harakatlarning ishlab chiqarish jarayoniga ta'siri va boshqalar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, oldimizda turgan eng muhim ishlarimiz gatorida xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorligimizni yanada kuchaytirish zarurligining mazmun-mohiyatini to'liq tushinish, ularga xos mavjud imkoniyatlarni to'liq baholash orqali har bitimimizning orzumi bo'lgan kelajagi buyuk davlatni qurish yo'lida bugun mustahkam iqtisodiy poydevor yaratishga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

5.2. Jahon mintaqalari rivojlanishida xalqaro moliya-kredit tashkilotlari

Mamlakatlari iqtisodiyotini rivojlantirishda xalqaro moliya tashkilotlari ham muhim rol o'ynaydi. Mintaqaviy rivojlanish banklari o'z hududlariga boshqa xalqaro tashkilotlarga nisbatan imtiyozli kreditlar ajratish orqali uni rivojlantirishni nazarda tutadi. Bunday rivojlanish tashkilotlariga Evropa taraqqiyot va tiklanish banki, Osiyo taraqqiyot banki, Amerikaaro rivojlanish banki, Afrika rivojlanish banki, Islom taraqqiyot banklari kirishimiz mumkin. Mintaqaviy rivojlanish banklarini tuzishga XIX asr oxiridan boshlab harakat qilingan. Xususan, ularni tashkil etilgan sanalarini quyidagi ko'rishimiz mumkin.

1. Osiyo taraqqiyot banki – tashkil etish g'oyasi 1957-yil, Nizomi 1966-yil dekabrda tasdiqlangan.

2. Amerikaaro Rivojlanish banki – tashkil etish g'oyasi 1889-yil, Nizomi 1959-yil dekabrda tasdiqlangan.

3. Afrika rivojlanish banki – 1960-yil, Nizomi 1963-yilda tasdiqlangan.

4. Evropa taraqqiyot va tiklanish banki – tashkil etish g'oyasi 1989-yil oktyabr, Nizomi 1990-yil 9-aprelda tasdiqlangan.

Endi biz, O'zbekiston bilan yaqindan hamkorlik qilib kelayotgan mintaqaviy rivojlanish banklari, xususan Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki faoliyatini bilan tanishib chiqamiz.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) - 1966 yilda tashkil topgan va unga bugungi kunda 67 ta davlat a'zo bo'lib, shundan 48 tasi Osiyo, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari, shuningdek, 19 tasi Evropa va Amerikaning sanoati rivojlangan davlat hisoblanadi.

OTBning maqsadi Osiyo qit'asidagi rivojlanayotgan mamlakatlarga iqtisodiy rivojlanishda ko'maklashishi, hududiy hamkorlikni rag'batlantirish, a'zo-mamlakatlarga texnik yordam ko'rsatish va ularning iqtisodiy siyosatini muvofiqlashtirishdan iborat.

OTB transport va kommunikatsii, energetik loyihalari, qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslar, moliya, yitimoiy infratuzilma sohalarini moliylashtiradi.

OTBga a'zolik BMTning Osiyo va Tinch okeani bo'yicha iqtisodiy va yitimoiy masalalar bo'yicha komissiyasidagi barcha mamlakatlari va Osiyo mintaqasidagi boshqa mamlakatlari (agar ular BMT yoki uning ixtisoslashgan agentliklariga a'zo bo'lsalar) uchun ochiq. A'zolikda mavjud bunday keng imkoniyatlar OTBda Osiyo mintaqasidan tashqari mamlakatlari ulushining ortishiga olib keldi, ularga bank aktsiyalarining qariyb 37 foizi va ovozlarning 35 foizi to'g'ri keladi.

Yaponiya, AQSH, Xindiston, Avstraliya, Janubiy Koreya OTBning yirik aktsiyadorlari (aktsiyalar paketi 5 foizdan ko'p bo'lgan) hisoblanadi. Xitoy,

5.2-jadval

OTB tomondan ko'rsatilgan moliyaviy operatsiyalar, mln. AQSh dollarida

Yillar		2014y.	2015y.	2016y.	2017y.	2018y.
1.	Davlatlar kafolati bilan bog'liq moliyaviy ta'minotlar	14463	14600	13429	16450	15990
1.1.	Kreditlar	10410	10580	10457	11740	11205
1.2.	Kapital (aktsiyalar)ga investitsiyalar	-	150	-	-	-
1.3.	Grantlar	952	614	670	849	405
1.4.	Texnik kafolatlarni	171	137	146	149	148
1.5.	Qo'shilgan qiymatli to'g'ri dan-to'g'ri qo'shma moliyalashtirish	2930	3119	2155	3712	4232
2.	Davlatlar kafolatsiz berilgan moliyaviy ta'minotlar	3474	5774	7496	4541	6935
2.1.	Kreditlar	815	1250	916	1425	1714
2.2.	Kapital (aktsiyalar)ga investitsiyalar	235	44	131	142	185
2.3.	Kafolatlarni	190	267	128	35	20
2.4.	Taklif etilgan uzluksiz (zanjirli) moliyalashtirish	-	-	200	-	-
2.5.	Texnik yordam	2	8	5	6	11
2.6.	Qo'shilgan qiymatli to'g'ri dan-to'g'ri qo'shma moliyalashtirish	2232	4205	6117	2933	5006
	Jami	17936	20374	20925	20991	22925

Manba: Osiyo taraqqiyot banki hisobotlari va ma'lumotlari asosida hisoblangan.

OTB faoliyatining xususiyati shundan iboratki, u o'z kreditlarining 30 foizini imtiyozli shartlarda maxsus fondan beradi. U ushbu mablag'larni Evropa bozorlariga yo'naltirib, ularni rivojlantirishga aylanadi. Bunda bank imtiyozli foiz stavkalarini ko'zda tutadi. Kreditlar, shuningdek, tijorat shartlarida yoki yuqori bozor stavkasi bo'yicha 10-25 yil muddatga oddiy jamg'armalardan ham beriladi.

2018-yilda OTBning moliyaviy operatsiyalari 22,9 mlrd. AQSh dollariga etib, shundan 13,7 mlrd. AQSh dollari OTBning odiy kapital resurslari hisobidan va 9,2 mlrd. AQSh dollari esa boshqa hamkorlar bilan birgalikda qo'shma moliyalashtirish hisobiga amalga oshirildi. Davlatlar kafolati bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalar

Hindiston, Pokiston, Indoneziya, Bangladesh kabi mamlakatlarni asosiy qarz oluvchi mamlakatlarni sanaladi.⁴⁷

OTBda Osiyo rivojlantirish fondi (20,5 mlrd. doll.) va Maxsus texnik yordam fondi (721,7 mln. doll.) mayjud⁴⁸. 1988 yilda Bank va Yaponiya hukumati o'rtasida texnik yordam ko'rsatish bo'yicha Yaponiya maxsus fondi tashkil etildi.

OTB faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- investitsiya loyihalarni moliyalashtirishda uzok muddatli va imtiyozli shartlar bilan 40 yilgacha bo'lgan kreditlarni yiliga 1 foizdan besh; tijorat kreditlarini 3 yillik imtiyozli davr bilan 15 yilgacha besh;

- rivojlantirish uchun zarur ekspert xizmat va maslahatlarining turli shakllarini tashkil etish.

OTB rivojlantirish uchun zarur mamlakatlarga quyidagi fondlar hisobidan kreditlar beriladi:

- oddiy fond hisobidan tijorat shartlari asosida 25 yil muddatga (barcha kreditlarining gariyb 2/3 qismi);
- Osiyo rivojlantirish maxsus fondi hisobidan imtiyozli 1-3% stavkalar bo'yicha kambag'al mamlakatlarga 40 yilgacha muddatga.

Boshqa rivojlantirish banklari kabi OTBda ham kreditlashda balansni ta'minlash maqsadida davlat sektoriga berilgan kreditlar jami loyihalarning 20 foizidan oshmaydi.

⁴⁷ A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajrbaekov, Sh.I.Raxmanov, X.A.Usmanova. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarni o'rganish uchun qo'llanma. - T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 372-b.
⁴⁸ <http://www.adb.org/about/members.asp>

5.3. Mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishida banklarning roli

“Jahon banki guruh” atamasi 5 ta tashkilotni, xususan, Xalqaro moliya korporatsiyasi (International Financial Corporation), XRA, XTTB, Xalqaro investitsion bahslarni tartibga solish markazi (International Center for Settlement of Investment Disputes), Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlikni (Multilateral Investment Guarantee Agency) o'z ichiga oladi⁵⁰.

Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK). Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) (ing. International Finance Corporation, IFC) – Jahon banki guruhiga kiruvchi xalqaro tashkilotdir. Tashkilotning shab-kvartirasi Vashingtonda (AQSh) joylashgan. 1956-yilda rivojlanaётgan mamlakatlarga xususiy investitsiyalar oqimi bartqorilgini ta'minlash maqsadida tuzilgandir.

Jahon banki tashkilotlari guruhining Prezidenti bir vaqtning o'zida XMK Prezidenti bo'lib hisoblanadi. Rahbarlik vazifasi vitse-prezident tomonidan amalga oshiriladi. XMK aksionerlari bo'lib 184 mamlakat hisoblanadi.⁵¹ XMK Jahon banki guruhiga kiruvchi boshqa tashkilotlar bilan o'z faoliyatini muvofiqlashtirib boradi, lekin yuridik va moliyaviy aloqalarda mustaqil tashkilot bo'lib hisoblanadi.

2017-yilda 103 mamlakatda 612 ta yangi loyiha bo'yicha zakiralashtgan mablag'lar hajmi 18,3 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Xalqaro moliya korporatsiyasi 2018-yilda esa, 98 ta mamlakatga 599 ta loyiha bo'yicha 17,2 mlrd. AQSh dollarlik mablag' ajratgan (5.3-jadval).

5.3-jadval Xalqaro moliya korporatsiyasining operatsion faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, mln. AQSh doll.

Yangi investitsion majburiyatlar		2014y.	2015y.	2016y.	2017y.	2018y.
Loyihalar soni	528	518	576	612	599	98
Mamlakatlar soni	103	102	103	113	98	98
XMKning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirish	12664	12186	15462	18349	17261	17261

Manba: Big challenges, big solutions. IFC Annual Report 2018. Washington, 2018 p. 25.

⁵⁰ www.worldbankgroup.org
⁵¹ http://www.ifc.org/itcx/russian.nsf/Content/Member_Countries

15,9 mlrd. AQSh dollariga eigan bo'lsa, bunday kafolatsiz amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalar 6,9 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan (5.2-jadval).

Bundan tashqari, OTB tomonidan berilayotgan kreditlarning aksariyat qismini investitsion kreditlar tashkil qiladi. Bu esa OTBning tijorat banklaridan farqlantiruvchi muhim jihat hisoblanadi. Chunki tijorat banklarida uzozq muddatli resurslar taqchilligi mavjud bo'lganligi tufayli ular tomonidan berilgan kreditlarning asosiy qismini qisqa muddatli kreditlar tashkil etadi. Shuning uchun OTBni investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi roli tobora oshib bormokda.

Moliyaviy operatsiyalarning asosiy qismi Janubiy-Sharqiy Osiyo va Markaziy va G'arbiy Osiyo mamlakatlari bilan amalga oshirilgan. OTB tomonidan 2018-yilda ajratilgan moliyaviy resurslarning asosiy qismi energika, transport va moliya sohasini rivojlantirish maqsadlariga berilgan kreditlarning hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu sohalariga berilgan kreditlarning miqdori 5,02 mlrd. dollarni tashkil qiladi. Bu esa, 2018-yilda OTB tomonidan berilgan kreditlarning 23 foizini tashkil qiladi.

Shuningdek, OTB energika, moliya tizimi, sanoat va savdo, davlat sektorini boshqarish, suv ta'minoti va boshqa mahalliy infratuzilma hamda xizmatlar, qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslar, ko'p tarmoqli sektor, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya, ta'lim sohalarini ham rivojlantirishga katta e'tibor bergan.

Islom taraqqiyot banki (ITB) – 1974-yilda tashkili topgan. Unga islom diniga e'tiqod qiluvchi 56 ta mamlakat, ya'ni Islom anjumanining deyarli barcha a'zolari kiradi. Nizom kapitalining miqdori 150 mlrd. AQSh dollariga eigan.⁴⁹ Bank o'z faoliyatini 1134 ta xodim, islom dini asosidagi hisob-kitoblar bilan musulmon kalendari bo'yicha hijriy yil asosida boshqaradi.

ITBning maqsadi a'zo-mamlakatlarning rivojlantirish loyihalarini, tashqi savdoni kreditlash va savdo, sanoat kompaniyalari kapitallarini investitsiyalashtirishdan iborat.

⁴⁹ The Board of Governors of the IDB, during its 38th Annual Meeting, 11-12 Rajab 1434H (21-22 May 2013) Dushanbe, Tajikistan.; Islamic Development Bank, Annual Report: 1434H (2013). Sha'ban 1435H (June 2014). Jeddah, Kingdom of Saudi Arabia. Corporate development bank – Capital, Executive Summary, xi/85 p.

XMK rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi yuqori rentabeli korxonalarni kreditlaydi. XMK kreditlarining muddati odatda 15 yildan oshmaydi, o'rta muddat esa 3-7 yildir.

Xususan, XMK bozor holatiga yaqin shartlar bo'yicha 12 yilga imtiyozli davr bilan 3 yildan 15 yilgacha qarz beradi. qariyb 80% passivlarini moliya bozori dan jalb qiladi, qolgan 20% esa XTTB dan qarzga olinadi. Odatda XMK boshqa investorlar ish-tirokida loyihalarni moliyalashtiradi. Uning ulushi 25-35% ni tashkil qiladi. Birgalikda moliyalashtirish XMK ning o'ziga xos xususiyati bo'lib, u qarz berishdan tashqari xususiy korxonalar kapitaliga ham pul qo'yishni amalga oshirishda ham namoyon bo'ladi.⁵²

XMK ning xususiyati shundaki, uning mablag'laridan investitsiya olish uchun korxonalar va tashkilotlarga kredit berilganda, JTTB va XRA talab qilganda korxonalar hukumat katorlari talab qilmaydi. Bu xususiy kompaniyalar uchun ular faoliyati usidan davlat nazoratidan saqlaydi, va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilish manfaatlarga xizmat qiladi.

XMK kompaniyalariga risklarni boshqarishga va jahon kapital bozoriga chiqishning kengroq imkoniyatiga ega bo'lishga yordam beruvchi yangi moliyaviy instrumentlarni ishlab chiqishni davom ettirmoqda. Ushbu moliyaviy mahsulotlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: XMK o'z mablag'laridan zayomlar; sindikatsiyaga qayd qilinish mumkin; hissa moliyalashtirish; qarz instrumentlari va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar fondlari; tuzilmaviy moliyalashtirish; vositachilar orqali moliyalashtirish; risklarni boshqarish bo'yicha mahsulotlar; milliy valyutada moliyalashtirish; savdoni moliyalashtirish; ekspert baholash va boshqalar.

XMK ga a'zolikka kirishda quyidagi shartlarga amal qilindi: XTTB a'zoliigi; XMK keleshuv moddasini imzolash.

XMK turli xil tarmoqlardagi loyihalarni moliyalashtiradi, ularga, qishloq xo'jaligi, tog' sanoati, ishlab chiqarish, turizm va boshqalarni kiritish mumkin.

⁵² A.V. Vaxabov, Sh.X. Xajibakiev, Sh.L. Raxmanov, X. Usmanova. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 372-b.

Ammo birinchi navbatdagi yo'nalish, xususiy sektor bo'lib hisoblanadi. XMK

faoliyatining to'rtta asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin: xususiy sektor loyihalarni moliyalashtirish; rivojlanayotgan mamlakatlardagi tashkilotlarga xalqaro moliya bozorlaridan kapital jalb qilishda yordamlashtirish; ta'lim, sog'liqni saqlash va intratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan xususiy investitsiyalar yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish, shuningdek, innovatsion moliyaviy mahsulotlardan foydalanish va salohiyatni oshirish orqali ichki moliya bozorlarini rivojlantirish;

xukumatlariga maslahat va texnik yordam ko'rsatish.

Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA). Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA) – jahon banki guruhiga kiruvchi xalqaro tashkilot bo'lib, u 1960 yilda tashkil etilgan. XRA Keleshuvlar muddasining I-moddasiga muvofiq, uning maqsadi iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish, samaradorlikni oshirish va shuning asosida, xususiy rivojlangan a'zo mamlakatlarda aholi turmush tarzini oshirish, shuningdek, ana na'viy kreditlarga nisbatan og'ir bo'lmagan qulay shartlarda moliyaviy ko'mak berish hisoblanadi.

Mamlakatlarga rivojlanish jarayonida yordam ko'rsatish maqsadiga ega bo'lgan XRA strategiyasining asosiy elementlari quyidagilardan iborat: makroiqtisodiy va tarmoq siyosatining puxta o'ylangan chora-tadbirlarini qabul qilish orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirish; ijtimoiy sohalarining mustahkamlanishi va rivojlanishini qaratib qo'llab-quvvatlash orqali inson kapitaliga investitsiyalash; boshqaruv samaradorligini oshirish uchun tashkiliy-texnik imkoniyatlarni kengaytirish; barqaror rivojlanish maqsadlarida atrof-muhitni saqlash; qur'olli to'qmasuvlar oqibatlarni bartaraf etishga ko'maklashish; mintaqaviy integratsiya va savdoni qo'llab-quvvatlash.

XRA nol va past foizli kreditlar va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan grantlar ajratish orqali qashshoqlikni qisqartirish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va aholi turmush tarzini oshirishni ko'zda tutadi.

XRA dan qarz olish huquqiga yalpi milliy mahsuloti aholi jon boshiga \$1175 dan kam bo'lgan mamlakatlarga ega bo'lishadi (2017-yil).

XRA mamlakatlarga 5-10 yil imtiyozli davrli 25-40 yilga nol va past foizli kreditlar beradi. XRA kreditlarining qaytarish muddatlari 20, 35 va 40 yilni tashkili etadi.

XRA 82 ta qashshoq mamlakatga yordam ko'rsatuvchi yirik tashkilot bo'lib, shundan 40 tasi Afrikada joylashgan. Xozirgacha kunga tashkilot 2 dollardan kamroq daromad topadigan 2,5 mlrd.dan ortiq kishining turmush darajasini o'zgartirishga erishgan.

5.4-jadval
XRA tomonidan amalga oshirilgan asosiy operatsiyalar, mln. AQSh doll.

Ko'rsatkichlar		2014y.	2015y.	2016y.	2017y.	2018y.
Agentlik tomonidan zaxirlangan (berilgan) mablag'lar (1 yil mobaynida) (Commitments)		14 550	16 269	14 753	16 298	22 239
Qardolar tomonidan agentlikka taqdim etilgan mablag'lar, brutto (1 yil mobaynida) (Gross disbursements)		11 460	10 282	11 061	11 228	13 432
Qardolar tomonidan agentlikka asosiy qarzni qaytarish, jumladan muddatidan oldin qaytarish (1 yil mobaynida) (Principal repayments (including prepayments))		2 349	2 501	4 023	3 845	3 636
Qardolar tomonidan agentlikka taqdim etilgan mablag'lar, netto (Net disbursements)		9 111	7 781	7 037	7 371	9 878
Agentlik tomonidan berilgan kreditlar, jami (Credits outstanding)		113	125	123	125	136
Agentlikka qaytarilmagan kreditlar, jami (Undisbursed credits)		30 696	38 059	37 144	39 765	46 844
Agentlik tomonidan berilgan, lekin qaytarilishi kerak bo'lgan grantlar, jami (Undisbursed grants)		5 837	6 830	6 161	6 436	6 983

Manba: Bednost-protsvetanie. Godovoy ochet, 2018. Vashington, 2018. S.55.

58. XRAning zaxirasida aylanadigan moliyaviy resurslar 2018-yilda 22,2 mlrd. AQSh dollarini, shundan kreditlar 18,5 mlrd. AQSh doll., grantlar – 2,8 mlrd. doll. va kafolatlilar 937 mln. doll. tashkili etgan (5.4-jadval).

XRTB va XRA qarzlarning sohalari bo'yicha taqsimotiga ko'ra mazkur xalqaro moliya tashkilotlar tomonidan ajratilgan mablag'larning yuqori salmog'i jamiyat boshqaruvi, xuquq va sud tizimiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, mazkur tashkilotlar tomonidan energiya, transport, sog'liqni saqlash, suv, sanitariya va suv tashqiniga qarshi kurashish sohalariga ajratilgan mablag'lar ham yuqori ulushni egallagan.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XRTB, ing. International Bank for Reconstruction and Development) – 1944-yilda Breton-Vudsdagi (AQShning Nyu-Xempshir shtatidagi shaharcha) xalqaro valyuta – moliyaviy konferentsiyada XVF bilan bir vaqtda tuzilgan davlatlararo investitsiya institutidir. Bir vaqtning o'zida bankning nizomi ham bo'lib qolgan XRTB haqidagi yildan boshlagan. XRTBning shtab-kvartirasi – AQShning Vashington shahrida joylashgan.

XRTBning asosiy maqsadi – a'zo mamlakatlarga uzoq muddatli kredit va qarzlarni berish hamda xususiy investitsiyalarni kafolatlash orqali ularning iqtisodiyotini rivojlantirishga ko'maklashish hisoblanadi. Dastlab XRTB a'zo mamlakatlarning to'plangan mablag'lari va amerikalik investorlarning jalb qilingan kapitalari yordamida ikkinchi jahon urushi natijasida iqtisodiy jihatdan turg'un holatga kelib qolgan G'arbiy Evropa mamlakatlari xususiy investitsiyalarni rag'batlantirishga mo'ljallangan edi.

XRTBning Kelishuvlar moddasining I-moddasiga muvofiq uning maqsadlari sirasiga quyidagilar kiradi: a'zo davlatlarning xalq xo'jaligini tiklash va rivojlantirishga ko'maklashish; kafolatlarni berish, xususiy va boshqa investorlarning investitsiyalari va ssudalarida ishtirok etish orqali xususiy va xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish; jahon savdosining muvozanatli o'sishini va a'zo davlatlar to'lov balansining muvozanatligini qo'llab-quvvatlash.

XRTB Jahon bankining asosiy kredit tashkiloti bo'lib keng miqyosda Jahon banki nomi bilan tanilgan. Ushbu bankga a'zo bo'lish uchun ariza taqdim etgan mamlakat avvalo XVFga a'zolikka kirgan bo'lishi lozim. Bankning barcha qarzlari a'zo davlatlar hukumatlari tomonidan kafolatlanishi kerak. Qarzlarni bo'yicha har olti

oyda o'zgaruvchi foiz stavkasi belgilanadi. Hozirgi vaqtda mazkur stavka 6-7%ga teng. Qarzar asosan 15-20 yil muddatga, asosiy qarz summasi bo'yicha to'lovlarni 3-5 yilga uzaytirish tartibida beriladi. Qarz berish davlat xukumatining kafolati olingandan so'ng amalga oshiriladi⁵³.

Keyingi yillarda XTTB rivojlanayotgan mamlakatlarining tashqi qarzlarni tartibga solish bilan shug'ullanmoqda: kreditlarining 1/3 qismini qo'shma moliyalashtirish deb ataladigan shaklda beradi. Bank to'lov balans holatini yaxshilashga shuningdek, iqtisodiyot tuzilmalarini tartibga solishga strukturali kreditlarni ajratadi.

Hozirgi paytda XTTB faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: turli xildagi investitsiya loyihalarni uzoz va o'rta muddatli kreditlash; loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy va texnik asoslarini tayyorlash; rivojlanayotgan mamlakatlarida tuzilimaviy qayta qurish dasturlarini moliyalashtirish.

XTTBning asosiy mablag'lari hozirgi kunda o'rta va uzoz muddatli qarz majburiyatlarini emmissiya qilish orqali xalqaro moliya bozorlaridagi operatsiyalar hisobidan shakllanadi. XTTB qimmatli qog'ozlari yuqori kredit reytingiga ega bo'lib, dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlarga joylashiriladi. XTTBning kreditlari qarz oluvchi davlat milliy valyutasida emas, balki devalarda, ya'ni xalqaro darajada to'lov vositasi sifatida tan olingan valyutalarda ajratiladi.

Keyingi yillarda XTTB jahon moliya bozorida yirik qarzdor rolda chiqmoqda. Bank tomondan chiqarilayotgan obligatsiya qarzlari summasi davlatlararo investitsiya banklari o'rtasida eng katta solishtirma og'irlikka egadir.

Yuqoridagi ko'rilgan XRA va XTTB faoliyatlarini umumlashtirgan holda, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ajratgan mablag'larni tahlil qilish, resurslarining asosiy qismi (66%) Davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimi (22%), transport (17%), Qishloq xo'jaligi, baliqchilik va o'rmon xo'jaligi (11%), Energetika va tog'-kon

qazib chiqarish sanoati (16%) sektorlariga berilmoqda (5.5-jadval).

Investition bahslarni hal qilish bo'yicha xalqaro markaz. Investition bahslarni hal qilish bo'yicha xalqaro markaz (ing. ICSID – International Centre for Settlement

of Investment Disputes) – yuqorida ko'rib o'tilgan tashkilotlarimizdek jahon banki

guruhiga kiruvchi mustaqil xalqaro tashkilot bo'lishi bilan qatorida BMTning maxsus tashkiloti hisoblanadi. Investition bahslarni hal qilish bo'yicha xalqaro markazning maqsadi bo'lib, xalqaro investition bahslarni hal qilish va tomonlarni o'zaro murosaga keltirish uchun huquqiy imkoniyatlarni ta'minlash hisoblanadi. Markaz xususiy investitsiyalar yo'lidagi tashqi iqtisodiy to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan hamda davlatlar va xususiy investitorlar o'rtasidagi bahslarni hal qiluvchi xalqaro mustaqil arbitraj tashkiloti sifatida qaraladi.

5.5-jadval
Iqtisodiyot tarmoqlari tarkibi bo'yicha bir yilda XTTB va XRA tomondan

taqdim etilgan mablag'lar, mln. AQSH doll.

Yillar	2014y.	2015y.	2016y.	2017y.	2018y.
Qishloq xo'jaligi, baliqchilik va o'rmon xo'jaligi	2 618	2 128	3 134	2 112	3 059
Ta'lim	4 945	1 733	2 959	2 731	3 457
Energetika va tog'-kon qazib chiqarish sanoati	9 925	5 807	5 000	3 280	6 689
Moliya	9 137	897	1 764	2 055	1 984
Sog'ligniq saqlash va ijtimoiy sohadagi boshqa xizmatlar	6 792	6 707	4 190	4 363	3 353
Sanoat va savdo	1 251	2 167	1 352	1 432	1 807
Axborot va aloqa	146	640	158	228	381
Davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimi	10 828	9 673	8 728	7 991	8 837
Transport	9 002	8 638	4 445	5 135	6 946
Suv ta'minoti, kanalizatsiya, suv tashqindan himoya	4 103	4 617	3 605	2 220	4 332
Iqtisodiyot sektorlari bo'yicha jami	58 747	43 006	35 335	31 547	40 843
Shu jumladan, XTTB tomondan	44 197	26 737	20 582	15 249	18 604
Shu jumladan, XRA tomondan	14 550	16 269	14 753	16 298	22 239

Manba: Bednost-protsvetanie. Godovoy o'chet, 2018. Vashington, 2018. S.54.

Investition bahslarni hal qilish bo'yicha xalqaro markaz, davlatlar va boshqa davlatlarning fuqarolari o'rtasidagi investition bahslarni hal qilish bo'yicha konvensiyaga (Vashington konvensiyasi) muvofiq tashkil qilingan.

Konventsiya bahslarni hal qilishning ikkita asosiy yo'limi ko'rib chiqadi: tomonlarni murosaga keltirish va arbitraj ishlab chiqish. Bularga muvofiq konventsiyada ishlarni qo'zg'ash uchun, tomonlarni murosaga keltirish masalasi bo'yicha ish ko'rish uchun va arbitraj o'tkazish uchun tartib qoidalar keltirilgan. Markazda tomonlariga xizmat ko'rsatish ixtiyoriy ravishda va to'lov evaziga amalga oshiriladi. To'lovlar miqdori bosh ko'tib tomonidan tasdiqlanadi. Hozirgi paytda ko'pgina shartnomalar xususdan, transchegaraviy investitsiyalar doirasida tuzilgan shartnomalar investitsion bahslarni yuzaga keltirish holatini xal qiluvchi sifatida Investitsion bahslarni hal qilish bo'yicha xalqaro markazda izohdan o'tkaziladi.

5.4. O'zbekistonning xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorligi

Bugungi kunda xalqaro moliyaviy institutlarning amaliy aloqalariga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, ulardan Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banki, Evropa Tiklanish va taraqqiyot banki (ETTb), Osiyo taraqqiyot banki (OTB) kabi yirik moliyaviy tashkilotlar bilan juda izchil va faol ishlar olib borilmoqda. Mazkur tashkilotlar biz tanlagan yo'l va amalga oshirilayotgan islohotlarning to'g'ri ekanligiga qat'iy ishonch hosil qilganliklari uchun ham yaqin hamkorlik aloqalarini olib bormoqdalar.

Jahon banki mamlakatimizda sog'liqni saqlashning samarali tizimini shakllantirish va tibbiy mahsulotlarning maqbul narxlarida yetkazib bersh bo'yicha bir qator loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, jahon banki O'zbekistonning barcha tumanlari bo'yicha birinchi tibbiy-sanitar yordam sifatini yaxshilashga ko'mak bermoqda. Shuningdek, bank tibbiyot sohasidagi mutaxassislarining o'qishini moliyalashtirish, sog'liqni saqlashni moliyalashtirish bo'yicha o'z maslahatlarini berib, soha rivojlanishiga yaqindan yordam bermoqda.

Jahon banki guruhini va O'zbekiston o'trasidagi 2014-2018-yillarga mo'ljallangan hamkorlik strategiyasi 2013-yil dekabrda tasdiqlangan bo'lib, unda Jahon banki guruhining O'zbekistonga ko'maklashish dasturlarini o'zida mujassamlashtirgan. Yangi hamkorlik strategiyasi 2050-yilgacha mamlakatda o'rtacha daromadli aholi qatlamini darajasini oshirishga mo'ljallangan konseptual rivojlanish yo'nalishtarini qamrab oladi.

Mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiyalash hukumat bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan loyihalarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Davlatning o'rtacha muddatli rivojlanish strategiyasining asosiy elementlaridan bo'lgan ijtimoiy integratsiya, iqtisodiyotning ragobatarboshtiligi, diversifikatsiyasi, infratuzilma samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni bank bilan hamkorlik mamlakatimizning strategiyasi ko'llab-quvvatlaydi.

Mamlakat bilan jahon bankining yangi hamkorlik strategiyasi bo'yicha moliyalashtiriladigan loyihalar 1,35 mlrd. AQSh dollarlik qiymatga ega bo'lib, qariyb 15 ta yangi loyihani o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda ishlab chiqilayotgan "O'zbekiston-2030" strategiyasini qabul qilish va uni amalga oshirishini birgalikda monitoring qilish mazkur strategiyaning muvaffaqiyatini ta'minlabgina qolmasdan balki mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi. Mamlakat reytingi va nufuzi oshishi esa, o'z navbatida, mamlakat shartnomalar, uzoq muddatli investitsiyalar, xalqaro moliya institutlarning past foizli kreditlarini jalb qilishga imkoniyat yaratadi.

Osiyo Taraqqiyot bankining O'zbekistondagi faoliyati tahlili. 1993-yil 23-mayda O'zbekiston Respublikasi tomonidan OTBga a'zo bo'lib kirish uchun rasmiy ariza beriladi, unga ko'ra 1993-yil 6-avgustda OTB boshqaruv kengashi O'zRni bankka a'zolikka qabul qilish haqida 266-sonli rezolyutsiya qabul qiladi.

1995-yil 29-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning Osiyo Taraqqiyot Banki"ga a'zo bo'lib kirishi to'g'risida"gi PF-1199-sonli Farmoni chiqdi.

Respublikamiz jahonda yirik moliyaviy tashkilotlardan biri bo'lgan OTBga 1995-yilda mintaqada o'n beshinchi, a'zo mamlakatlar ichida yigirma ikkinchi yirik aksiyador sifatida a'zo bo'lib kiradi.

OTB aksiyador kapitaliga a'zolik badallari to'lash jadvaliga muvofiq O'zbekiston Respublikasi uchun hozirda 71,502 aksiya ajratilgan. O'zbekiston OTBning 71,502 ta aksiyasiga (0,67%) va 110,932 ta ovozga (0,84%) ega. 1997-yildan buyon Toshkentda OTB vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda.⁵⁴ O'zbekiston

⁵⁴ <http://www.adb.org/publications/uzbekistan-fact-sheet>
108

1997-2018 yillarda OTBning O'zbekiston loyihalari uchun ajratayotgan

kreditlarining tarmog tarkibi

Jamiga nisbatan foizda	Kreditlar hajmi, mln. doll.	Loyihalar soni	Tarmoglar tarkibi
		28	Qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslar, qishloq turmushining rivojlanishi
	6,70	21	Ta'lim
	24,62	20	Energetika
	11,95	21	Moliya
	0,94	4	Sog'liqni saqlash
	3,96	3	Sanoat va savdo
	0,67	15	Davlat sektorini boshqarish
	26,59	26	Transport
	11,43	19	Suv xo'jaligi, boshqa shahar infratuzilmasi va xizmatlar
	100,00	157	Jami

Manba: <http://www.adb.org/publications/uzbekistan-fact-sheet?ref=countries/uzbekistan/publications>

OTB va O'zbekiston o'rtasida istiqbolida ayni vaqtda 2 ta strategik hamkordik dasturi asosida faoliyat yuritadi.

1. 2008-2020-yillarda amalga oshiriladigan uzok muddatli hamkordik dasturi;

2. 2012-2016-yillarga mo'ljallangan OTB va O'zbekistonning hamkordik strategiyasi (2012-yil avgust).

Mamlakatimizning OTB bilan hamkordligi tobora mustahkamlanayotgani tufayli so'nggi yillarda kredit portfelni hajmi bo'yicha ham Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkordlik doirasida yetakchi xalqaro moliya instituti maqomiga erishgan mazkur muassasa muhim strategik sherikka aylandi. Uning mikromoliyalashtirish dasturi amaliyotga dadil tadbir etilishi natijasida respublikamizda kichik biznes sohiblari va xususiy tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash ishlari tobora rivojlanib bormoqda. Bu sarmoyadordlarda katta qiziqish o'ylamoqda, ayni chog'da, mazkur bozor ishtirokchilari orasida loyihalash imkoniyatlarini yanada kengaytirishda muhim omil vazifasini o'tamoqda. O'tgan yili qishloqlarimizda

joylashgan 353 ta massivda umumiy maydoni 1 million 500 ming kvadrat metrga

Respublikasi OTBning mintaqaviy a'zolari orasida 15-yirik aksioner va 14-yirik kreditor hisoblanadi.⁵⁵

O'zbekistonda OTB bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan dastur va loyihalar 4 ta muhim sohalariga yo'naltirilgan. Bular:

- qishloq xo'jaligi;
- xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;
- bolalikni himoya qilish va boshlang'ich ta'limni egallashga qaratilgan ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish.

- transport va bojxona tranziti sohalarida mintaqaviy hamkordlik;

Tahilllar ko'rsatishicha, 1996-yildan 2006-yilgacha kreditlar OTBning oddiy kapital resurslar hisobidan berilgan. Bu esa, kreditlarni imtiyozli shartlar asosida jalb etish imkoni bo'maganligini ko'rsatadi. 2006-yildan boshlab OTB O'zbekistonga imtiyozli kreditlar bo'yicha kredit berishni boshladi. Aksariyat kreditlar infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilganini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, moliya, transport va kommunikatsiya sohalariga ham katta e'tibor qaratilayotganini ko'rsatish mumkin.

Shunisi muhimki, 2008-yilda OTB Kengashi 2008-2020-yillarga mo'ljallangan hamkordlikni rivojlantirishning uzok muddatli Strategiyasi – "Strategiya-2020" Dasturini ma'qulladi. OTBning O'zbekistondagi faoliyati mazkur Strategiya va Dasturga asoslanadi OTBning bu Strategiyasi ustuvor sohalar sifatida qishloq xo'jaligi, xususiy sektor, transport kommunikatsiyalari va bojxona tizimi, umumiy ta'lim, maktabgacha tarbiya tarmoqlarida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirishni ko'zda tutadi

OTB tomondan berilayotgan moliyaviy yordamlarning sezilarli qismi energetika va transport sohalarini isloh etishni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda (5.6-jadval).

ko'rsatilgan xizmatlarning 1,43 foizini tashkil etmoqda.⁵⁶

Tahillat natijasida, mamlakatimizga ITB tomonidan ajratilayotgan mablag'larining asosiy manbasi ushbu bankning oddiy kapital resurslari hisoblanishi aniqlandi. Xususan, 2016-yil yakuni bo'yicha 506,3 mln. AQSh doll. miqdorida bank tomonidan loyihalarni moliyalashtirish uchun mablag' ajratish ma'kullangan bo'lsa, shundan bankning Oddiy kapital resurslari (Ordinary Capital Resources of IDB (OCR)) hisobidan 434,3 mln. AQSh doll., Xususiy sektorni rivojlantirish islom korporatsiyasi (Islamic Corporation for the Development of the Private Sector (ICD)) hisobidan 72,0 mln. AQSh doll. miqdorida mablag'larini berish belgilangan.⁵⁷

2018-yilda mamlakatimiz bilan ITB o'rtasida quyidagi loyixalar va texnik yordamlarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar imzolagan (5.8-jadval).

5.8-jadval

2018-yilda O'zbekiston va ITB o'rtasida tasdiqlangan loyihalar va texnik yordam operatsiyalari

№	Loyiha nomi	Moliyalashtirish shakli	qiyamati	ITB tomonidan moliyalashtirish hajmi	
				mln. AQSh dollari	mln. islom dinori dollari
1.	Onkologiya xizmatlarini rivojlantirish to'lash sharti bilan sotish (Instalment Sale)	Bo'lib bo'lib	71,55	25,51	37,04
2.	Xorazmdagi "Tashaka" irrigatsiya tizimidagi asosiy suv xo'jaligi kanallarini rekonstruksiyalash	"Istisna'a" jidda deklaratsiyasi	119,57	56,48	90,37
3.	O'zbekistondagi gidroenergetika stantsiyalarini	Lizing	184,00	67,00	100,00

⁵⁶ C IDB Group Approvals by Country and Entity, Share in (1396H-1436H) approvals (%), Islamic Development Bank, Annual Report: 1436H (2016); Sha'ban 1437H (June 2018), Jeddah, Kingdom of Saudi Arabia, xvii/85 p.
⁵⁷ C IDB Group Approvals by Country and Entity, Share in (1396H-1436H) approvals (%), Islamic Development Bank, Annual Report: 1436H (2016); Sha'ban 1437H (June 2018), Jeddah, Kingdom of Saudi Arabia, xvi/85 p.

teng 10 mingta shinam uy-joy barpo etilgan, bu ko'rsatkich 2014-yilgiga nisbatan 17

foizga o'sgan, ushbu maqsadlar uchun qariyb 650 mln. AQSh dollari miqdoridagi sarmoya yo'naltirilgan, shundan 106 mln. dollarini OTBning kredit mablag'larini

tashkil etgani fikrimizning yorqin dalilidir.

O'zbekistonning ITB bilan hamkorligi. O'zbekiston Islom Taragqiyot bankiga 2003-yil 3-sentyabrda a'zo bo'lib kirgan. Ushbu bank tomonidan mamlakatimizda

qator loyihalarni moliyalashtirish amalga oshirildi, jumladan, mintaqaviy tez tibbiy yordam markazlarini zarur jihozlar bilan ta'minlash, elektr energiyasi uzatish tarmoqlarini qurish, kichik va xususiy biznes uchun moliyalashtirish liniyalari, kollejar va umumta'lim maktablarini qurish va jihozlash, davlat moliyasini boshqarish islohotlarini o'tkazishga ko'maklashish va boshqalar.

Ushbu bank tomonidan 2007-2018-yillar mobaynida umumiy qiymati 1,2 mlrd.

dollariga teng 32 ta loyihani moliyalashtirgan, 1,1 mln. AQSh dollariga teng 5 ta texnik yordam ko'rsatgan, 158,1 mln AQSh dollariga teng 8 ta savdoni moliyalashtirish loyihasi qatnashgan, 1,9 mln. AQSh dollari miqdorida 7 maxsus yordam operatsiyalarini amalga oshirgan. Umuman olganda, bank tomonidan umumiy qiymati 1,4 mlrd. AQSh dollarlik 52 ta moliyaviy xizmatlar ko'rsatilgan (5.7-jadvalga qarang).

5.7-jadval

2007-2018 yillarda ITBning O'zbekiston bilan hamkorlik natijalari

Hamkorlik yo'natishlari	Xamkorlik loyihalari soni	Islom dinori, AQSh dollari
Loyihalarni moliyalashtirish	32	812,1
Texnik yordam	5	0,8
Savdoni moliyalashtirish	8	102,1
Maxsus yordam operatsiyalari	7	1,4
Jami	52	916,4
		1398,5

Manba: Cumulative IDB Group Operations by Major Modes of Financing (1398H - 1437H) (1 January 1976 - 3 November 2018), Islamic Development Bank, Annual Report: 1437H (2017); Sha'ban 1437H (June 2018), Jeddah, Kingdom of Saudi Arabia, xvii/85 p.

Shuningdek, 2007-2018-yillar mobaynida O'zbekistonga bank tomonidan jami

	modernizatsiyalash				
4.	O'zbekiston "UZINFONVEST" texnik yordam granti	0,42	0,20	0,30	

Manba: Cumulative IDB Group Operations by Major Modes of Financing (1398H - 1437H) (1 January 1976 - 3 November 2018). Islamic Development Bank, Annual Report: 1437H (2017); Sha ban 1437H (June 2018). Jeddah. Kingdom of Saudi Arabia. xvii/85 p.

O'zaro aloqalar muttasil rivojlanib borayotganini e'tirof etgan holda, hamkorlikni bundan ham kengaytirish imkoniyatlari mavjudligini ta'kidlash lozim. Birinchi navbada, ITB O'zbekiston uchun o'ta muhim bo'lgan iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish dasturlarini amalga oshirishda bizning asosiy hamkorimiz bo'lishi mumkin. Bu dasturlar eksport tarkibida yuqori texnologik, yuksak sifatli, raqobatchilik mahsulotlar ulushini oshirishni hisobga olgan holda boy tabiiy resurslarni, mineral, uglevodород va qishloq xo'jaligi xom-ashyolarini chuqur qayta ishlashga yo'naltirilgan. Ushbu dasturlardagi loyihalar, asosan, iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlari, jumladan, tog', kon, neft-gaz, kimyo va to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jilozlashga tegishlidir.

Shuni eslatib o'tish lozimki, mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi muhim o'ringa ega hisoblanib, qishloq xo'jalik mahsulotlarining 90% dan ortig'i sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladi. Shu bilan birga, mintaqamizda suv resurslari taqchilligi tobora ortib bormoqda. Shuning uchun ushbu sohaga suvni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, irrigatsiya tizimini yaxshilash, sho'rlangan yerlarning mehorativ holatini tubdan yaxshilash bo'yicha yirik hajmdagi ishlarni amalga oshirish zarur ishlaridan biridir. Bu jarayonda ITB bilan hamkorlik istiqbolli yo'nalishlardan bo'lishi mumkin.

ITB Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalarini kengaytirishda quyidagi to'rt yo'nalishga katta e'tibor bermog'da:

- institutsional salohiyat va tadbirkorlar raqobatchilikni oshirishni qo'llab-quvvatlash orqali savdo sohasini kengaytirish;

- kichik va o'rtacha biznes korxonalarini tashkil etish va moliyalashtirish yo'li bilan xususiy sektorni o'sishiga ko'maklashish;

- mintaqaviy darajada hukumatlararo avtomobil va temir yo'l tarmog'ini samarali va kompleks tashkil etishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlash orqali Markaziy Osiyo mamlakatlarga xos bo'lgan savdo to'siqlarini olib tashlash;

- sog'liqni saqlash, suv ta'mini va ta'lim kabi ijtimoiy sohalaridagi investitsiyalar hajmini oshirish.

5.5. Banklarning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

O'zbekiston va xalqaro moliya institutlari shunday asosni barpo qilish yo'lidan ancha foyda borib qoldilar. Strategik sheriklik har ikki tomonning bir-biri bilan uchrashishiga bo'lgan, xarakatini talab etadi va o'zaro munosabatlarning istiqbolli ramziy magsadi hisoblanadi.

Mamlakatimizning XMillari bilan o'zaro munosabatlarni rivojlantirish hamda xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish istiqbolda:

- yangi, eamonaaviy texnika va texnologiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb qilish, ularni ishlab chiqarishga joriy qilish esa nechta yillar davomida sifatiz, xaridor talabiga javob bera olmaydigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi eski texnikalardan tezroq qutlilish imkonini beradi;

- yangi ish joylari tashkil qilish va aholining ishsiz qismini ish bilan ta'minlash, shu bilan birga, xorijning ilg'or boshqaruv tajribasini joriy qilish imkonini beradi va shu orqali mehnat unumdorligi oshiriladi;

- jahon bozorida raqobatchilikni oshirish uchun mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksport qilish evariziga mamlakatga qadri baland valyutalarning ko'proq kirib kelishini ta'minlaydi.

Yuqori texnik saviyadagi tayyor mahsulotlar ulushi oshirilishi quyidagi jihatlarga bog'liq:

- xorijiy mamlakatlardagi korxonalar bilan O'zbekistondagi eksport qiluvchi korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarining shakllanishiga ko'maklashish;

qilayotgan tomonlarning ichki va tashqi siyosatini belgilovchi nazariy tamoyillarda yakdillikni ko'zda tutadi. Bu geosiyosiy yoki iqtisodiy tavsifdagi strategik manfaatlarni va yuqoridagilarda bir-birini tushuna bilishlik va ishonchni qo'shilib ketishdir.

Bunday sherklik yuqori darajadagi ishonchni umumiy manfaatlarni yordamida taqozo etadi.

Mazkur ishda ko'rib o'tilgan XMillar bilan hamkorlik, agar ekologiya sohasida faol yo'nalitilgan bo'lsagina istiqbolli bo'ladi. Bu borada iqtisodchilar, moliyachilar jamiyatini ta'lim va fan sohasidagi taraqqiyot uchun o'z kuch-g'ayratlarini birlashtirishlari va uyg'unlashishlari lozim. O'zbekistonda «Ekosan» xalqaro jamg'armasi tashkil etilgan. Davlat ekologik xavfsizligi borasida ko'p ishlar qilinmoqda, bir qator xalqaro tashkilotlar jumladan, XMillar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bu hamkorlik albatta rivoj topadi, chunki buni turmushning o'zi va farovon yashash taqozo etadi. Lekin, hali ko'p ish qilish, avvalo Orolni qutqarish lozimdir.

Umuman, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat qarzlari yuzaga kelishida davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosat juda muhim o'rinni egallaydi va bevosita tasir ko'rsatadi. Shuning uchun ham davlat qarzlarni boshqarishni to'g'ri yo'lga qo'yish, unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish eng muhim taraqqiyot omili bo'lib xizmat qiladi. Ushbu holat esa mamlakatning jahon hamjamiyatidagi nuqzini oshishiga, dunyo mamlakatlarining O'zbekistonga nisbatan ishonchini ortib boshishiga olib keladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Banklarning qaysi xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi?
2. Jahon mintaqalari rivojlanishida xalqaro moliya-kredit tashkilotlarining turgan o'rni va ahamiyati qanday?
3. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishda banklarning rolini aniqlab bering?
4. Banklarning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari qaysilar?

- yuqori texnologiya va ilim talab qiluvchi mahsulotlar ishlab chiqarilishi soha

- eksportning intellektual mulk obyektlari litsenziyalarini hamda nou-xau shaklida texnik-tijorat sirlarni sotish, injiniring va lizing sohalarida xizmatlar ko'rsatish kabi turlarni rivojlantirish yo'li bilan respublikamizda erishilgan ilmiy-texnik yutuqlarning jahon xo'jaligi aylanmasiga kiritib borishini tezlashtirish;

- ilmiy ishlanmalarga, xususdan, amaliy fan va texnologiyalar transferi sohasidagi ilmiy ishlanmalarga bozor yo'nalishini beruvchi shart-sharoit yaratuvchi imovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini ishlab chiqarish;

- imovatsiya jarayonini davlat tomonidan va tijorat usulida qo'llab-quvvatlashning eng maqbul uyg'unlashuvi asosiy yo'llarni belgilab olish hamda ilmiy-texnik ishlanmalarni tijorat ahamiyatiga mohik natijalar darajasigacha etkazish;

- o'zbek olimlari va mutaxassislarning chet eldagi yetakchi institutlar, tashkilotlar va firmalar bilan hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish;

Yuqori darajali marketing tadqiqotlari o'tkazish, tijorat va texnologiya

menjmenti sohasidagi yutuqlarni o'rganish, xorijiy bozorlarning konyunkturasini sig'imi hamda raqobatchilarning narx siyosati, kooperatsiya, o'z-o'z shima korxonalar tashkil etish bo'yicha hamkorlar qidirish yuzasidan tahliliy ma'lumotlarni o'rganish.

O'zbekistonning XMI bilan keng ko'lamda hamkorlik istiqbolli davlatlarni va O'zbekistonning ko'pgina mamlakatlarni o'zaro manfaatdorlikni, boy mineral va maqsaddagi aloqalarni, hamkorlikdagi o'zaro manfaatdorlikni, boy mineral va xomashyo resurslarini, yaxshi tabiiy-qilim sharoitlarini, yuqori ta'lim va ilmiy-texnikaviy salohiyatini, uning infrazuimmasi va axborot imkoniyatlarini jadal rivojlanishini hisobga olib bunga amin bo'lamiz.

O'zbekiston XMI lar umuman respublika mustaqilligi e'lon qilingan birinchi yildanoq hamkorlik qiladilar. Agar hamkorlik va sherklik, shuningdek strategik sherklik mohiyati ochib berilsa, unda mamlakatimiz qaysi yo'nalishdan borayotganligi ayon bo'ladi. Hamkorlik o'zaro manfaatlarni mos kelishini aks ettiruvchi ayrim masalalarda birgalikda harakat qilishdir. Sherklik esa hamkorlik

6-bob. BANKLARDA QIMMATLI QO'G'UZLAR OPERATSIVALARI

STATISTIKASI

6.1. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq aktiv va passiv

operatsiyalarini statistik o'rganish

Pul-kredit siyosati instrumentlaridan foydalanishda asosiy e'tibor bank tizimida ortiqcha likvidlikni shakllantiruvchi va inflyasion bosimning oshishiga olib kelishi mumkin bo'lgan omillararga qaratildi.

Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi pul bozorida foiz stavkalari boshqarish hamda iqtisodiy o'sish jarayonlarini rag'batlantirish maqsadlariga yo'naltirildi.

Umuman olganda, pul-kredit sohasida amalda oshirilgan ushbu tadbirlar pul massasining prognoz ko'rsatkichlaridan past bo'lishini ta'minlash va inflyasiya darajasiga monetar omillar ta'sirining oldini olish imkonini berdi.

Junladan, 2015 yil 1 yanvardan qayta moliyalash stavkasining 1 foizli bandga pasaytirilishi hamda iqtisodiyotdagi inflyasion kutilmalarning pasayib borishi kabi omillar ta'sirida 2015 yilda jami depozitlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi yil boshidagi 7,7 foizdan 6,7 foizgacha pasaydi.

O'z navbatida, depozitlar va banklararo pul bozorida foiz stavkalarining pasayishi tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratilayotgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining pasayishiga xizmat qildi. Xususan, 2015 yilda tijorat banklarining kreditlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi yillik hisobda 10,5 foizdan 9,5 foizgacha pasaydi.

2015- yilda valyuta siyosati milliy valyuta almashuv kursi keskin tebranishlari oldini olishga, inflyasion jarayonlarni jilovlashga hamda mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarining ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi.

Bunda valyuta bozorini samarali tartibga solish maqsadida valyuta kursining o'zgarib boruvchi boshqariladigan strategiyasini qo'llash orqali so'mning AQSH dollariga nisbatan kursini bosqichma-bosqich pasaytirish choralari ko'ridi.

Natijada 2015- yil davomida so'mning AQSH dollariga nisbatan ayiriboshlash

kursi 16 foizga pasayib, 2016- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, bir AQSH dollari 2810 so'mni tashkil qildi.

Mamlakatimiz tashqi savdo operatsiyalarining asosiy qismi AQSH dollarida amalg'a oshirilishini inobatga olib, so'mning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslarini belgilashda operatsion mo'tjal sifatida so'mning AQSH dollariga nisbatan almashuv kurslari ushbu valyutalarning tashqi valyuta bozorlaridagi AQSH dollariga nisbatan kurslari dinamikasi va ichki valyuta bozorida so'mning AQSH

dollariga nisbatan almashuv kursi ta'siri ostida shakllandi.

Mazkur davrda so'mning Buyuk Britaniya funt sterlingiga nisbatan almashuv kursi 11 foizga, evroga nisbatan 2,8 foizga, Xitoy yuaniga nisbatan 15,8 foizga, Yaponiya tenasiga nisbatan 17 foizga va Janubiy Koreya voniga nisbatan 8,7 foizga pasaydi.

Bundan tashqari, berilgan kursatkiichlar aksioner jamiyatlari aksionerlari inobatga olmagan xolda xisoblangan. Mavjud tendensiya respublika korxonalar tomonidan xorijiy sarmoyalarni jalb etish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozorida keng foydalanilayotganidan dalolat beradi.

2016- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, bank hisobvaraqalarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar soni 1 061 mingtani, shundan «Internet-banking» va «Bank-mijoz» dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar 81,5 mingtani, «Mobil-banking» va «SMS-banking» xizmatlaridan foydalanuvchilar 979,5 mingtani tashkil etib, ularning soni 2014- yilga nisbatan qariyb 2 barobarga ko'paydi.

Bank plastik kartalari muomalasini kengaytirish va takomillashtirish bo'yicha amalg'a oshirilgan chora-tadbirlar natijasida so'nggi 5 yil davomida muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni 2 barobardan ziyodga oshdi va 2016 yil 1 yanvar holatiga ularning umumiy soni 16,3 mln. donadan ortiqni tashkil etdi (2.2.4- diagramma).

2015- yilda bank ustav kapitalini oshirish maqsadida aksiyadorlik-tijorat banklari tomondan jami 553,6 mlrd. so'mlik aksiyalar investorlar o'rtasida joylashtirildi va ularning 319,6 mlrd. so'mlik qismi nodavlat sektori hissasiga to'g'ri keldi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlariga asosan «O'zsanootqurilishbank» tomondan 157 mlrd. so'mlik, Xalq banki tomondan 54 mlrd. so'mlik aksiyalar chiqarilib, investorlar orasida joylashtirildi. Shuningdek, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining ustav kapitali – 35 mlrd. so'mga, «Agrobank»niki – 50 mlrd. so'mga, «Mikrokreditbank»niki – 25 mlrd. so'mga va «Qishloq qurilish bank»niki – 25 mlrd. so'mga oshirildi.

Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan maqsadli chora-tadbirlar natijasida bank tizimining umumiy kapitali so'nggi 5 yil davomida 2,4 martaba o'sdi.

Aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning banklardagi depozitlari hajmining o'sishini rag'batlantirishga qaratilgan keng ko'lami ishlar, jumladan, doimiy ravishda jozibador omonat turlarini taklif qilish, o'zoq muddatli bank depozit sertifikatlarini va obligatsiyalarini muomalaga chiqarish hamda bu borada joriy etilgan imtiyozlar va qulay shart-sharoitlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish o'zining ijobiy natijalarini bermogda.

2016- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, tijorat banklari tomondan muomalaga chiqarilgan va joylashtirilgan depozit va jamg'arma sertifikatlari 703,4 mlrd. so'mmi hamda obligatsiyalar 247,8 mlrd. so'mmi tashkil qildi.

Umuman olganda, amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida jalb qilingan depozitlarning umumiy hajmi 2016- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, 35,6 trln. so'mmi tashkil etib, 2015- yil boshiga nisbatan 28,0 foizga oshdi.

Qimmatli qog'ozlarga egalik xuquqini soddalashtirish maqsadida, Markaziy depozitariy bazasida ayni vaktida, markaziy ruyxatlovchini rivojlantirish takliflari kurlimokda. SHuningdek aloxida faoliyat turlarini birlashtirib olib borishga oid cheklovlar bekor qilinmokka, bu investorlariga fond bozorida «bir oyna orkali» tamoyili asosida xizmat qilishga yordam beradi.

Natijada barcha kursatilgan chora-tadbirlar fond bozori faoliyati tizimini tuldirtish va rivojlantirishga yunaltilgan, bu esa xujalik subyektlarning fond bozori ortkali investitsiya jalb etishlarini engillashtiradi.

6.2. Tijorat banklarining fond bozorida bank operatsiyalari

O'zbekistondagi barqaror iqtisodiy holat davlat qimmatli qog'ozlar bozori rivojlantirish dinamikasi bilan o'zviy bog'liq. SHuningdek, Moliya vazirligi, Markaziy bank va O'zbekiston Respublikasi valyuta birlasi kabi tartibga soluvchi organlarda rejalashtirilgan ishlarning natijalardir.

O'zbekistan Moliya vazirligi qulay makroiqtisodiy vaziyat va bank likvidligining yuqori darajasi sharoitlarida KMDO-UMDGM bozor portfelining kuzariladi. Emitent bozor dyuratsiyasini (muomaladagi mikkdorlar buyicha ulchangan davlat qimmatli qog'ozlarni koplashgacha bulgan urtacha muddat) o'rttirishda davom etdi, KMDO ni muomalaga chikartishni tuxtatib turdi, muomalada bulgan UMDGM xajmini yutkilashtirdi. Davlat qimmatli qog'ozlar egri daromadliliгинing tahlili kursatishicha, davlat qimmatli qog'ozlar bozorida kiska muddatli va urta muddatli vositalar buyicha daromadlilik darajasining kamayishi ruy bergan, bu esa barkaror rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitlariga xosdir. Daromadlilikni kamayishiga niflyasyya darajasining yil davomida sekmlashtishi ijoby ta sir etdi.

Tijorat banklarning kapitali va depozit mablag'larining yuqori sur'atlarda o'sishi, o'z navbatida, ularning iqtisodiyot real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi rolining yanada kengayishiga, aktivlar va kredit qo'yimalari hajmining sezilarli darajada ko'payishiga ijoby ta sir ko'rsatdi.

Banklarning investitsiya jarayonlardagi ishtiroki yanada faollashib bormogda. Banklar tomondan ajratilayotgan investitsion kreditlar ustvor ravishda iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy intrato'zilmami shakllantirish va rivojlantirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish hamda yangi ish o'rinlari tashkil etishga qaratilgan dasturlar doirasidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda.

Ko'rsatkichlarni hisoblash ayirish yoki bo'lish usulida amalga oshiriladi.

Natijada quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'linadi:

1) mutloq qo'shimcha o'sish (yoki kamayish);

2) o'sish (yoki kamayish) koeffitsient yoki sur'ati;

3) qo'shimcha o'sish (yoki kamayish) koeffitsienti yoki sur'ati (foizda);

4) 1% qo'shimcha o'sishning (yoki kamayishning) mutloq qiymati.

Bu ko'rsatkichlar ikkita davr darajasini taqqoslash natijasida olinadi. Odatda

taqqoslovchi daraja sifatida qatorning birlinchi darajasi yoki oldingi yil darajasi qabul

qilib olinadi. Agar har bir daraja o'zidan oldingi daraja bilan taqqoslanasa (masalan,

taqqoslash yilma-yil bo'lsa), u holda olingan ko'rsatkich *zanjirsimon*, agar hamma

daraja faqat doimiy bitta (masalan, boshlang'ich) davr darajasi bilan taqqoslanasa, u

holda olingan ko'rsatkich o'zgarmas asosli (*zamiy*) ko'rsatkich bo'ladi. Yuqorida

qayd qilingan ko'rsatkichlarni batartil ko'rib chiqamiz.

1. Mutloq qo'shimcha o'sish yoki kamayish

darajasidan boshlang'ich yoki o'zidan oldingi davr darajasini ayirish yo'li bilan

aniqlanadi.

$\Delta_{zamm.} p u_t - u_0$ (bazisli usul)

yoki

$\Delta_{zanj.} p u_t - u_{t-1}$ (zanjirsimon usul)

Bu erda:

Δ - mutloq qo'shimcha o'sish yoki kamayish,

$u_t - u_{t-1}$ - joriy, taqqoslanuvchi davr darajasi,

u_0 - bazis, taqqoslanadigan davr darajasi,

u_{t-1} - oldingi davr darajasi.

Bu ko'rsatkich taqqoslanuvchi davr darajasi taqqoslanadigan davr darajasiga

nisbatan gancha birlikka katta (kichik) ekanligini ko'rsatadi. Mutloq o'zgarish

ko'rsatkichi tahlil jihatidan kamchiliklardan holi emas, chunki u hodisa

o'zgarishidiga intensivlikni yaqqol ifodalamaydi. SHuning uchun ham dinamika

qatorlarini tahlil qilayotganda ular nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash bilan to'ldiriladi.

2. O'sish yoki kamayish koeffitsienti yoki sur'ati ($K_{o.k.}$) - har qaysi keyingi

davr darajasi boshlang'ich yoki o'zidan oldingi davr darajasiga nisbatan gancha

martaba yoki foizga katta yoki kichik ekanligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichni

hisoblash uchun har qaysi keyingi davr darajasini boshlang'ich yoki o'zidan oldingi

davr darajasiga bo'lish, sur'atda esa yana yuzga ko'paytirish kerak.

$$K_{zamm.} = \frac{Y_t}{Y_0} \cdot 100 \quad \text{ёки} \quad T_{zamm.} = \frac{Y_t}{Y_0} \cdot 100 \quad (\text{базисли усул}),$$

$$K_{zanj.} = \frac{Y_t}{Y_{t-1}} \cdot 100 \quad \text{ёки} \quad T_{zanj.} = \frac{Y_t}{Y_{t-1}} \cdot 100 \quad (\text{занжирсимон усул}).$$

Joriy davr darajasini bazis davr darajasi bilan taqqoslashdan olingan natija 1

dan katta bo'lsa, u joriy davr darajasi bazis davr darajasiga nisbatan necha marta

ko'p ekanligini, sur'atda esa necha foiz tashkil etishini anglatadi. Agar kichik bo'lsa,

u holda joriy davr darajasi bazis davr darajasining gancha qismini (yoki foizini)

tashkil qilishini ko'rsatadi. O'sish yoki kamayish sur'ati necha protsentga ko'p yoki

oz ekanligini aniqlash uchun qo'shimcha o'sish yoki kamayish sur'ati aniqlanadi.

3. qo'shimcha o'sish (kamayish) sur'ati (T) ham ikki usulda aniqlanishi

mumkin. Birlinchi usulda har bir keyingi davr darajasidan boshlang'ich davr darajasi

ayirilib, 100 ga ko'paytiriladi va boshlang'ich davr darajasiga bo'linadi:

$$\Delta_{T_{zamm.}} = \frac{Y_t - Y_0}{Y_0} \cdot 100 \quad \text{ёки} \quad \Delta_{T_{zamm.}} = \frac{Y_t}{Y_0} \cdot 100 - 100 \quad (\text{базисли усул}),$$

Ikkinchi usulda har bir keyingi davr darajasidan oldingi davr darajasi ayirilib,

100 ga ko'paytiriladi va o'zidan oldingi yil darajasiga bo'linadi:

$$\Delta_{T_{zanj.}} = \frac{Y_t - Y_{t-1}}{Y_{t-1}} \cdot 100 \quad \text{ёки} \quad \Delta_{T_{zanj.}} = \frac{Y_t}{Y_{t-1}} \cdot 100 - 100 \quad (\text{занжирсимон усул}).$$

Agar o'sish yoki kamayish sur'atlari hisoblangan bo'lsa, u holda qo'shimcha o'sish

(kamayish) sur'atini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\Delta_{T_{zamm.}} = T - 100.$$

Zanjirsimon qo'shimcha o'sish (kamayish) sur'ati ayrim hollarda o'zgarimas

yoki muttasil pasayib borish tendensiyasiga ega bo'lishi mumkin. Ammo bundan

qo'shimcha o'sish so'ni bormoqda degan xulosaga kelib chiqmaydi. Buni isbotlash

maqсадida 1% qo'shimcha o'sish (kamayish)ning mutloq qiymati degan ko'rsatkich hisoblanadi. Buning uchun mutloq qo'shimcha o'sish qiymati zanjirsimon

qo'shimcha o'sish sur'atiga bo'linadi:

$$I \% \text{ qiymati} = \Delta_{zamm} / \Delta_{zanj} = U_{t-1} / 100$$

Qayd qilingan ko'rsatkichlarni hisoblash tartibini O'zbekistonda ishlab

chiqarilgan elekt energiya mahmullari misolida ko'rib chiqamiz (6.1-jadval).

6.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi to'lov terminallari orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi dinamikasi

Yillar	To'lov terminallari orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi, mlrd.so'm	Absolyut ko'shimcha o'sish, ming kishi	O'sish sur'ati, %			Qo'shimcha o'sish sur'ati		
			bazisli	zanjirli	bazisli	zanjirli	bazisli	zanjirli
2011	10315	-	-	-	-	-	-	-
2012	11558	1243	12,1	12,1	12,1	12,1	12,1	12,1
2013	16308	5993	4750	158,1	141,1	58,1	41,1	41,1
2014	22759	12444	6451	220,6	139,6	120,6	39,6	39,6
2015	31324	21009	8565	303,7	137,6	203,7	37,6	37,6

Manba: 2015 yilda Pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2016 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari mahmullari asosida tuzildi.

Davlat qiymatli qog'ozlari birlamchi bozorning xajmi bu bozorda joylashtirilgan umumiy mablag'lar xajmidan dalolat beradi. Davlat manfaatlari nuqtai

nazaridan, u davlat byudjetga defitsitga va xukumatning karzdorlik majburiyatlariga bog'liq. Jaxon amaliyotiga einoan, davlat ichki karzlari umumiy xajmida kiska

muddatli majburiyatlarining ulushi 20-25%dan oshmaydi. Karzning asosiy kismi

(80%) qisqa va o'rta muddatli majburiyatlar yordamida yopiladi.

Yaqin yillarda DKKga investitsiya qilinadigan katta hajmdagi pensiya jamg'armalarini xisobga olingan holda, bu mablag'larning faqat bozorda amal

ygilishi va bozor likvidligi darajasi pasayishi kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Umunan, DKKlar umumiy emissiya xajmi, kiyimati, aylanish muddati va joylashtirishiga yunaltilgan davlat siyosati kuyidagilardan iborat

- taklif qilinayotgan UMDGMning asosiy kismi Pensiya Fondi va davlat

boshkaruvdagi kompaniyalar mablag'larini sarmoyalash maksadida joylashtiriladi;

- Davlat jamg'arma obliqatsiyalarining asosiy kismi UMDGMni sotib olish

xuquqiga ega boshqa bozor ishtirokchilariga taklif qilish rejalashtirilmokda (masalan,

sugurta kompaniyalariga);

- Moliya Vazirligining foiz siyosati pul va valyuta bozoridaagi larot bilan

belgilanadi;

- DKK milliy bozorini yanada rivojlantirish ko'zda tutilmokda;

Moliya Vazirligi bir vaqtning o'zida bir necha O'MDG, M bozor segmentlarini

rivojlantirish exityojaridan kelib chikadi -546, 728 i 092 kun aylanish davriga ega

qiymatli qog'ozlar mavjud. Ichki karz olish sohasida konservativ siyosati olib

borish DKK daromadlilik kursatkichlarini mavjud darajada ushlab turtishga yordam

beradi. Dastaklar buyicha arzimlas usish bozorga alokasi bulmagan tashki omillar

ta'siri natijasida ruy berishi mumkin: summing boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan

o'zgarishi, valyuta jamg'armalari xajmining o'zgarishi, xorijiy fond bozorlarida foiz

stavkasining o'sishi va xokazo.

6.3. Tijorat banklarining qiymatli qog'ozlar bilan bog'liq

operatsiyalarini rivojlantirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari

O'zbekistonda qiymatli qog'ozlar bozorini shakllantirish va uni rivojlantirish

yuzasidan kiska vakt ichida, birtinchi galda gomoniy asoslarni yaratishda katta

yuuklarga erishildi. Bunga dalolat sifatida shu kungacha kabul qilingan karorlar,

prezident farmonlari, Davlat mulki kumitasi xo'zuridagi Qiymatli qog'ozlar bozori

faoliyatini muvojlaklashtirish va nazorat qilish markazi, respublika Moliya vazirligi va

Markaziy bankning 90 ga yakin turli xil me'yoriy xujjatlari kabul qilinganligini

keltirish mumkin. Shu tarika barpo etilgan me'yoriy poydevor emittentlar,

sarmoyadorlar, investitsiya muassasalari, fond birjasi kabi bozor subyektlarining vujudga kelishini, ularning mikkor va sifat jihatdan rivojlanishini ta'minlash imkonini berdi.

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishining asoslangan tamoyili mavjud. Respublikada qimmatli qog'ozlar bozorining nazariyasi, qimmatli qog'ozlar bozorlari rivojlanishining halqaro tajribasini inobatga olgan xujalik yurishning yuzaga kelgan ichki amaliyoti asosida shakllanmokeda. Bunda Jakon banki, Halqaro moliya korporatsiyasi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, "Urtizlik gurusx" (o'zlarining qimmatli qog'ozlar bozorlarini tashkil etishni boshlayotgan barcha mamlakatlarga yagona bulgan yondashuvlar va koidalarni tavsifa etgan halqaro tashkilot) kabi turli yirik halqaro tashkilotlarning tavsifalari inobatga olinadi, Mazkur tavsifalarning bajarilishi O'zbekistonga rivojlangan mamlakatar o'zlarining qimmatli qog'ozlar bozorlari tizimini yaratishda yul kuygan xatolarinirakorlamaslik imkonini beradi. Ushbu tamoyilning boskichma-boskich va izchil xdyotga tabik etilishi sezilarli iatijalarga erishish imkonini berdi.

Omonatchilar va kreditdolar manfaatlarini himoya qilish, respublika bank tizimi ikvidligi va uning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida Markaziy bank tomonidan banklarning mohiyaviy holati ustidan tizimli nazorat amalga oshirib borildi. Tijorat banklari va ularning muassasalari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida kapital etarligi, ikvidlilik, aktivlar sifati va diversifikatsiyasi hamda bank Boshqaruv organlarining faoliyati muntazam ravishda tahlil qilib kelimmogda.

Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi etarli zaxiralarning to'liq shakllantirishini ta'minlash maqsadida banklar aktivlarining holati qat'iy nazoratga olingan.

Bank operatsiyalarini amalga oshirishda operatsion va bozor tavakkalchiliklarini baholash bo'yicha har bir bankda bevosita bank Kengashiga bo'yusnuvchi Tavakkalchiliklarni nazorat qilish qo'mitalari tashkil etilib, ularning faoliyati doimiy monitoring qillimmogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-mayda qabul qilingan «Tijorat banklarning mohiyaviy barqarorligini yanada oshirish va resurs bazasini shakllantirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-2344-sonli Qarori talablariga muvofiq, banklarning mohiyaviy barqarorligini mustahkamlash, kapital etarligi, ikvidlilik bo'yicha talablarni kuchaytirishni, Bazel III tavsifalarini bosqichma-bosqich joriy etishni ko'zda tutuvchi Markaziy bankning bir qator me'yoriy hujjatlari yangi tahrirda qayta ishlab chiqildi, 1 ta nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Jumladan, ushbu hujjatlarda:
– regulyativ kapital etarlik darajasining eng kam miqdorini bosqichma-bosqich 10 foizdan 14,5 foizga etkazish, I darajali kapital etarlik darajasining eng kam miqdorini bosqichma-bosqich 5 foizdan 11 foizga oshirishni ko'zda tutuvchi me'yoriy belgilandi;
– aktivlar sifati ta'minlash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zahiralarni shakllantirish mexanizmi takomillashtirildi, investitsiya portfelining sifati ta'minlash tartibi joriy etildi;

– banka aloqador bo'lgan shaxslar bilan bitimlarga qo'yiladigan talablar kuchaytirildi, banka aloqador bo'lgan shaxslar tartibi va banka aloqador bo'lgan bitta shaxsga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi aniqlashirildi;
– banklarning ikvidlilikni boshqarishga talablar kuchaytirilib, ikvidlilikni qoplash va sof barqaror mohiyalashirishning yangi me'yoriy o'rnatildi.

Bunda 2016 yil uchun iqtisodiy dasturning muhim vazifalari va istiqbolli rivojlanirishning asosiy yo'nalishlari sifati qayidagi belgilab berildi:

– boshlangan tizimli demokratik islohotlarni va mamlakatni modernizatsiyalashni, iqtisodiyotdagi, eng avvalo, sanoat va qishloq xo'jaligidagi, chuqur tarkibiy o'zgartirishlarni so'zsiz davom ettirish, xususiy mulkchilik, tadbirkorlik va kichik biznesni jadal rivojlanirish va ularning manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiyotda davlat ulushini izchil kamaytirish, makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash;

– 2015 – 2019 yillarda muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish dasturining asosiy tadbirlarini sozlash amalga oshirish bo'yicha boshlangan ishlarni davom ettirish;

– qishloq xo'jaligida islohotlarni va tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish, er va suv resurslaridan samarali foydalanish;

– ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirish;

– iqtisodiyotning raqobatsizligini tubdan oshirish, eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, eksportda fermer xo'jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ishtirokini har tomonlama rag'batlantirish;

– iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, «Elektron hukumat» tizimi yaratilishini tubdan tezlashtirish.

2016- yilda respublikamizda yalpi ichki mahsulotning 7,8 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda. Ushbu o'sish asosan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining 8,2 foizga, qishloq xo'jaligining 6,1 foizga va kapital qo'yimlarni hajmining 9,6 foizga o'sishi hisobiga ta'minlanadi.

Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotiga yo'naltiriladigan jamii investitsiyalar miqdori 17,3 mlrd. AQSH dollarini tashkil etishi yoki 2015-yilga nisbatan 9,3 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda.

Bunda avvalgi yillardagidek, investitsiyalar asosiy qismining (65 foizdan ortig'ini) ishlab chiqarishni rivojlantirishga, ya'ni yangi ishlab chiqarish korxonalarini qurish va yangi zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini xarid qilishga yo'naltirishni mo'ljallanmoqda.

Eksportni rag'batlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning izchil davom ettirilishi hisobiga 2016- yilda ham mamlakatimiz to'lov balansini, tashqi savdo balansini ijobiy saldosini saqlab qolish mo'ljallanmoqda.

2016- yilda ham Hukumat tomonidan bandlikni ta'minlash va aholi daromadlarini oshirish masalalariga alohida e'tibor berilishi aholidning iste'mol, shu

jumladan, o'zoq muddatli tovar va xizmatlarga bo'lgan talabning o'sishida o'z aksini topadi hamda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, bank tizimida likvidlik tanqisligi vujudga kelishining oldini olish va aksincha, tizimdagi ortiqcha likvidlikning iqtisodiyotda inlyasion bosimning kuchayishiga olib kelishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bank tizimni likvidligining eng maqbul darajada bo'lishini ta'minlash bo'yicha zarur choralar ko'rib boriladi.

Amaldagi loyiha ishlarini bajarish qoidalari o'tgan asrning 60-70-yillarida ishlab chiqilgan bo'lib, zamonaviy talablarga mutlaqo javob bermaydi. SHu paytgacha xorijiy konsultantlarni jalb etgan holda birorta ham yangi loyiha instituti yaratilmagan. Huddalarda bugungi talablarga javob beradigan loyihalashtirish tashkilotlari yo'q.

Ilgari qarz, kredit va grant mablag'larini jalb qilish va ulardan foydalanish borasidagi ishlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xalqaro moliya institutlari, tashkilotlari va donor mamlakatlarni bilan hamkorlik qilish, yirik va

• texnologiya va asbob-uskunalarning eskirganligi, ishlab chiqarilgan mahsulotning standartlarga javob bermasligi va raqobatcharadosh emasligi – texnologik asbob-uskunalarini zamonaviylashtirish maqsadida xalqaro ko'rgazma-savdolarida ishtirok etish, tejankor texnologiyalarni tanlash va moliyalashtirish manbalari ni aniqlash;

7.3. Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish yo'llari

• korxonalarda marketing xizmatining to'g'ri tashkil qilinmaganligi, tovar ishlab chiqaruvchilarning chet el bozorlari, ishlab chiqaruvchilari va xaridorlarni to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlanmaganligi, korxonalarda marketing bilan shug'ullanuvchi xodimlar bilimining past darajadaliigi - o'rta va kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish va eksport salohiyati, marketing va mahsulotlarni sotishga bag'ishlangan o'quv mashg'ulotlari, seminarlar va ko'rgazmalarni tashkil etishni yo'lga qo'yish lozim.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalarni, shu jumladan, to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish mamlakat hukumati iqtisodiy siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 28 yili mobaynida besh mingdan ortiq yangi investitsion loyihalarni amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 18- dekabrda "O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirishning yangi tartibini joriy etish to'g'risida"gi qarori qabul qilinib unga muvofiq, mamlakatimizda tarmoq va hududiy loyihalarni amalga oshirish bo'yicha mutlaqo yangi tizim yo'lga qo'yilmoqda.

Davlat rahbari bu boradagi ishlarni uch bosqichda amalga oshirish zarurligini ta'kidladi.

Birinchi bosqichda rivojlanish Konsepsiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash kerak. Ushbu Konsepsiya tarmoq, hududiy va maqsadli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha strategik vazifalarni o'z ichiga olgan hujjat bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Iqtisodiyot rivojlanishida investitsiyalarni o'rni?
2. Investitsiyalarni kompleks ekspertiza qilish usullarini sanab bering?
3. Iqtisodiyotga jalb etilgan investitsiyalarning statistik tahlilni qanday amalga oshiriladi?

8-bob. INVESTITSIYA LOYIHALARINI STATISTIK O'RGANISH

8.1. Investitsiya loyihalarni moliyaviy ta'minlashni tahlil qilish va boshqarish


Ishlab chiqilgan har qanday investitsion loyihadagi pul mablag'lari oqimi kelgusi davrga tegishli va isiqbolli xarakterga ega. SHunga aniq ishonch hosil qilish mumkin, ya'ni ko'zlangan daromadlarga ega bo'la olinmaslik mumkin. SHuning uchun tahlil ishlarining eng muhim qismi uning oqibatini hisobga olish, investitsion loyihalarni ekspertizasi jarayonida asosiy vosita sifatida risklarni tahlil qilish hisoblanadi.

Bugungi kunda investitsion loyihalashtirish amaliyotida loyihaviy risklarni tahlil qilish tushunchalari endigina yuzaga keldi, biroq avval to'plangan xalqaro tajribani hisobga olganda risklarni tahlil qilish har qanday investitsion loyihalarni biznes-hisobga ajralmas qismi bo'lib qoldi. SHuni alohida ta'kidlash joizki, investitsion loyihalarni ekspertizasida loyihaga bo'yicha barcha ma'lumotlardan foydalaniladi, ma'lumotlarning to'g'rihigi chuqur o'rganiladi, kutilishi mumkin bo'lgan salbiy holatlar va uning oqibatlarini baholanaadi. Bundan tashqari, risklarni tahlil qilish loyihalarni ekspertizasidan uni amalga oshirishni boshqarish jarayoniga o'tishda "ko'priklarni" vazifasini o'taydi.

Umuman olganda, risk – bu yo'qotish ehtimolidir. Loyihaga riski loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirishdagi xavf-xatar darajasini anglatadi. Hozirgi kunda amaliyotda loyihaga risklarni tahlil qilishga imkon beruvchi turli yondashuvlar va usullar qo'llanilmoqda.

Investitsion loyihalarni amalga oshirishning maqsadga muvofiqlik masalasini hal etishda risk tahlilini asosiy o'rinni egallab, bu asosida loyihaga yuzasidan mumkin bo'lgan barcha yo'qotishlar o'rganilib, ularning oldini olish yoki tegishli vaziyatlarda ularni beqaror hal etish yoki pasaytirish choralarini ishlab chiqiladi. Riskdan keladigan yo'qotishlarni kamaytirish yoki barham topirish va ular bilan bog'liq salbiy oqibatlarni kamaytirish usullarini taklif etish uchun, eng avvalo, risklarning yuzadga kelishiga imkon beruvchi omillarni aniqlash, ularning ahamiyatini baholash, ya'ni "risk tahlilini" deb nomlanuvchi ishni bajarish lozim bo'ladi.

Risklarni boshqarish - bu risk va foyda miqdorini oqilona qo'shilmagini aniqlashga qaratilgan xarakterlardir. Risklarni boshqarishning asosiy maqsadi - ularni pasaytirish hisoblanadi.



8.1-rasm. Riskni boshqarish jarayoni.

Risklarni boshqarish quyidagi asosiy bosqichlarga bo'linadi:

1. Risk omilini aniqlash;
2. Risk omilini tahlil qilish va baholash;
3. Risklarni pasaytirish bo'yicha ishlarini rejalashtirish yoki risk oqibatlarini bartaraf etish;
4. Risklarni oldini olish va nazorat qilish;
5. Risklarni boshqarish usullarini tanlash va qo'llash;

Risk tahlilining maqsadi investorga investitsiya loyihasini amalga oshirishda tahlilni loyiha barcha ishtirokchilari mustaqil tarzda olib borishlari maqsadga muvofiqdir.

Risk tahlili investitsion loyiha barcha ishtirokchilari, buyurtmachi, pudratchi, bank, sug'urta kompaniyalari, izing kompaniyalari, mol yetkazib beruvchilar tomonidan olib borilishi lozim. U, odatda, bir-birini to'ldiruvchi ikki turga:

- risklarning turlari, omillari va doirasini aniqlash maqsadini ko'zlovchi sifat tahlili;
- alohida risklar kabi loyihalarning ham hajmini hisoblash imkonini beruvchi miqdoriy tahlil.

Risklarni baholash risklarni pasaytirish usullarini qo'llashdan iboratdir. Risklarni baholash deganda risk darajasini sifat va miqdor jihatdan aniqlash tushuniladi. Risklarni pasaytirish usullari turlicha bo'lib, ular risk turiga va risk guruxiga qarab tanlanadi. Birinchi bosqichda risklar tahlil loyiha tashabbuskorlarga investitsiya kiritish yoki kiritmaslik haqida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash ma'lumot beradi.

Umuman investitsiya riskini boshqarish riskni yuzaga kelish ehtimolini xomcho't qilish, risk turlayli yuzaga keladigan noxush holatlarga yo'l qo'ymaslik yoki ularning ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Riskni boshqarish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi (2.2.1-rasm). Investitsiyalash jarayoni har doim kapital qo'yishning qulay variantini tanlash bilan bog'liqdir. Bunda yo'qotish ehtimolini hisobga olish muhimdir. U yoki bu variantni tanlash hali investor aniq natijaga erishadi degani emas. Har qanday variantda ham investor ma'lum darajada riskga boradi.

6. Risk vaziyatlari va ularni oqibati xaqida ma'lumot to'plash va kelajakka

tavsiyalar tuzish.

Risk omilini aniqlash deganda risk sababini, ya'ni loyihaga ta'sir qila oladigan

vogea yoki vaziyatlarni aniqlash tushiniladi.

Riskni boshqarishdan maqsad eng avvalo riskning oldini olishdir.

Qaror qabul qilayotgan shaxs yuz berishi mumkin bo'lgan noxush voqealarning

oqibatini yaqqol tasavvur etishi kerak. Bu uning keyingi xarakatlarini belgilab beradi.

Bank boshqaruvchi xodimlari o'z ishlarida amal qilish uchun xatarni oldini olish taktika

va strategiyasini ishlab chiqishi kerak.

Risklarni boshqarishdagi asosiy vazifa – amaldagi bozor kon'yunkturasiga mos

darajada risklarni minimallashirish, kreditlash xizmatlari bozorida bank pozitsiyasini

minimum saqlab qolishdir. *Riskni boshqarishdagi asosiy yo'llar quyidagilar:*

risklarni ajratish; risklarni loyihaga ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash; moddiy

ta'minotni olish (garov); moliyaviy ta'minotni olish (kafolat yoki kafillik); risklarni

kredit bo'yicha yuqori foiz stavkasiga ko'chirish; risklarni venchur kreditlashga qabul

qilish; qarzarlar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash uchun fondlarni shakllantirish va

boshq. Bular riskni boshqarish bo'yicha quyidagi ish yo'nalishlarini talab qiladi: har

bir mijoz bo'yicha doimiy monitoring olib borish; ma'lum bir mifozning asosiy

xo'jalik faoliyatiga aloqador tarmoq holatining doimiy monitoringini yuritish;

kafolatni jalb qilish va tahlil etish; risk uchun kompensatsiya olish (garov, kafolat va

boshqalarni amalga oshirish).

Riskni boshqarish choralari va usullarini tanlash juda muhim bosqich

hisoblanadi. Aniq tanlangan usul doirasida aniq chora-tadbirlarni qo'llash mumkin.

Bu bosqich loyihani amalga oshirishni boshlash haqidagi qarorni qabul qilishdan

avval o'tkazilishi kerak. Tanlashda kechikish loyihaga ishtirokchisi uchun jiddiy salbiy

oqibatlarni keltirib chiqarishi yoki ishtirokchilar o'rtasida jiddiy kelishmovchiliklar

kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Riskni boshqarishda chora va usullarni

optimal variantini tanlash barcha loyihaga ishtirokchilari o'rtasida jiddiy muzokaralar

bo'lishini talab qiladi.

Riskni oldini olish va nazorat qilish bosqichida ma'lum reja va dasturlar asosida

aniq tashkiliy-texnik tadbirlar ko'rib chikiladi. Bu bosqichda quyidagi tadbirlar

amalg'a oshiriladi: risklar monitoringa; riskni istiqbolini belgilash; taxdid soluvchi

xatarlar haqida rahbarlarga ma'lumot berish va bu bilan bog'liq ko'rsatmalarni ishlab

chiqish; riskni oldini olish va nazorat qilish dasturi doirasida maxsus tashkiliy-texnik

tadbirlar.

Ta'kidlash jo'zki, shunday risklar mavjud bo'ladiki, ularni oldini olish yoki

kamaytirish mumkin emas, ya'ni ular loyihaga ishtirokchilari ta'sirdan tashqari

bo'ladi. Bunday risklar ko'p xarajat talab qilganligi sababli, ularni moliyalash usuli

qo'llaniladi. Bunda loyihaga ishtirokchilarni o'z-o'zini sug'urtalash, fajnabali

sug'urtachi yordamida sug'urtalashga mablag' ajratishi tushuniladi. Sug'urta

shartnomalarida riskning ko'pgina turlari bo'yicha sug'urtachining zaruriy chora-

tadbirlarni amalga oshirishi ko'rib o'tilgan moddalar mavjud bo'ladi. Riskni

boshqarishda loyihaga ishtirokchilardan tashqari sug'urta tashkilotlari ham bevosita

ishtirok etadi. Ular riskni baholashda o'z usullari va yullarini amalga oshiradilar, bu

amalg'a oshirish reja - dasturlarini nazorat qilib boradilar.

Natijalarni baholash - bu ma'lum bir loyihaga doirasidagi risk-menejmenti

bo'yicha faoliyatlarning yig'indisi. U keng ma'lumotlar to'plami asosida o'tkaziladi

va risk tahliliga tuzatishlar kiritish, risk-menejmentning alohida choralarni qo'llash,

samaradorligini baholash, riskni boshqarishda barcha qilingan xarajatlarni baholash

maqsadida o'tkaziladi. Natijalarni baholash orqali olingan ko'rsatma va xulosalar

keyingi loyihalarni amalga oshirishda qo'llaniladi.

Investitsiya loyihasi riskini baholash usullari orasida eng ko'p

qo'llaniladiganlari quyidagilar:

- loyihaning sezgirlik tahlili;

- "Zararsizlik nuqtasi" ni aniqlash;

- barqarorlikni tekshirish usuli.

U'lgorida ko'rib o'tilgan riskni boshqarish bosqichlari va riskni baholash

usullari yordamida risk sababli bo'ladigan yo'qotishlarni pasaytirish, ular bilan

bog'liq ko'ngilsiz oqibatlarni kamaytirish usullarini taklif qilish mumkin.

Miqdoriy tahlil quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi: statistik ko'rsatkichlar o'zgartirish usuli va boshqalar.

Xavfsizlik zaxirasi darajasini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\text{Xavfsizlik zaxirasi} = \frac{\text{Xavfsizlik nuqtasiga} - \text{Zararsizlik nuqtasiga}}{\text{Xavfsizlik nuqtasiga}} \times 100$$

Xavfsizlik zaxirasi miqdori ganchalik kichik bo'lsa, firmaning zarar ko'rish riski shunchalik yuqori bo'ladi.

Loyihalar tahlilida ham sifat, ham miqdor jihatdan tahlil ketma-ket qo'llanilmasa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Loyiha risklarini aniqlash, tadqiq qilish, baholash va pasaytirish tadbirlarida risklarni boshqarish tizimi g'oyalarda quyidagi masalalarga e'tibor qaratiladi: loyihaning risklarini aniqlash va baholash usullari; loyihaning boshqarishining axborot ta'minoti; risklarning monitoringi va istiqbolini belgilash; risklarning oldini olish; risklarni kamaytirish texnologiyalari; risklarni boshqarishni tashkil etish; risklarni taqsimlash; risklarni sug'urtalash; risklarni boshqarish xarajatlarning optimal darajasini asoslash va samaradorlikni baholash; risklarni mohiyalashtirish; natijalarni o'rganish va monitoring olib borish; monitoring ma'lumotlari asosida risklarni boshqarishda qo'shimcha chora-tadbirlarni qabul qilish.

Investitsiya loyihasida uchraydigan risklarni boshqarish yoki sug'urtalash yo'li bilan ular tufayli ro'y beradigan yo'qotishlarni kamaytirish yoki bartaraf etish mumkin. Bunda qaysi usulning tanlanishi loyihani amalga oshiruvchilarning o'zaro kelishuviga bog'liqdir.

Risklarni aniqlash va boshqarish uchun uni keltirib chiqaruvchi tashqi omillarni (moddiy resurslarga bo'lgan narxning tebranishi, iqtisodiy o'sish va kelguski mahsulotga bo'lgan talabning o'sishi, inflyatsiya, bank foiz stavkasining o'zgarishi, texnologiyaning rivojlanishi, siyosiy holat, iqtisodiy siyosat, shu jumladan, soliq siyosati, ekologik qonunchilik, tabiiy omillar va boshq.) hamda ichki omillar (loyihalashtirilayotgan obyektning qurilish grafi, joriy va ekspluatatsion xarajatlari, ishlab chiqarish quvvatlarining o'zlashtirishi va boshq.) mobayta olish lozim bo'ladi. Risklarni sifat tahlili – bu loyihaga bo'yicha kutilishi mumkin bo'lgan asosiy risklarni aniqlash, loyihani amalga oshirishda uning oqibatlarini o'rganish va risklarni pasaytirish yo'llarini aniqlashdan iborat.

Investitsion risklarni sifat jihatdan tahlil qilishning o'ziga xos xususiyati uni miqdoriy natijalar sifatida aks ettirishdadir.

Loyihaviy risklarning sifat tahlilini o'tkazish jarayonida loyihaga bo'yicha aniq risk turlari aniqlanadi, ularni paydo bo'lish sababari o'rganiladi, risklarni pasaytirish yuzasidan tavsiyalar va loyihani amalga oshirish oqibatlarini tahlil qilinadi.

Sifat jihatdan risklarni tahlil qilish soddaga va qulay, uning asosiy maqsadi risklarni sababini aniqlash, manbasini ko'rsatish va pasaytirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Sifat jihatdan tahlil keyinchalik boshqa izlanishlarga asos bo'ladi. SHuning uchun biznes-reja tuzish bosqichida keng qo'llaniladi. Sifat jihatdan tahlilni natijalar: riskni sababini aniqlash, risk oqibatlarini tahlil qilish, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararni o'lchash va kamaytirish yo'llarini izlash, risk ta'siriga tushuvchi omillarni chegaralash ko'rsatkichlarini (minimum va maksimum) aniqlash.

Risklarni sifat jihatdan tahlilni kamchiliklari: aniq o'lchovli ma'lumot bermasligi va uning subyektivligi, ya'ni tahlil natijalari to'la tahlil qilyotgan shaxsga, uning bilim darajasiga bog'liqligidir.

Investitsion risklarni baholash usulining asosiy afzalligi, loyihaga tahlil jarayonida ekspertlar tajribasini qo'llash imkoniyatining mavjudligi va turli xil sifat omillarining ta'sirini hisobga olishda namoyon bo'ladi. Loyihaga rahbari (firma) ekspert so'rovnomalari ko'rimishida baholash mezonlarini ishlab chiqadi, komputer yordamida hisoblab chiqadi.

Agar tahlil qilinaoigan loyha bo'yicha diskontlash stavkasi kapital uchun foizdan yuqori bo'lsa, u holda sof joriy qiymat nol dan katta va loyha samarali bo'ladi. Agar bu stavka kapital uchun foizdan kichik bo'lsa, u holda loyha samarasiz deb topiladi, uning sof joriy qiymati nol dan kichik bo'ladi. Demak, diskontlashning stavkasining shunday miqdorini topish kerakki, bunda sof joriy qiymat nolga teng bo'lsin.

Investitsiyalarni diskontlash tirilgan qoplash muddati ko'rsatkichi ularning sof joriy qiymatda to'liq qoplanishning aniq davrini tavsiflab beradi. Kamchiligi esa, qilingan investitsiya qoplangandan so'ng uning samaradorligini ko'rsatib bera olmaydi va uni loyhaning foydalligini aniqlashda qo'llab bo'lmaydi.

Tarqiy etgan mamakalarda loyihalarni kompleks ekspertiza qilishning bir nechta modelaridan foydalaniladi. Jumladan, umumiy model, qiymat model, BSC (muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimi) model, ABPA (kompaniyaning asosiy bahol ko'rsatkichlar tizimi) model, BSC+EVA (muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimi) model, Ushbu modelardan foydalanishda har birining o'zining ustun va kamchilik tomonlari bor. SHuning uchun investitsiya loyihalarni kompleks ekspertiza qilishda ichki va tashqi omillarni to'liq qamrab olish, loyhaning hayotiylik sikli, texnologik jarayonlari va manfaaddor tomonlarning talablarini to'liq hisobga olish zarur bo'ladi. Yuqorida sanab o'tilgan modelarda loyihalarning eng muhim xususiyati korxon va tashkilotlarning keyingi holatini va loyihaga ta'sir etuvchi risklar hisobga olinmagan. O'rganilgan modelardan tarqiy etgan mamakalarning loyihalarni kompleks ekspertiza qilishda BSC (muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimi) + EVA (iqtsodiy qo'shimcha qiymat) modelidan foydalanish tavsifa etildi. Har qanday kirib kelayotgan investitsiyalarni kompleks tarzda baholashda "manfaaddor tomonlar" ni talablarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Tarqiy etgan mamakalarda "manfaaddor tomonlar"ni talablarini aniqlashda uchta omil dan foydalaniladi. Jumladan, o'zaro hamkorlik harakatining kafilik samarasi, kutuvchanlik qobilyati va ishbiarmonlik faolyati hisobga olinadi. "Manfaaddor tomonlar"ni integral

$$PI = \left[\sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+k)^t} \right] / \left[\sum_{t=1}^n \frac{I_t}{(1+k)^t} \right]$$

bu erda, $I_t - t$ yildagi investitsiyalar.

Ushbu va sof joriy qiymat ko'rsatkichlarini taqqoslama baholash shuni ko'rsatadiki, sof joriy qiymat o'sishi bilan investitsiyalar rentabelligi ham o'sadi va aksincha. Agar rentabellik ko'rsatkichi "1"ga teng yoki undan kichik bo'lsa, loyha rad etilishi kerak, chunki u qo'shimcha foyda keltirmaydi. $NPV=0$ da foydallik indeksni hamisha 1 ga teng bo'ladi. SHuning uchun loyhaning amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilishda ular dan ixtiyoriy birini qo'llash etarli hisoblanadi, biroq taqqoslama bahoda har ikkala ham ishlatiladi.

Foydaning ichki me'yori usuli – bu pul tushumlarining diskont qiymati pul chiqimlarining diskont stavkasiga teng bo'lgandagi daromadlilik darajasi. Boshqacha so'z bilan aytganda, loyhadan olingan sof tushumlarning diskontlangan qiymati investitsiyalarning diskontlangan qiymatiga, sof joriy qiymat esa nolga teng bo'lgandagi diskont me'yordir. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun sof joriy qiymatni aniqlashda ishlatilgan formuladan foydalaniladi va sof joriy qiymat nolga tenglashadigan minimal foiz stavkasi topiladi. Aynan shu foiz stavkasi foydaning ichki me'yori usuli deb nomlanadi.

$$NPV = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+k)^t} - I_0 = 0$$

Bu erda k miqdorini topish lozim bo'ladi. Topilgan miqdor foydaning ichki me'yori deb nomlanadi.

Ushbu formulani boshqacha ko'rinishda ham ifodalash mumkin:

$$IRR = k_1 + \frac{P}{P(k_2 - k_1)} + \frac{N}{P + N}$$

Bu erda, P (positive) foiz (kichik) foiz (diskont) stavkasidagi sof joriy

qiymatning ijobiy miqdori; N (negative) – k_2 yuqori foiz stavkasidagi sof joriy qiymatning salbiy miqdori; P va N – har doim ijobiy (musbat) miqdorga ega; k_1 va k_2

– bir yoki ikki punktadan (foizdan) ortig'iga farq qilishi kerak emas.

1. Riskdan qochish - risk bilan bog'liq tadbirlardan, shu jumladan foydadan ham

voz kechishni bildiradi.

2. Riskni loyiha ishltkochlari o'rtasida taqsimlash (riskning bir qismini hamkorlarga berish) - loyihaning moliyaviy rejasini va aniq hujjatlarni ishlab chiqishda amalga oshirilib, loyihaga qatnashchilarni undagi ulushi va sharotiga binoan risk ular o'rtasida taqsimlanadi. Tuzilgan kontraktlarda har bir riskli hodisa uchun risk ular o'rtasida taqsimlanadi. Tuzilgan kontraktlarda har bir riskli hodisa uchun mukofot summasi ko'rsatiladi va agarada risk sodir bo'lmasa, mukofot shu risk bo'yicha javobgarlikni bo'yning o'lgan qatnashchiga beriladi.

3. Riskni sug'urtalash - loyihalarda bo'yicha risklarni pasaytirishni eng keng tarqalgan metodlardan biri bo'lib, muayyan risklarni sug'urta kompaniyalariga berishni anglatadi. Uning mohiyati investorning riskdan qutish maqsadida daromadning bir qismidan voz kechish orqali aks ettiriladi. Bunda investorning risk darajasini "no'l"ga tushurish uchun to'lovni amalga oshirishga tayyor ekanligini tushinish mumkin.

4. Riskni pasaytirish - ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun zaxira mablag'larni tashkil etish yo'li bilan yo'qotishlar hajmini qisqartirish hisoblanadi. Mazkur zaxira mablag'larni tashkil etishdagi asosiy muammo risklarning jiddiy oqibatlarini baholash hisoblanadi. Buning uchun loyihaga qiymatni boshlang'ich baholashni hisobga olish lozim. Bu esa zaxira summasini aniqlashga katta yordam beradi.

5. Diversifikatsiya investitsion portelni o'zaro bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan turli usullari o'rtasida investitsion mablag'larni taqsimlash jarayoni o'zida ifoda etadi. Turli faoliyatlar o'rtasida investitsion resurslarni taqsimlashda risklarning bir qismidan qutishga diversifikatsiya imkon yaratadi. Diversifikatsiya ishlab chiqarishda maxsulot assortimentini ko'paytirish, moliya bozorida - turli emitentlar qiymatli qog'ozlarga kapital sarflash, valyuta bozorida - turli mamlakatlarda valyutasi bilan operatsiyalarni amalga oshirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Masalan, bitta kompaniyaning qiymatli qog'ozini sotib olgandan ko'ra bir nechta kompaniyaning qiymatli qog'ozlarini sotib olishning o'zi bir vaqtning o'zida fond bozorida daromad olish ehtimolini bir necha bor oshiradi va tegishli ravishda

risk darajasini pasaytiradi.

6. Qo'shimcha informatsiyani qo'lga kiritish - hozirgi zamonada informatsiya

eng kerakli va qiymatli tovardir. U qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi.

7. Limitlash - limit o'rnatish, ya'ni sarflar, sotish, kredit, maxsulot bahosi va h.k. chegarasini belgilash. Haqiqiy ko'rsatkichlarni o'rnatilgan limitga yaqinlashish - bu investor uchun xavfli yaqinlashayotganligi haqida signaldir.

8. Zaxiralar yaratish - bu shunday metodki, qachon risk hodisasi uchun javobgarlikni butunlay va to'liq o'z bo'yiga oladi. Korxonada asosiy faoliyatiga riskning ta'sirini pasaytirish uchun unda zaxira fondi tashkil qilinadi va risk sodir bo'lganda ushbu fondan ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplandi.

O'zbekiston bank tizimida amaliyotida kredit berish barcha operatsiyalar tarkibida eng salmoqli o'rinni egallaydi. SHu bois kredit riskini minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish o'ta dolzarb masala bo'lib qolaveradi. Bu tadbirlar qatoriga quyidagilar kiradi (8.3-jadval).

№	Riskni kamaytirish choralari	1.	2.	3.	4.	5.
		<ul style="list-style-type: none"> Bu usul miqozning reytingini aniqlashni ko'zda tutadi. Qardorni baholash mezonlari har bir bank uchun qattiq individuallashgan bo'lib, uning amaliyotidagi mavqedan kelib chiqishi va vaqt-vaqt bilan qayta ko'rib chiqilishi lozim. 	<ul style="list-style-type: none"> Bitta qarz oluvchiga beriladigan kreditning sum-masini kamaytirish 	<ul style="list-style-type: none"> Kreditni sug'urtalash uning qaytmashlik riskini to'liq sug'urtalash bilan shug'ullanuvchi tashkilot zimmasiga yuklanishini nazarda tutadi. 	<ul style="list-style-type: none"> Etarli ta'minlashni talab qilish 	<ul style="list-style-type: none"> Diskononli ssudalar berish
		<ul style="list-style-type: none"> Bu usul miqozning kreditiga layoqatligiga to'liq amin bo'lgan hollarda qo'llaniladi. 		<ul style="list-style-type: none"> Kreditni sug'urtalash uning qaytmashlik riskini to'liq sug'urtalash bilan shug'ullanuvchi tashkilot zimmasiga yuklanishini nazarda tutadi. 	<ul style="list-style-type: none"> Bu usul bankdan bergan summaning qaytishini va foiz olinishini kafolatlaydi. 	<ul style="list-style-type: none"> Bu ssudalar unchalik katta bo'lgan darajada kredit riskini pasaytirishga yordam beradi. Bunda usullarda kredit berish kreditiga minimum to'lov olishni ta'minlaydi.

8.3-jadval Kredit riskini kamaytirish usullari

8.3-jadval

9-bob. VALYUTA BOZORI STATISTIKASI

9.1. Valyuta bozorining mohiyati, iqtisodiyotda tutgan o'rnini va rivojlanish

jarayonlari

Valyuta bozori – bu chet el valyutasi oldi-sotidisini va chet el valyutasidagi qimmatbaho qog'ozlarni hamda valyutaviy kapitalni investitsiya qilish munosabatlarini amalga oshiruvchi iqtisodiy munosabatlarni namoyon qiluvchi markaz hisoblanadi. Valyuta bozorlari – bu talab va taklif asosida turli xil valyutalar oldi-sotdi qilinadigan rasmiy markazlardir.

Har qanday mamlakatning iqtisodiyotini rivojlangan moliya-kredit bozorisiz tasavvur etish mumkin emas. Bu moliya bozorlarida sotuvchi va xaridorlar pul-kredit mablag'larini va investitsion qimmatliklarni iqtisodiy munosabatlar orqali ayirib oshlash yuzaga kelishini, ya'ni ularning tanaxlini va iste'mol qiymatini namoyon qiladi.

Valyuta bozori moliya bozorining muhim va asosiy qismini tashkil qiladi. Valyuta bozorlari – jahon xo'jaligining ajralmas bo'lagi bo'lib xisoblanadi. Valyuta bozorlarida banklar va kompaniyalar valyuta operatsiyalarini, ya'ni valyutalarning oldi-sotidisini amalga oshiradilar.

Valyuta bozorlaridagi operatsiyalarning asosi bo'lib, tashqi savdo bo'yicha xalqaro hisob-kitoblar, xalqaro turizm, kapitallar va kreditlarning davlatlararo harakati hamda chet el valyutasini oldi-sotdi qilish bilan bog'liq boshqa hisob-kitob operatsiyalari hisoblanadi.

Zamonaviy valyuta bozori, o'zining ko'pgina xususiyatlariga ko'ra ssuda kapitallari bozoriga yaqinlashdi. Ularning iqtisodiy funksiyalari o'xshash, a'zolari tarkibi va operatsiyalarini amalga oshirish texnikasi deyarli bir xil va baholar shakllanishi uzviy bog'liq. Moliyaviy talab va taklif solishtirma og'irligining o'sib borishi bilan valyuta bozori ko'proq ssuda kapitallari bozoriga xizmat ko'rsatishga o'tmoqda.


SHuni ta'kidlash lozimki, valyuta bozorining vazifalari va mexanizmidagi o'zgarishlariga qarab ham, uning an'anaviy milliy bozorlarda bo'linishi (muayyan

davlat hududida rezidentlar va xorijiy tashkilotlar orasidagi barcha operatsiyalarni ko'zda tutgan holda) shartli bo'lib qoladi.

Jahon bozorida asosiy valyuta chegaralanishlari yo'q yoki ular cheklangan miqdorda mavjud AQSH, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, SHveysariya, SHveysiya, Kanada, Norvegiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Syangan (Gonkong), BAAlari kabi davlatlarni tashkil etadi.

Valyuta bozorining murakkab iqtisodiy tabiati, uning ko'p yo'nalishli tarkibiy tuzilishi, operatsiyalarini tashkil etilishi, ularning obyektlari va subyektlari bilan belgilanadi.

Valyuta bozori banklararo, mijozlararo va birja bozorlarida shuningdek, broker va to'g'ridan-to'g'ri naqli, muddatli va shu kabi bozorlarga bo'linadi. Umumiy qilib oladigan bo'lsa, valyuta bozorni quyidagi turlarga bo'lish mumkin.



Valyuta bozorlarida fyuchers; option; SVOP; forward; SPOT; SVOP kabi bitimlar amalga oshiriladi. Amal qilishiga ko'ra valyuta bozorlarini quyidagi:

1. Jahon valyuta bozori;
2. Hududiy valyuta bozori;
3. Milliy valyuta bozorlariga bo'lish mumkin.

Valyuta bozorlari valyuta munosabatlari subyektlari va ularda ishlatiladigan valyutalar miqdori bo'yicha milliy, hududiy va jahon valyuta bozorlariga bo'linadi. Milliy valyuta bozorlari - bir mamlakat ichkarisidagi rezidentlar va xorijiy yuridik hamda jismoniy shaxslar o'rtasidagi valyuta munosabatlarini o'zida

9.1-jadval

Valyuta bozorlari ishtirokchilari

Asoslar	Bozor ishtirokchilari	Tijorat banklari	Tashkilotlar (eksportyor va importyorlar)	Markaziy bank	Brokerlar
	- hisob-kitoblarning o'tkazilishi; - mijozlar uchun bitimlar; - o'z mablag'lari bo'yicha pozitsiyalarining balanslashuvi.	- mijozlar uchun bitimlar; - o'z mablag'lari bo'yicha pozitsiyalarining balanslashuvi.	- xorijiy valyutada to'lovlar; - tanarxning kalkulyatsiyasi, valyuta risklarini kamaytirish, imkoniyatlarni qo'llash uchun sug'urtalash uchun valyuta risklarini kamaytirish, olinishi; - valyutaning sotib olinishi; - valyuta risklarini kamaytirish, imkoniyatlarni qo'llash uchun bitimlar; - xorijiy valyutada to'lovlar, bazaning yaratilishi; - qulay shartlarning olinishi.	- valyutani sotib olinishi; - valyutani sotib olinishi; - intervensiyalar.	- kurslarni o'rnatish va valyuta va foizli bitimlarda bevosita qatnashish.
				- to'lovlar, cheklar inkassatsiyasi, veksellar hisobi va boshqalar; - valyuta bozorlarini ushlab turish uchun valyutani sotib olish, bozorlarning normal darajada funktsiyalashuvini amalga oshirish.	- kurslarni o'rnatish va valyuta va foizli bitimlarda bevosita qatnashish.

Barcha ishtirokchilarni ikkita asosiy guruhga ajratish mumkin, bular:

1) Passiv ishtirokchilar. Ular vaqti-vaqti bilan valyuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun ehtiyot tug'ilib turadigan subyektlar bo'lib, bular ko'pincha yirik bitimlarga murojaat qilishadi. Banklarda o'rnatilgan narx bo'yicha hisob-kitob qilishadi.

2) Aktiv ishtirokchilar. Ular "Market Makers" deb ham atashadi. Ular asosan yirik va kam sonli bitimlarda ishtirok qilib, o'z bitimlariga va juda katta dillertik shartlarga egadirlar. Aynan ular bozorni shakllantiruvchilari bo'lib hisoblanadi va bularga passiv ishtirokchilar murojaat etadilar. Passiv ishtirokchilarga bular o'z narxlarini o'rnatadilar. Odatda bunday yirik banklar juda katta pul bilan ishlashadi

mujassamlashtiradi. Bu bozorlar davlat tomondan milliy pul va valyuta tizimlarini

tashkil etayotgan davrda, ya'ni mamlakat valyutasi konvertatsiyalamaydigan va keskin valyuta cheklashlarini o'rnatayotgan davrda shakllanadi. Bu mamlakatlarda jahon valyuta bozoriga faqatgina vakolatli («deviz» yoki «valyuta») banklari chiqa

oladi. Bunga yaqqol misol qilib O'zbekiston valyuta bozorini ko'rsatish mumkin.

Hududiy valyuta bozorlarida – ma'lum bir xudud, territoriyada joylashgan mamlakatlarda rezidentlari va norezidentlari o'rnatidagi valyuta munosabatlari

o'rnatiladi. Bunga misol tariqasida Evropa valyuta bozorini ko'rsatish mumkin.

Jahon valyuta bozori – talabi va taklif asosida xorijiy valyuta savdosi amalga oshiriladigan xalqaro markazlardir. Jahon valyuta bozori milliy va xududiy valyuta bozorlarini spunik va monitor aloqa tarmoqlari orqali EHM yordamida yagona bozorga birlashtiradi. Monitorlar xorijiy valyutaning jahon savdosida qatnashuvchi

barcha banklarda o'rnatilgan. Video ekran tizimida qatnashmaydigan banklar valyuta operatsiyalari uchun zarur bo'lgan axborotni telefon yoki teleks yordamida olishga majburlar. «Wall Street Journal» yoki «Financial Times» kabi iqtisodiy-moliyaviy gazeta va jumallar, muhim bozorlardagi valyuta kurslari to'g'risidagi axborotlarni e'lon qilib turadi.

Yirik jahon valyuta bozorlari London, Frankfurt, Parij, Syurix, Nyu-York, Tokio, Singapur va Bahreyn da faoliyat ko'rsatmoqda.

Ular kuniik oboroti I trn. AOSH dollaridan ortiq bo'lgan yagona jahon bozorini tashkil etadilar. Bu valyuta bozorlarida tuziladigan valyuta bitimlarining 90 foizi savdo operatsiyalari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq emas, ya'ni chayqovchilik xarakteriga ega.

Valyuta bozori rivojlanishining eng muhim tomoni uning qatnashchilari va ishtirokchilarini o'rnatidadi. Bu omillar o'z navbatida, konversion muammolarining sezilari o'rnatidadi. Shu bilan birga, kotirovka qilinayotgan

valyutalarining soni ham ortdi.

o'tkazishda SVIFT elektron tizimi keng qo'llanilmoqda. Valyuta bozorida banknotalar yoki tangalar ishtirok etmaydi, turtli milliy pul birliklari vakillik hisobvaraqlardagi yozuvlar sifatida qatnashadi.

Valyuta bozorlaridagi operatsiyalar tashkil etish bo'yicha kassa (naqd) va muddatli, vositachilik (brokerlik va to'g'ridan-to'g'ri), vositachilarsiz (banklarning va bitta) valyuta operatsiyalariga bo'linadi. Barcha amalg oshirilayotgan valyuta operatsiyalarining 85-95 foizi banklarning valyuta bozoriga to'g'ri keladi.

Valyuta bozorining elementlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Valyuta kursi;
2. Moneta partii;
3. Valyutalarning minimal va maksimal kurslari;
4. Valyuta savati;
5. Valyuta operatsiyalari hisoblanadi.

Valyuta kursi – bu turli mamlakatlar pul birliklari o'rtasidagi, ularga bo'lgan talab va taklif asosida yuzaga keluvchi nisbati bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birliklarida ifodalangan bahosidir. Valyuta kursini o'rnatish kottirovkalash deyiladi. Agar xorijiy valyuta birligining bahosi milliy valyutada kursatilsa, ya'ni xorijiy valyutaning bir birligiga to'g'ri keladigan milliy valyuta miqdori kursatilsa, bu to'g'ri kottirovkalash deyiladi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Valyuta birligida 2019 yilning 3 martida so'mning kursi 1 AQSH dollariga nisbatan 8389,97 so'mni, 1 evroga nisbatan 9491,57 so'mni tashkil etdi.

Valyuta kursi erkin suzib yuruvchi, cheklangan darajada suzib yuruvchi va qayd etilgan valyuta kurslariga ajratiladi. Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi ma'lum valyutaga bo'lgan bozor talabi va taklifi ta'sirida o'zgarib turishi mumkin. Cheklangan darajada suzib yuruvchi valyuta kursining o'zgarishi ayrim valyutalar yoki bir guruh valyutalar (valyuta savati) kursi o'zgarishiga boklik. Qayd etilgan yoki rasmiy valyuta kursi – bu xorijiy valyutada ifodalangan milliy pul birligining davlat tomonidan rasmiy o'rnatilgan bahosi bo'lib, unga valyuta bozorida talab va taklifning o'zgarishi ta'sir qilmaydi.

(hatto 100 mln. AQSH dollari – "One spot" odatda bita savdo summasi o'rta 5-10 mln. AQSH dollar). SHuning uchun ham bu ishtirokchilar bozorni boshqara oladilar.

Faqatgina eng yirik banklarning valyuta departamentlariga egadir, ular eng tajribali dillerlar savdo, chayqovchilik va arbitraj operatsiyalarini amalga oshirib boradilar. Boshqa banklar esa o'z mijozlarining buyurtmalarini amalga oshirish uchun valyuta bozorida ishtirok etadilar.

Yana bir guruh banklar borki, ular yirik, lekin "Market Makers"larga o'xshab ko'plab bo'limlarga ega emaslar. Ular odatda bir yoki bir nechta valyutalar bilan ishlashadi va o'rta 5-10 mln. AQSH dollari (bitta) savdo qilishadi. Bu banklar ko'pincha brokerlik firmalari xizmatlaridan foydalanishadi. Barcha valyuta operatsiyalarining taxminan 30 foizi brokerlik firmalari orqali o'tadi. Brokerlik firmasi biror bir aniq broker orqali sotib oluvchi va sotuvchi banklar o'rtasida vositachilik qiladi. Ko'pincha bu xizmatlari uchun brokerlar har bir sotilgan yoki sotib olingan 1 mln. AQSH dollari yoki uning ekvivalenti uchun 20 AQSH dollari atrofida to'lov oladilar. Albatta brokerlar narxlar valyutalarni kottirovka qiluvchi banklar va savdoni amalga oshiruvchi mijozlar faoliyatiga bog'liqdir.

Bevosita valyuta birligining ishtirokchilari bo'lib dillerlar, brokerlar, maklerlar hisoblanadi. Dillerlar trans milliy korporatsiyalar bilan valyuta operatsiyalarini amalga oshiradilar. Brokerlar sotuvchi va xartidorlar o'rtasidagi vositachilar bo'lib, faqatgina boshqalar nomidan faoliyat yuritadi. Maklerlar esa valyuta birligining xodimlari bo'lib, valyuta operatsiyalarining amalga oshirishiga yordam beradilar.

Valyuta bozorlarining muhim ishtirokchilari hisoblangan brokerlar turtli assotsiatsiyalariga birlashib faoliyat ko'rsatadilar. Masalan, yarimyo'piq assotsiatsiyaga birlashgan "Vita London" brokerlik firmalari jahonda eng yirik ta'sir kuchiga egadir. Jahonda butun valyuta operatsiyalarining 30% brokerlik firmalarga to'g'ri keladi. Brokerlar o'z faoliyatlarini boshlashdan oldin birladagi kliring raqamiga ma'lum miqdorda kafolat puli qo'yadilar. Brokerlar o'zlariga qatnashgan valyuta oldi-sotidi bitimlaridan ma'lum foiz oladilar. So'nggi paytlarda banklarning aloqa va valyuta bitimlarini o'tkazishning elektron vositalarining rivojlanishi bilan brokerlarning roli ancha pasaydi. Hozirgi kunda mablag'larni

Agar alohida olingan valyuta bo'yicha aktiv (talab)lar va passiv (majburiyat)lar olingan valyuta bo'yicha aktiv va talablar passiv va majburiyatlaridan ortiq bo'lsa, olingan valyuta bo'yicha aktiv va talablar passiv va majburiyatlaridan ortiq bo'lsa, valyuta pozitsiyasi uzun bo'lishi mumkin. Ochiq valyuta pozitsiyasi doimo risk bilan bog'liq bo'lib, u yuqori foyda yoki zarar keltirishi mumkin.

Ochiq valyuta pozitsiyasi risklar bilan bog'liq bo'lganligi uchun va ochiq pozitsiyada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risk bank faoliyati va uning likvidligiga ta'sir qilmasligi uchun ochiq valyuta pozitsiya (OVP) boshqarilib boriladi:

1. OVP bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zarardan ko'ra foydaning ko'p bo'lishini ta'minlashga intilish.
2. OVP bo'yicha valyutalarni sotish va sotib olish uchun limitlar o'rnatish.
3. OVPsida valyutalar bo'yicha riskni kamaytirish maqsadida xedjertlash usulini qo'llash va boshqa usullar qo'llanilishi mumkin.

Agar bankda qisqa OVP bo'lsa, u holda mazkur valyuta bo'yicha:

Passivlar → aktivlar majburiyatlar → talablar valyuta sotish > sotib olish

bo'ladi.

Bu holatni boshqarish uchun bank OVPsini yoki valyuta bo'yicha talablar va majburiyatlar o'rtasidagi farqni kamaytirish uchun valyutani sotishi bo'yicha qararnamajburiyatlar bitim tuzishi lozim.

Valyuta bozori ham boshqa bozorlar kabi davlat tomonidan tartibga solinadi va nazorat qilib tutiladi. Valyutaviy tartibga solish - bu valyuta operatsiyalarini o'tkazish, mamlakat valyuta rezervining va xo'jalik faoliyatini yuritayotgan subyektlar, valyuta kapitallarining shakllanishi, valyuta va eksport nazoratini amalga oshirish tartibi va chora-tadbirlarini o'zida mujassamlashtiradi. Valyuta bozori tartibga solish odatida barcha davlatlarda Markaziy banklar va Moliya vazirligi tomonida amalga oshiriladi.

Oltin standart yuritilgan davrda valyuta kursi moneta partiet yordamida aniqlangan. Bunda mamlakat pul birliklarining oltin miqdorlari solishtirilib, valyutalar o'rtasidagi nisbatan kurs aniqlangan. Oltin-dollar standart yuritilgan davrda barcha valyutalarning kurslari oltin hamda dollar nisbatan qayd etilgan. 70-yillarning boshlarida oltin demonetizatsiya qilish jarayoni butkul tugab, «suzib yuruvchi» valyuta kursiga o'tilishi bilan XVII doirasida shunday valyuta partiet qabul qilinadiki, unda SDR («Special Drawig Rights») xalqaro pul birligi oltin va dollar rolini o'ynagan.

Oltin standart yuritilgan davrda valyutalarning minimal va maksimal kurslari belgilanar edi. Valyutaning minimal kursi moneta partietdan oltin tashish bilan bog'liq xarajalar qiymati ayirilganiga teng. U quyidagi yoki eksport oltin nuqtasi deyiladi. Valyutaning maksimal kursi moneta partietga oltin tashish xarajalarini qo'shilganiga teng va u yuqori yoki import oltin nuqtasi deb atalgan.

Valyuta savati – bu bir valyutaning bir boshqa to'plamga nisbatan o'rtacha o'Ichangan kursini aniqlash usulidir.

Valyuta kursiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Infiyatsiya darajasi;
2. To'lov balans holati;
3. Turli mamlakatlardagi foiz stavkalari o'rtasidagi farq;
4. Valyuta bozorlari faoliyati va chayqovchilik valyuta operatsiyalari;
5. Mamlum valyutaning evro bozor va xalqaro hisob-kitoblarda foydalanish darajasi;
6. "Lidz end legz" taktikasi;
7. Milliy va jahon bozorlardagi valyutaga bo'lgan ishonch darajasi;
8. Valyuta siyosati;
9. Siyosiy holat va krizislar.

Kun davomida valyuta bozorida banklar juda ko'p operatsiyalarni amalga oshiradilar va natijada bankning talablari va majburiyatlari o'rtasidagi nisbat uning valyuta pozitsiyasini belgilaydi.

o'rtasidagi raqobat "sotish narxi" va "olish narxi" o'rtasidagi farqni katta xalqaro investitsiyasidan foydalanadi. Valyutani tartibga solishning yana bir yo'nalishi – bu

valyuta nazoratidir.

Valyuta nazoratining maqsadi – bu valyuta qiymatlilari bilan operatsiyalarni amalga oshirayotiganda valyuta gonnuchilligiga amal qilishni ta'minlashdir. Valyuta nazoratining asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- bajarilayotgan operatsiyalarning amaldagi valyuta gonnuchilligiga mosligini tekshirish;

- kerakli litsenziyalarning mavjudligi tekshirish;

- tovarlar (xizmat) eksportidan tushgan valyutani sotish bo'yicha

- majburiyatlarni bajarilganligini tekshirish;

- valyuta operatsiyalari bo'yicha hisob, hisobot va hujjatlashirishning to'liq va obyektivligini tekshirish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

9.2. Valyuta bozorida tijorat banklarining tuzgan o'rni

Valyuta operatsiyalari valyuta bozorlarida asosan tijorat banklari orqali amalga oshiriladi. Tijorat banklari shartnomaga binoan xorijiy korrespondent banklarining inkasso va boshqa to'lov topshiriqlarini bajaradilar.

Boshqa banklar va broker firmalari o'zlarini valyuta operatsiyalarini yirik tijorat banklari boshqaruvida amalga oshiradilar. Dunyoda 85-95 foiz valyuta kelishuvlari

banklar va broker firmalari to'g'ri keladi.

Tashqi valyuta bozorlarida asosiy ishtirokchilar bo'lib yirik tijorat banklari hisoblanadi va ular diller funksiyasini bajaradi. Diller sifatida ular ikki yoki undan

ortiq valyuta (pozitsiyalarni qo'llaydilar) qo'yilmalariga ega bo'ladilar. Masalan, "Cheyz Manxetten bank" London va Nyu-Yorkda o'z bo'limlariga ega. Nyu-

Yorkdagi bo'limi Londondagi bo'limida funt sterlingda depozitlarga ega va London bo'limi Nyu-Yorkdagi bo'limida AQSH dollarida depozitlarga ega. Bu bo'limlardan

har biri omonatchigaga mahalliy pul birligiga chet el valyutasini taklif etishi mumkin. Banklar bu operatsiyaning amalga oshirish uchun diller sifatida foyda oladi. Banklar

o'rtasidagi raqobat "sotish narxi" va "olish narxi" o'rtasidagi farqni katta xalqaro operatsiyalar uchun I foiz darajasida saqlaydi.

SHuni ta'kidlash lozimki, hamma tijorat banklari ham valyuta bozorlarini ishtirokchisi bo'la olmaydi. CHunki valyuta bozorida operatsiyalarni amalga oshirish uchun tijorat banki mamalakat Markaziy bankidan (bosh) litsenziya olishi shart.

Valyuta operatsiyalarini amalga oshirishga huquq bergan banklar deviz yoki valyuta banklari deyiladi. Valyuta bozorlarining valyuta operatsiyalaridan hamma deviz banklar bir xil darajada ishtirok etolmaydilar. Bankning o'Ichami, uning obro'si, xorijiy bo'limlari va sho'balari tizimini rivojlantirish darajasi va boshqa omillar uning valyuta bozordagi o'rni ko'rsatadi.

SHu sababli valyuta operatsiyalarini katta qismini yirik tijorat banklari hissasiga to'g'ri keladi. Bularni gatorida Benk of Amerika, Sitibenk, CHeyz Manxetten benk, Buyuk Britaniyadagi kiting banklari, Germaniya va SHveysariyadagi grossbanklari, yirik tranzit banklarini kiritish mumkin. Bu borada ba'zi transmilliy banklar foydali kelishuvlar uchun bir muncha mavgega egadirlar. Xorijiy bo'limlarning keng tizimidan transmilliy banklar valyuta operatsiyalarini kun davomida amalga oshiradilar.

Valyuta operatsiyalari odatda bevosita banklararo (teleks yoki telefon orqali) sodir bo'ladi, lekin shunga qaramay bir qancha mamalakatlarda, masalan Germaniya, Fransiya, Yaponiya va boshqa gator mamalakatlarda, Skandinaviyada valyuta birjalari saqlanib qoldi. U erda Markaziy bank vakillari valyuta bozori ishtirokchilari bilan uchrashadilar, biroq ularning ta'siri sezilarisiz. 70-yillardan boshlab valyuta bilan savdo qisman tovar birjalarda ham amalga oshirilmogda (CHikago, Nyu-York, London, Singapur, Syangan, Montreal).

Valyuta operatsiyalari bank faoliyatini murakkab turini namoyon qiladi. Ular valyuta bozorlariga to'g'ri baho berish va prognoz qilish gobiliyatiga ega bo'lishni talab etadi. Biroq, prognozlarining samarasi odatda kam seziladi, chunki valyuta kelishuvlari, obyektiv va subyektiv sifatidagi risklarga duchor bo'ladilar. Riskning obyektiv asoslari - mamalakat iqtisodiyoti, valyuta kursi va bozorini o'zgaruvchanligidir. Subyektiv omil dillerning huquqlari chegarasida uning qabul

qilgan qarorlardan operatsiya hajmi va valyuta kursi o'zgarishiga bog'liq. Har daqiqada o'nlab, millionlab dollarlariga shartnomalar tuzilishini esga olib, ularning nofoya harakatlari katta yuqizishlariga sabab bo'lishini aniq tasavvur qilishimiz mumkin.

Tijorat banklarining kredit-depozit valyuta operatsiyalari - bu erkin pul mablag'larini joylashtirish, shuningdek, turli muddatlarda muayyan foiz asosida xorijiy valyutalarda eishtamaydigan mablag'larini jalb qilish bo'yicha qisqa muddatli (1 kundan 1 yilgacha) operatsiyalarining yig'indisidir. Mazkur operatsiyalar banklar va kompaniyalarining qisqa muddatli likvidligini ta'minlaydi va daromad olish maqsadiga xizmat qiladi.

Ingliz tilida bunday operatsiyalar bir atama bilan valyuta bozori operatsiyalari (Money Market Operations, yoki qisqacha MMO) deb nomlanadi.

Valyuta bozori operatsiyalarida quyidagi bitim turlari farqlanadi:

- Mablag'larini joylashtirish bo'yicha - xorijiy valyutada kreditlash. Unga kreditlar mos keladi;
- Mablag'larini jalb qilish bo'yicha - xorijiy valyutada qarz olish. Unga depozitlar to'g'ri keladi.

- Real xalqaro va mahalliy amaliyotda pul bozorning banklararo ssuda operatsiyalarida "depozitlar" atamasi ishlatiladi, ular quyidagilarga bo'linadi:

- Jalb qilingan depozitlar;
- Joylashtirilgan depozitlar.

Qisqacha tarzda depozitlar DERO yoki DR kabi belgilanishi mumkin.

Har bir kredit vaqt bo'yicha muayyan muddat yoki davomiylikka egadir. Kreditni joylashtirish (yoki jalb qilish) sanasi - valyutalash sanasi, qaytarilish sanasi kreditning tugashi deb nomlanadi.

Valyuta bozorning depozitlari ko'pchilik hollarda 12 oyga (1 yilga) joylashtiriladi. Bunda haftaga karrali muddatlar uchun depozitning tugash sanasini aniqlashda tugash sanasi valyutalash sanasidan keyingi aniq haftalar soniga suriladi, ya'ni aynan o'sha hafta kuniga to'g'ri keladi. Oyga karrali muddatlar uchun depozitning tugash sanasi

Muddatlari bo'yicha depozitlarning 3 ko'rinishi farqlanadi:

Talab qilib olinga qadar depozitlar - mablag'lar bankka noaniq muddatga joylashtiriladi. Biroq depozitning qaytarilishi (yoki summasining kamaytirilishi) uchun avvaldan (24 soat avval, 2 kun oldin va h.k.) xabar berish lozimligi sharti mavjud. Onkol depozitlar uchun pasaytirilgan suzib yuruvchi foiz stavkasi xususiyatidir, u muayyan davr asosida (masalan, har hafta) ikki tomonning rozligi bilan o'rnatiladi;

Qisqa muddatli bir kunlik depozitlar. Ularga «overnayt» (o/n), «tom-nekst» (t/n), «spot-nekst» (s/n) tipidagi bir kunlik depozitlar kiradi. Mazkur depozit turlardan banklarning NOSTRO shetlari bo'yicha qisqa muddatli likvidligini ta'ribga solishda foydalaniladi.

Qat'iy belgilangan muddatlardagi depozitlar. Odatda depozitlar standart muddatlarga 7 kun (1 hafta), 1, 2, 3, 6 oy va 1 yilga joylashtiriladi. Bu muddatlar «to'g'ri sanalar» («straight dates») nomini olgan. Amaliyotda depozit muddatini spot sanasidan hisoblash qabul qilingan, biroq bazida «ertaga» (from tomorrow), yoki hatoki «bugun» (from today) valyutalash sanasi sharti asosida joylashtiriladigan depozitlar ham uchraydi, masalan: ertadan bir haftalik depozit «tom-uk» (t/w).

Valyutalash sanasining tanlanishi quyidagilarga bog'liqdir:

- depozit valyutasi;
- joylashtirish vaqti;
- depozit valyutasi davlati va bank o'rtasidagi soatlar farqi.
